

UNIVERSAL CONFERENCE

# PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH

ISTANBUL

universalconference.us

# PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH

## VOLUME-02, ISSUE-02

**Editor in Chief**

**Dr. Rajeet Ojha** - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

**Editorial Team**

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor,REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof.Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology(IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra -Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

# IS THERE A MECHANISM FOR TAXING FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY

**ISLAMOV ERKIN GAYRATOVICH**
**Doctor of Philosophy in Economics(PhD)**

Taxes serve as a crucial tool for the government to regulate and stimulate foreign economic activity. Therefore, as part of effective state control of foreign trade, improving the tax system for import-export activities is of great importance. According to a study by the magazine “Business Week”, over the past thirty years, international trade has contributed about 25% to global GDP growth, which emphasizes its importance. This importance is even more evident for Uzbekistan, where foreign trade provides 50-75% of technological advances and supplies a significant part of the necessary goods. Therefore, regulating export-import operations through tax policy is important.

The use of tax strategies to manage export-import transactions is increasingly recognized as an important tool for shaping competition in the domestic market.

From this point of view, at a crucial stage in the development of financial relations, there is a need for a comprehensive and systematic analysis of tax methods used to regulate export-import activities.

This chapter of our dissertation research includes an analysis of the specific aspects, problems and important role of the practice of taxation of foreign economic activity in Uzbekistan in the formation of state budget revenues. In addition, in this chapter of our research, the main attention was paid to assessing the effectiveness of the mechanism of taxation of foreign economic activity. It is also important to consider government measures to address current global tax problems in the practice of taxation of foreign economic activity in our country.

One of the main tasks of the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan is to improve the foundations of state regulation of foreign economic activity, in particular, to pay attention to changes in tax legislation related to this area.

During the study, it was emphasized that tax regulation occupies a key place in the structure of economic methods of regulating foreign economic activity, its content was revealed and its means were identified.

The results of the study show that the measures taken by regulatory bodies to control foreign economic activity through taxation include improving tax rates,

changing application procedures, and imposing incentives and penalties for failure to fulfill payment obligations.

It is known that customs duties play an important regulatory role in import operations. In our opinion, customs duties do not have the same primary, priority fiscal significance as taxes, since their purpose is to finance the activities of the customs administration, and their rates do not depend on the nature of the goods being transported or their country of origin.

According to the degree of influence on import regulation, tax levers are divided into the following (from most to least important):

1) import customs duty;

2) VAT;

3) excise tax.

According to the degree of impact on export regulation, tax levers should be placed in the following order (from most to least important):

1) VAT;

2) export customs duty;

3) excise tax.




**Figure. The share of taxes on export-import transactions in the structure of taxation of foreign economic activity (TIF)**

The tax legislation also provides for the procedure for paying profit tax by our country's transnational companies (TNCs) under the conditions stipulated in international tax treaties.

Special attention is paid to customs duties, which are an important lever in the system of tax regulation of foreign economic activity. It is in relation to this group of payments that the regulatory function of taxes manifests itself most clearly.

Thus, modern trends show that foreign trade policy is a relatively independent direction of general economic policy, "including regulation through taxes, subsidies, exchange controls, direct restrictions on imports or exports."[1]will appear asIn this regard, it is important to highlight the use of tariff and notarial methods of regulating foreign trade transactions, the types of notarial methods and their characteristics in the process of their use.

In general, the existence of non-tariff methods applied to products in international trade leads to the support of each country's national producers and the competitiveness of their products in international trade.

The scale of foreign trade of countries has grown rapidly relative to the volume of gross domestic product. This has led to the growth of export and import quotas in most countries of the world, the widespread use of non-tariff methods of regulating foreign trade. Of course, these figures show that today countries are making every effort to protect their national producers and increase exports.The World Trade OrganizationDespite measures aimed at liberalizing foreign trade, the number of non-tariff measures, including sanitary and phytosanitary measures, applied between member countries of the organization is steadily increasing in the wake of the subsequent waves of the global financial and economic crisis.

The methods used by Asian countries are noteworthy. For example, according to April 2021 data, Australia has introduced 411 sanitary and phytosanitary barriers to imported products, 203 technical barriers to trade, 122 quantitative restrictions, 2 tariff quotas, and 6 export subsidy levers. Japan has 498 sanitary and phytosanitary measures, 775 technical barriers to trade, 57 specific barriers, 42 quantitative restrictions, and 18 tariff quotas. In general, Eastern countries - China, Japan, and Korea - have the most widely used levers in the world. From this, we can see that the presence of barriers used by many countries in the world in Eastern countries leads to an increase in its export potential and foreign trade.

[1]http://el.tfi.uz/images/_2018-2019.pdf#2.

**References:**

1. Alcalá, F. Trade and Productivitu [Text]. / F.Alcalá, A.Ciccone. // The Quarterlu Journal of Economics. 2021. T. 119. № 2. P. 613-646.

2. Spartak A.N. Aktualnые problemы razvitiya vneshney torgovli i upravleniya vneshneekonomicheskim kompleksom Rossiyskoy Federasii [Elektronnыy resurs]. // VNIKI. 2020, noyabr. № 128. S. 1-7.

3. Pattnauak, S.S. Productivitu and Learning-bu-exporting: A Firm-level Analusis of Indian Manufacturing [Text]. / S.S.Pattnauak, S.M.Thangavelu. // The World Economu. 2019. T. 37. № 7. P. 1016-1026.

4. Javorcik B.S. Does foreign direct investment increase the produstivity of domestic firms? In search of spillovers through backward linkages. // The American Economic Review. 2021. Vol. 94. №3. P. 605-627.

# ISMOIL GASPIRALINING JADIDCHILIK HARAKATIDA TUTGAN O‘RNI

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti**
**3-bosqich talabasi**
**Haydarova Zarnigor Bahrom qizi**

**Annotatsiya*:*** Ismoil G‘aspiralining jadidchilik harakatidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, u turkiy xalqlarning ma’rifatli, zamonaviy va milliy uyg‘onishini targ‘ib qilgan. U jadid maktablarini tashkil etib, ta’limda yangi usullarni joriy qilgan va "Tarjimon" gazetasi orqali jamiyatni ilm-ma’rifat sari yetaklagan. G‘aspiralining "Til, din, birlik" shiori turkiy xalqlarni birlashtirish g‘oyasini ilgari surgan. Ushbu maqola Ismoil G‘aspiralining hayoti, faoliyati va uning jadidchilik harakatiga qo‘shgan hissasini yoritib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Ismoil G‘aspirali, jadidchilik, ma’rifatchilik, yangi usul maktablari, Tarjimon gazetasi, til, din, birlik, turkiy xalqlar, ta’lim islohoti, milliy uyg‘onish.

**Kirish.** Ismoil Gasprinskiy XX asr boshlarida nafaqat Rossiya musulmonlari, balki butun Sharqda mashhur va nomi chiqqan shaxslardan biri edi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o‘rtasida bo‘lgan Gasprinskiy hayotlik vaqtidayoq “millat otasi” degan nom olgani bejiz emas.. Shunday bo‘lsa-da, uning hayotiga doir ayrim faktik chalkashliklar uchrab turadi Ismoil Gasprinskiyning otasi Mustafo 1810-yilda Qrimning Gaspra qishlog‘ida dunyoga kelgan. Ismoilbey o‘ziga otasining tug‘ilgan joyiga nisbat berib Gasprinskiy deb taxallus olgani ham shundan. Shu o‘rinda uning nima uchun Gasprinskiy deb taxallus olganiga biroz to‘xtalib o‘tish lozim. O‘z vaqtida uning muxlis va izdoshlarini ham shu savol bezovta qilgan edi. Ismoilbey bu savolga “Tarjimon” gazetasiga kelgan maktubga javobida aniqlik kiritib o‘tadi. Xususan, maktubda shunday deyilgan edi: “Mashhur bir boyning uyida bo‘lgan ziyofatda ‘Tarjimon’ gazetasi haqida ancha gaplar bo‘ldi. Shu o‘rinda muharirning ismi Ismoil bo‘lsa ham familiyasi nima uchun Gasprinskiy ekan, degan savollar bo‘ldi. Ziyofat davomida turli javoblar aytilgan bo‘lsa hamki, bu masalaga oydinlik kiritilmadi. Javobini muharrirdan eshitishga qaror qilindi”. Gasprinskiy maktubdagi savolga shunday javob beradi: “Qrimda Gaspra nomida bir qishloq bor, muharrirning otasi mana shu qishloqdan. Shuning uchun ham qrimcha Gasprali, sibircha Gaspringiy, sartcha Gaspralik, arabcha al-G‘asfriy, ruscha yo Gasprov, yo Gasprinskiy deyilsa

joiz. Masalaning javobi mana shu”. Hozirgi tadqiqotlarda ham uning ismi turlicha — Turkiya va Qrimda Gasprali, Amerika, Yevropada va xususan bizda ham Gasprinskiy nomi qo‘llanilib kelinmoqda. Gasprinskiyning bobosi Ali Gaspra qishlog‘ining ulug‘laridan bo‘lgan. Shu sababli ham Kavkaz general-gubernatori knyaz Voronsov-Dashkov bilan munosabati ancha iliq bo‘lgan. Shundan bo‘lsa kerak knyaz Voronsov Alining o‘g‘li Mustafoni o‘z himoyasiga olib Odessadagi litseyga o‘qishga joylashishiga ko‘mak beradi. Mustafo o‘qishini tamomlagandan so‘ng knyaz Voronsov devonxonasida tarjimon bo‘lib ishlay boshlaydi. Keyinchalik uning qilgan xizmatlari inobatga olinib, unga dvoryan martabasi beriladi. Ammo u dvoryan bo‘lishiga qaramay moddiy jihatdan ancha qashshoqlashib qolgan va nochorlikdan qo‘lidagi bor yerlarning anchasi qarzlardan qutulishga ketadi. Mustafobey ikki marta uylanadi. Birinchi turmush o‘rtog‘i 1849-yili vafot etadi va shu yili u Qrimning mashhur Qaytazovlar oilasiga mansub Fatma xonimga uylanadi. Mustafoning bu oilasidan ikki o‘g‘li va to‘rt qizi dunyoga keladi. Ismoilbey oiladagi ikkinchi o‘g‘il bo‘lib, 1851-yilning 21-martida Ovchiko‘y qishlog‘ida tug‘ildi. U to‘rt yoshga to‘lganida oilasi Bog‘chasaroy shahriga ko‘chib o‘tadi va u yerda joylashib qoladi.

Yosh Ismoil ilk savodini Bog‘chasaroyda, Zinjirli madrasasida Hoji Ismoil degan muallim qo‘lida chiqaradi. Uning bu tahsili 10 yoshga to‘lguniga qadar davom etadi. Ayrim tadqiqotlarda uning tahsili madrasada 7 yil davom etganligi ta’kidlansa, ba’zilarida esa Ismoilbeyning madrasadagi tahsili juda oz bo‘lib, hatto ona tilidan ham yaxshi savod olmagan, degan fikrlar aytiladi. Lekin uning ona tilini (qrim-tatar tili) yaxshi bilmasligi mumkin emas. Har holda u 10 yoshiga qadar oilasi bag‘rida bo‘ldi va mahalla maktabi hamda madrasada tahsil oldi. Bu borada professor Yavuz Akpinar Gasprinskiyning usmonli turk ma’murlari bilan bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilar ekan, o‘z ona tilini mukammal bilmagan inson yuqori doiralarda qanday muomala ishlarini amalga oshirishi mumkin, deydi va uning “ona tilini yaxshi bilmaydi” iborasi “klassik usmonli tili”ga tegishli ekanligini ta’kidlaydi. Ismoilbey 10 yoshga to‘lganida otasi Mustafobey o‘g‘lini Simferopoldagi harbiy maktabga beradi. Bu maktabda ikki yil tahsildan keyin u Voronej harbiy maktabiga va u yerdan Moskva harbiy bilim yurtiga o‘qishini ko‘chirtiradi. Moskva shahrida yosh Ismoil “Moskovskiye vedomosti” gazetasining bosh muharriri professor Ivan Katkov oilasida istiqomat qiladi.

I.Katkov o‘z davrining mashhur shaxslaridan biri bo‘lganligidan uning uyiga rus adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillari tez-tez kelib turgan. Ismoilbey ham ana shunday suhbatlarning ko‘p guvohi bo‘lgan va bu suhbatlar uning

dunyoqarashi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan edi. 1868-yili 17 yoshga to'lgan Gasprinskiy Moskvadagi o'qishini tashlaydi va Bog'chasaroyga qaytib keladi. U Bog'chasaroydagi mashhur Zinjirli madrasasida rus tili o'qituvchisi bo'lib ishlay boshladi. Ismoilbey madrasada bir yarim yil o'qituvchilik qilgan davrida shahar politsiyasi boshlig'i Shestovning shaxsiy kutubxonasidan ko'p foydalanganligi ayrim manbalarda qayd etiladi. Shestovning kutubxonasi juda boy bo'lib, ayrim ta'qiqlangan kitoblar ham saqlanar edi. Bu kitoblar va davriy matbuotni doimiy mutolaa qilgan Gasprinskiyning fikr doirasi va dunyoqarashi ancha kengaydi. Gasprinskiy biografiyasiga oid asar bitgan Ja'far Saidahmad Kirimerning yozishicha, Ismoilbey 1869-yili Yaltaning Dereko'y qishlog'idagi maktabga muallim etib tayinlanadi va Zinjirli madrasasidagi faoliyati uchun maorif mudirligining maxsus yorlig'i bilan taqdirlanadi. Dereko'ydan 1871-yili yana Bog'chasaroyga qaytadi va Zinjirli madrasasidagi faoliyatini davom ettiradi.

Kirimerning ta'kidlashicha, Gasprinskiy Zinjirli madrasasida talabalarga o'z vazifasiga kirmaydigan fanlardan saboq berishi, eskicha o'quv metodlarini o'zgartirishga harakat qilishi va rus tili darslarini ko'paytirishga intilishi sababidan mudarrislarning ta'qibiga uchraydi. Mudarrislar unga hatto o'lim bilan tahdid qilganlaridan keyin Gasprinskiy madrasadan ketishga majbur bo'ladi. Gasprinskiy

Zinjirli madrasasidan ketgandan so'ng chala qolgan o'qishini tamomlash va fransuzchasini mukammallashtirish maqsadida 1871-yili Vena, Myunxen va Shtutgart shaharlari orqali Parijga keladi. Gasprinskiyning Yevropadagi tahsili borasida ma'lumot juda kam. Lekin uning Yevropaga bo'lgan sayohati keyinchalik e'lon qilingan "Dor ur-Rohat musulmonlari", "Farangiston maktublari", "Yevropa madaniyatiga bir nazari muvozana" kabi asarlarida juda keng aks etganligini va uning dunyoqarashiga chuqur ta'sir o'tkazganligini ko'rish mumkin. Amerikalik olim Aleksandr Beningsenning ta'kidlashicha, Gasprinskiy 1871-yili Qrimdan chiqib Parijga borgan va u yerda fransuz liberal va sotsialistlari bilan yaqindan tanishgan hamda sotsializm to'g'risida tanqidiy asar yozgan ilk musulmon siyosatchisi sifatida shakllandi. Bir qancha manbalarda ta'kidlanishicha, Gasprinskiy Parijda buyuk rus yozuvchisi I.Turgenevga kotiblik qilgan, uning qoralamalarini oqqa ko'chirgan. Lekin hech bir manbada bunga asos bo'ladigan dalil yoki manba keltirilmaydi. Shuningdek, u fransuz tilini biroz mukammal egallagandan keyin reklama agentligida tarjimon bo'lib ham ishlaydi. Gasprinskiy Parijda o'qib yurgan vaqtlari Yevropaning boshqa shaharlariga borganligi haqida biror-bir ma'lumot yo'q. Shunday bo'lsa-da, uning "Dor ur-Rohat musulmonlari",

"Yevropa madaniyatiga bir nazari muvozana" asarlarida keltirilgan fikrlar Gasprinskiyning Angliya, Ispaniya va Portugaliyada ham bo'lganligini ko'rsatadi.

1874-yili Gasprinskiy Parijdan Istanbulga keladi va u yerda amakisining uyida bir yil qolib ketadi. Yavuz Akpinarning ta'kidlashicha, Gasprinskiyning matbuotga chiqishi aynan Istanbulda boshlangan. U Moskva va Peterburgda nashr bo'ladigan ayrim rus gazetalariga Istanbul va Usmonli davlati hayoti haqida "yarim xayoliy maktublar" yuborib turgan. Rus olimi L.Klimovich esa Gasprinskiy Parijda ekanligi vaqtida ham ayrim rus gazetalarining muxbiri bo'lganligini yozadi va Fransiyadan Jazoir, Tunis, Misr va Gretsiya orqali Qrimga qaytib kelganini ta'kidlaydi. Ismoil Gasprinskiy 1879-yildan boshlab gazeta tashkil qilish harakatiga tushdi. Lekin uning barcha so'rovnomalari davlat idoralari tarafidan javobsiz qoldirildi yoki rad javobi berildi. Turkiston viloyatining so'nggi general-gubernatori general A.N.Kuropatkin (1848-1925) 1917-yili o'z xotiranomasida yozganidek, "so'nggi 50 yil davomida biz [ruslar] mahalliy xalqlarni taraqqiyot, maktab va rus hayotidan uzoqroq tutdik".

Viloyatlardagi rus ma'muriyatlari "g'ayri rus" bo'lgan mahalliy millatlarga oid deyarli barcha narsalarni inkor qilish siyosatini olib bordi. Shu siyosat doirasida ular mahalliy tillarda gazetalar, hatto ular davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi dastur asosida bo'lsa ham nashr qilinishiga ijozat bermadi. Gasprinskiy 1879-yil 20-noyabrda Rossiya Ichki ishlar vaziri L.Makov (1830-1883) nomiga tatar tilida haftalik "Faydali eglenje" ("Foydali ma'lumot") nomida gazeta yoki jurnal chiqarish uchun ruxsat so'rab maktub yo'llaydi. U yozgan maktubida "Ziyoi Kafkaziya" gazetasidagi maqolasida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq tushuntirishga harakat qiladi. Uning bu talabnomasi vazir tarafidan rad etildi. Shundan so'ng Gasprinskiy "Maktab" nomida bir gazeta chiqarish uchun murojaat qiladi. Uning bu safargi murojaati ham vazirlik tarafidan salbiy qarshi olindi. Oradan 15 yil o'tib Gasprinskiy ushbu "Maktab" gazetasini "Tarjimon"ning 1897-yil 42-sonidan boshlab unga ilova sifatida nashrini yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi. "Maktab" gazeta o'quvchilarni sodda va qisqa ilmiy ma'lumot va kichik hikoyalar bilan tanishtirib bordi. Ushbu ilovada nashr etilgan ma'lumotlar Gasprinskiyning usuli jadid maktablari uchun mo'ljallangan "Xojai Sibyon" darslik kitobining keyingi to'ldirilgan nashrlaridan o'rin oldi. 1880-yilning oxirlarida Gasprinskiy Ichki ishlar vaziriga yana boshqa bir ariza bilan murojaat qiladi va "Qonun" nomida axborot va adabiy varaqa chiqarish uchun ruxsat so'radi. Bu safar vazirlik amaldorlari varaqani senzura qilish uchun Simferopolda senzura organning biror xodimi yo'qligini vaj qilib, uni chiqarishga yana ruxsat bermadi.

Gasprinskiy uzoq urinishlar va harakatlar natijasida 1881-yili “To‘ng‘ich” va “Shafaq” nomida ikki kichik varaqa chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Gasprinskiy bu kichik gazetalarni chop qilib tarqatar ekan, uning asosiy maqsadi musulmonlar ona tillaridagi bu gazetalarni qanday qabul qilishi va dindan tashqarida bo‘lgan masalalar muhokamasiga ne darajada e’tibor qaratishini o‘rganishdan iborat edi. “To‘ng‘ich”ning birinchi nashri sifati o‘ta yomon chiqqanidan Gasprinskiy uni qaytadan ikkinchi marta nashr qilishga majbur bo‘ladi. Ushbu gazeta Qrimdan tashqari Volgabo‘yi musulmonlari orasida ham tarqaldi va aholi tarafidan yaxshi qabul qilindi. Shundan so‘ng “Shafaq” “To‘ng‘ich”ning davomi sifatida dunyo yuzini ko‘rdi. Ikkala varaqa ham Tiflisdagi aka-uka Unsizodalar bosmaxonasida chop etildi. Chunki bu vaqtga qadar Gasprinskiyning tipografik uskuna sotib olish uchun bergan arizasiga javob chiqmagan edi. Gasprinskiy o‘z gazeta-varaqalarini nashr qilar ekan, birinchi o‘rinda o‘quvchi va obunachi masalasini hal qilishi kerak edi.

**Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalari.**1881-yilning avgust oyida u Butunrossiyadan musulmon savdogarlar va ishlab chiqaruvchilar yig‘iladigan Nijniy Novgorod ko‘rgazma-bozoriga bordi. Bu ko‘rgazma-bozorda turkistonlik savdogarlar ham ishtirok etishgan. O‘z safari davomida Gasprinskiy ko‘p savdogarlar bilan milliy ta’lim va matbuot borasida muzokaralar olib boradi va izdoshlar topishga muvaffaq bo‘ladi. Muzokaralar natijasida ushbu savdogarlar pochta orqali yuboriladigan gazeta sonlarini o‘zlari istiqomat qiladigan viloyatlarda tarqatishni o‘z zimmalariga oldilar. Gasprinskiy Nijniy Novgoroddan Bog‘chasaroyga 250 obunachi ro‘yxati bilan qaytib keldi. Bu obunachilar keyinroq “Tarjimon” gazetasining birinchi o‘quvchilari ham bo‘ldilar.1882-yilning o‘rtalaridan boshlab Gasprinskiy doimiy ravishda nashr qilinadigan gazeta uchun ruxsat olishga qattiq kirishadi. Ayni vaqtning o‘zida u ikki yozma asar – “Solnomai Turkiy” va “Mir’oti Jadid”ni nashrdan chiqardi. “Solnomai Turkiy” almanax uslubida yozilgan edi.

Gasprinskiy ushbu asarni yozishda rus, turk va fransuz tillarida chop bo‘lgan turli statistik, geografik asarlardan, almanaxlardan foydalandi. “Solnomai Turkiy”ning mundarijasi keng qamrovli bo‘lib, tarix, geografiya, zamonaviy hodisa va voqealar, turli davlatlar ta’lim tizimi, matbuoti va boshqa mavzularni o‘z ichiga oldi. “Mir’oti Jadid” esa 14 betlik broshyura bo‘lib, turli hayvonlar, haj ziyoratiga boriladigan yo‘l, choy yetishtirilishi, qisqacha Istanbul tarixi haqida ma’lumotlardan va ularga bog‘liq bo‘lgan rasmlardan iborat. Bu ikki asardan ko‘zlangan maqsad musulmon aholiga tevarak-atroflari haqida ma’lumot berish edi. Bir yil davom etgan

harakat natijasida Ismoil Gasprinskiy 1883-yil 10-aprelda “Tarjimon” gazetasining birinchi sonini bosmadan chiqardi. Gasprinskiy “Tarjimon”ning birinchi uch yili davomida uning mundarijasi va ruknlarini kengaytirish va toʻldirish maqsadida hukumat idoralariga 7 marta murojaat qiladi va har safar ijobiy javob oladi.

“Tarjimon” gazetasi chiqa boshlaganidan boshlab 20 yil davomida Rossiya imperiyasidagi yagona musulmon matbuoti boʻlib qoldi. Bu davr mobaynida gazeta haftasiga 1-2 marta kichik hajmda nashr boʻldi. Lekin bu kichik gazetaning turkiy millatlarga koʻrsatgan taʼsiri juda katta edi. “Tarjimon”ning taʼsiri ostida Rossiya imperiyasining turli burchaklarida musulmonlar tarafidan koʻp sonli yangi maktablar ochildi, koʻplab xayriya jamiyatlari tashkil etildi, yangi adabiyot shakllandi. Gasprinskiy juda mohir soʻz ustasi edi. U jumlalarni sodda, qisqa va loʻnda ifodalovchi uslub qoʻlladi; “Tarjimon”ning “oʻrta” tilini yaratdi. Gasprinskiy butun turkiy millatlarni “Tarjimon”ning yagona adabiy tili ostida birlashtirishni orzu qildi. Buning uchun umrining oxiriga qadar “Tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostida kurashdi. Ismoil Gasprinskiy “Tarjimon”da Turkiston uchun alohida eʼtibor qaratdi. Gazetaning birinchi yillarida faqat rasmiy gazetalardan olingan xabar va ularga oʻzi yozgan sharhlar bilan chegaralangan boʻlsa, keyinchalik bu ishga bevosita turkistonliklarni jalb qilishga kirishdi. Gazetaning 1885-yilgi sonlarida Turkiston harbiy kampaniyasida ishtirok etgan general A.Kuropatkinning (1848-1925) oʻlkani zabt etilishi bilan bogʻliq xotiralarini chop etdi va alohida kitobcha shaklida ham nashrdan chiqardi. Keyinchalik 1906-yilda esa Kuropatkining bu xotiralariga oʻz qarashlarini ilova qilgan holda “Tarixi jadidi Turkiston” nomi bilan turkum maqolalarini eʼlon qildi.

Gasprinskiy ayniqsa Turkiston xonliklarining Rossiya bilan munosabatlariga katta eʼtibor qaratdi. Bu xususda Buxoro-Rossiya aloqalari alohida ahamiyat kasb etadi. Gasprinskiyning bu boradagi maqolalari va qarashlari tahlil etilganda uning Buxoroga boʻlgan qiziqishi kuchli ekanligi yaqqol sezilib turadi. Uni koʻproq Buxoro madrasalari qiziqtiradi. Gasprinskiy umrining oxiriga qadar ushbu madrasalarga maʼrifatchilik gʻoyalarini tatbiq etish istagi bilan oʻtdi. Uning soʻzlari bilan aytsak, Gasprinskiyning “Yevropa sivilizatsiyasi taʼsir qilmagan” Turkistonda oʻz gʻoyalarini yoyishga ishtiyoqi baland edi. Mana shu sabablar uni Turkistonga yetakladi. Gasprinskiy Turkistonga boʻladigan safari oldidan “Tarjimon”da oʻlka hayoti, tarixi va geografiyasiga oid turkum maqolalar beradi va gazeta oʻquvchilarini Turkiston bilan oshno qiladi. Ayniqsa Gasprinskiyning Buxoro amirligi haqidagi maqolalari ancha maʼlumotlarga boy edi. Muallif Buxoroning buyuk oʻtmishi, madrasalari va hukmdorlari borasida ancha qiziqarli faktlarni keltiradi.

1893-yilning fevral oyida Buxoro amiri Abdulahadxon (1859-1910) Peterburg safaridan qaytishda Bog‘chasaroyga keladi. Yuksak mehmonni kutib oluvchilar qatorida Gasprinskiy ham bor edi. Bu ikki shaxs 1883-yildan e’tiboran g‘oyibona tanish edilar. Gaspralining xotin-qizlar va ularning jamiyatdagi o’rni masalasi haqidagi qarashlari «Xotinlar o’lkasi» nomli xayoliy-sarguzasht qissasida aks etdi. Unda ham voqealar toshkentlik Mulla Abbos Fransaviy tilidan hikoya qilinadi. Asar ayollarni «sochi uzun, aqli kalta» deguvchi islom mutaassibligiga kinoya bo’lganidek, emansipatsiya niqobi ostida ularning asliy xususiyatlari hisoblanishi lozim bo’lgan nazokatdan uzoklashtirilishiga, «erkaklashtirilishi»ga qarshi isyon ham edi. Bu mavzuning ham Turkistonda naqadar qizg’in muhokama qilingani ma’lum.

**Xulosa qilib aytganda**, Ismoilbek Gaspralining hayoti va sermazmun faoliyatini Turkistonsiz, uning tarixi va taqdiri haqidagi o’ylarisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ulug’ mutafakkir Turkiston xalqlarining boy ma’naviy merosini Rusiya musulmonlari borasidagi yangilanish va islohotchilik harakatlari uchun ma’naviy omil deb biladi. Ayni paytda, butun vujudi bilan Turkiston uchun ham najot yo’lini izlaydi va buni yangilanishda, islo-hotda ko’radi. Shunga ko’ra, uning qarashlari ham Turkiston bilan teran bog’langan edi. Shu sababli, bu fikr- qarashlar Turqistonda aks-sado topdigina emas, turkistonlik taraqqiyparvar ziyolilar uchun dasturulamal vazifasini bajardi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov. O‘zbek falsafasi. –T., 2003.
2. Tulak. XX asr o‘zbek adabiyoti. –Andijon, 1993.
3. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002.
4. Sh.G‘affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi. –Samarqand.: SamDU
5. Tog‘aev jadidchilik va uning mohiyatini o‘rganish.// “Xalq ta’limi”, 1993, 1-son.
6. Jadidchilik: islohot, va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet, 1999.
7. Hoji Muin. Oila tarbiyasi. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1918 yil 9 iyul.

8. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2

9. Xo‘jayev. Tanlangan asarlar: uch tomlik. –T.: Fan, 1976. 1-tom.

10. O‘zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbati materiallari. 1998 yil 9 oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998

11. I.Qarshiyeva-Talabalarga jadidchilar asarlaridagi marifiy qadryatlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari-pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar,2024

12. I.Qarshiyeva Abdulla Avloniy asarlarida odob-axloq va tarbiyaviy masalalarning yoritilishi-“Ta‘lim, fan va innovatsiya”,2024

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

**Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti**
**talabasi Abduxamitova Nasiba Umarali qizi**

**Annotatsiya:** Ta’lim sifatining yuqoriligi bilan e’tirof etilgan ko’pgina rivojlangan mamlakatlarning xalqaro baholash dasturlarida faol ishtiroki, jumladan, matematika va boshqa fanlarni o’qitishda ta’lim sifatini oshirish tendensiyalarining amaliyotga keng tatbiq etilishi, o‘qish savodxonligi va matnni tushunish darajasini takomillashtirishga, tabiiy va matematik masalalarni tahlil qila olish mahoratini oshirishga, ularning kreativ va produktiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, o’rgangan bilim, ko’nikma va malakalarini hayotda duch keladigan turli xil vaziyatlarda qo’llay olish layoqatini shakllantiradi.

**Tayanch so‘zlar:** PIRLS, xalqaro baholash dasturlari, o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar, ta’lim, tarbiya, kreativ.

**Kirish.** Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishda alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kun farzandlari jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb – hunarlarni egalashi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo’lib ulg’ayishi, ularning qobiliyati, iste’dodi, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg’ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz o‘quvchilarining turli xalqaro baholash dasturlaridagi ishtiroki buning yorqin isbotidir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 997-son qaroriga [3] muvofiq ta’limning turli shakllariga ketma ketlikda o’zgartirishlar kiritish vazifalarini aniqlashtirish, kelajak avlodni yetuk shaxs sifatida shakllantirishni yuqori darajaga olib chiqish, turli zamonaviy vositalar va metodlarni qo’llash maqsadida, O’zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib, PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning rivojlangan davlatlari natijalariga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy fanlardan bilimini baholashning milliy tizimini ishlab chiqish belgilangan [1, 3].

Dunyo mamlakatlari qatorida O’zbekistonning ham ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari jahon hamjamiyatida umume’tirof etilishi, yosh avlodni

xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta'lim olishini ta'minlash va olgan bilimlarini amalda samarali qo'llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish "Milliy markazi" tashkil qilindi. Milliy markazning vazifasi etib, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollarning milliy bazasini shakllantirish, qo'llanma va adabiyotlar yaratish, hamda ilmiy-tadqiqot ishlariga o'qituvchilarni jalb qilish belgilandi. Bu ishlarni ro'yobga chiqarishda ta'lim sohasi ishtirokchilarining jalb qilininishi muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Demakki, ta'lim mazmunini xalqaro baholash dasturlaridagi masalalarga mos topshiriqlar bilan boyitish - nafaqat ta'lim sifatiga, balki kelajak avlodning hayoti mamlakatimiz ravnaqiga ulkan muvaffaqiyat keltirishi tabiiydir.

**Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalari.** Bunday xalqaro tashkilotlardan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazilayotgan PISA (The Programme for International Student Assessment), Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA–International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan PIRLS va TIMSS kabi tadqiqotlar amaliyotga joriy qilinmoqda [2, 4 b]. Mamlakatimizning bu dasturlarda qatnashishidan maqsad testlarni o'tkazish yoki o'quvchilarni testga tayyorlash emas, balki XXI asr ko'nikmalari shakllangan, raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash hisoblanadi [3].

PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta'lim institutlari assosiasiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. PIRLS loyihasi to'rtinchi sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash bo'yicha yetakchi xalqaro tadqiqotlar orasida yetakchi o'ringa ega. Xalqaro ekspertlar ta'kidlashicha, boshlang'ich maktab o'quvchilarining keyingi tarbiyasida muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor vazifasini bajaradi [3,4]. PIRLS xalqaro baholash dasturi natijalarining tahlili o'quvchilarning bilim va malakalarini muvafaqiyatli qo'llashga (o'qituvchilar va ota onalarning o'quvchining ta'limdagi muvafaqiyatga erishishdagi qatnashishi va boshqalar) ta'sir ko'rsatadigan omillarning tahlilini ta'minlaydi [3].

Umuman olganda PIRLS O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va mamlakatning ta'lim sohasidagi strategik maqsadlariga erishishga yordam beruvchi vositadir. PIRLS-bu turli mamlakatlarda

boshlang’ich sinfda tahsil oluvchi o’quvchi yoshlarning matnni o’qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

PIRLS o’qish ta’limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar;

-global miqyosida ta’lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyasiyalarini kuzatib boshish;

-yangi yoki qayta ko’rib chiqilgan ta’lim siyosatining ta’sirini kuzatib borish;

-ta’limning zaif nuqtalarini belgilash va o’quv islohatini amalga oshirish

-PIRLS malumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o’qitish va o’qishni takomillashtirish;

-adolatlilikni kuzatish yoki qo’shimcha sinflarda o’quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish;

-o’qishni va o’qitishni o’rgatish;

PIRLS xalqaro dasturi bo’yicha to’rtinchi sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushinish bo’yicha to’rtinchi sinf darsligidan Roeld Dahlning **Oyog‘i osmonda bo‘lgan sichqonlar** matni va u asosida savollarni ko‘rib chiqaylik.

Bir vaqtlar Levon ismli qariya yashagan ekan. U 87 yoshda edi. U butun umri davomida vazmin va xotirjam inson bo‘lgan. U juda kambag‘al va juda ham baxtli edi. Levon uyida sichqonlarni payqagan vaqtida, dastlab bu holat uni tashvishga solmadi. Ammo sichqonlar tobora ko‘payib bordi. Ular uni bezovta qila boshladilar. Nihoyat, hatto Levon ham ortiq bardosh bera olmaydigan vaqt keldi. “Bunisi endi ortiqcha – dedi u. – Bunga chidab bo‘lmayapti”. Chol uyidan chiqib, oqsoqlanib do‘kon tomon yo‘l oldi. U sichqonlarni tutish uchun u yerda bir necha qopqon, yelim va pishloq bo‘lagini sotib oldi. Levon uyiga qaytgach, qopqonning asosini yelimlab, shiftga joylashtirdi. Keyin u, qopqonlarga pishloq bo‘lakchalarini mahkamlab, tayyor holatga keltirdi. Tunda sichqonlar inlaridan chiqib, shiftdagi qopqonni ko‘rganda, bu hazil deb o‘yladilar. Polda sayr qilib yurgan sichqonlar bir-birlarini turtib, qo‘llari bilan shiftni ko‘rsatib, kulgudan yorila boshladi. Axir, qopqonni shiftga joylashtirish ahmoqlik-ku! Ertasi kuni tongda Levon xonaga kirganida tuzoqqa bironta sichqon tushmaganini ko‘rdi, u jilmaydi, lekin hech narsa demadi. U stulni olib, oyoqlarining asoslarini tagiga yelim surtdi va qopqonlar yoniga teskari qilib yopishtirib qo‘ydi. U stol, televizor va chiroq bilan ham xuddi shunday qildi. Levon polda turgan barcha narsalarni, teskari qilib, shiftga yopishtirdi. Hattoki, gilamchani ham u yerga yelimlab yopishtirdi. Oyog‘i osmonda bo‘lgan sichqonlar kelasi tunda sichqonlar o‘zlarining inlaridan chiqishganida, ular o‘tgan tunda

ko‘rgan narsalari yuzasidan hazillashishni davom etib kulishar edi. Lekin bu safar ular shiftga qaraganlarida, to‘satdan kulishdan to‘xtadilar. - Xudoyim! – qichqirdi sichqonlardan biri. - Tepaga qaranglar! Axir pol u yerda-ku! - Ey xudo! - faryod qildi yana biri. - Biz shiftda turibmiz, shekilli! - Meni boshim aylana boshladi! – chiyilladi uchinchisi. Sichqonlar gapga quloq solib boshi bilan turib oldilar, bir qancha vaqtdan so‘ng, boshiga qon quyilishi sababli sichqonlar birin-ketin hushidan keta boshladilar. Levon ertalab xonaga kirgan paytida yerda sochilib yotgan sichqonlarga ko‘zi tushdi. U darhol barcha sichqonlarni yig‘ib, savatchaga soldi. Shunday qilib, esda tutish lozim: qachon-ki olam sizga teskari bo‘lib ko‘rinsa, siz yerda turganligingizga ishonch hosil qiling.

Levon nima uchun sichqonlardan qutilishni istadi?

A) U doim sichqonlarni yomon ko‘rar edi.

B) Ular juda ham ko‘p edi.

C) Ular juda baland ovozda kulishar edi.

D) Ular uning hamma pishloqlarini yeb qo‘yishgan edi.

Bu savolda sichqonlar Levonni uyida juda ko’payib ketganligi uchun , Levonni tinch hayotini buzganligi uchun ulardan qutilishni istadi va o’zini tinch hayotini davom etirishi uchun turli yo’llar bilan ularga tuzoq qo’ya boshladi .

Levon qopqonlarni qayerga joylashtirdi?

A) savatga

B) sichqonlar ini yaqiniga

C) stullarning ostiga

D) shiftga

Levon o’zining mantiqiy fikirlashi bilan g’ayri oddiy tarzda sichqonlarni yo’qotish yo’llarini o’ylab topdi.Levon noodatiy tarzda qapqonni yerga emas shiftga yopishtirdi uning bu harakatlari sichqonlarning e’tiborini jalb etdi.

3. Nima uchun sichqonlar birinchi tunda o‘z inlaridan chiqib, bir birlarini turtib, qo‘llari bilan shiftni ko‘rsatib, kulgudan yorila boshladi?

A) Ular shiftda stulni ko‘rgan.

B) Ular Levonni qandaydir ahmoqona ish qilgan deb o‘yladilar.

C) Ular qopqondagi pishloqni xohlagan edilar.

D) SHiftga qopqonni yopishtirgani uchun.

Levonning bu harakati sichqonlarga o’zgacha bo‘lib tuyildi. Sichqonlar Levonning shiftga qopqonni yopishtirgani ko‘rib xayratdan o‘zini yo‘qatib qo‘ydi.Levonning bu sarguzashtlari bolalarning mantiqiy fikirlash va dunyo qarashini shakillantiradi.

Xulosa: Boshlang'ich sinflarda xalqaro baholash dasturlarini joriy etish ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarning rivojlantirishga muhim o'rin tutadi. Ushbu dastur o'quvchilarning bilimini har tamonlama baholash orqali ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga, shuningdek, o'quv jarayonlarini samarali tashkil qilishga yordam beradi. Bu dastur o'quvchilarning global miqyosda qanday o'qishayotganini aniqlash, ta'limda mavjud bo'lgan kamchiliklarni keltirib chiqarish va yangi ta'lim strategiyalarini ishlab chiqarishda yordam beradi .

**Foyadalanilgan adabiyotlar.**

1. O'quvchilarning matematik, tabiiy ilmiy fanlar hamda o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan topshiriqlar to'plami.Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi.Toshkent, 2020. 9 b.
2. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnoma-1 (umumiy o'rta ta'lim muassasalarining aniq, tabiiy va filologiya fanlari o'qituvchilari, soha mutaxassislari, 7-11-sinf, akademik lisey va kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun mo'ljallangan test topshiriqlari to'plami) Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi."O'qituvchi" nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2020. – 4-15 b.
3. Djumayev M, Asadova S. Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar PIRLS misolida..Toshkent 13.03.2020.. PIRLS baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. C13.03.2020 pdf.
4. O'.O.Tohirov.texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovasiyalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. Toshkent – 2018. https://elibrary.ru
5. O'.O.Tohirov.texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovasiyalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. Toshkent – 2018. https://elibrary.ru

# BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA REFLIKSIF KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

**R.D.Shabbozova Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrasi Muduri dotsenti. p.f.b.f.d (PhD)**
**Abdusalimova Munisa Qahramonovna Termiz davlat pedagogika instituti magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, o'yin turlari, rebuslar, krossvord, pedogogik texnologiyalar asosida bolalardagi ko'nikmalarni yanada yaxshilash va rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar :** Pedagogika ta'lim texnologiya , o'yin , rebuslar, krassvord, pedagogika , ko'nikma , malaka , metodika , jamoviy o'yinlar

**Kirish.** Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizasiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizasiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli islox qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlandi, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholab kelmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalari.** Boshlang'ich sinfda olingan bilim keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o'taganligi sababli ta'lim sifatini oshirish pedogoglar oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu maqsadda ta'lim

muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar, xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini, yangi nafasni olib kirish orqali o'quvchilar bilimini rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'stirishga katta e'tibor qaratishlari talab etiladi. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati beqaror bo'lib, bir soat uchun mo'ljallangan saboqni sabr-toqat bilan tinglay olmaydi. Bilim olishda avval o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, ayniqsa, muhim vosita hisoblansa-da, bolalar uchun zerikarli jarayondir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ona tili, matematika darslarida yozish natijasida qo'llarni toliqishi, o'qish darslarida bir mavzuni takrorlab o'qish bolalarni zeriktiradi. O'quvchilarni kayfiyatini ko'tarish, toliqqan qo'llarini chigalini yozish maqsadida, turli didaktik vositalar hamda o'yinlar o'tkazish o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda yaxshi samara beradi. Didaktik vositalarga boshqotirma, krossvord, rebus, topishmoq, topshiriq va boshqalar kiradi.

Krossvord. "Krossvord" atamasi ingliz tilidagi "cross" va "word" so'zidan olingan bo'lib, mantiqan ("cross" - kesib o'tish, kesishma, "word" -so'z) "bir-biri bilan kesishadigan so'zlar yig'indisi", lug'aviy ma'nosiga ko'ra esa "kataklarni xarflar bilan to'ldirib, shu kataklarga yashirilgan, ishlanayotgan so'zni topish o'yini" , - mazmunini anglatadi.

Rebus. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra ("lotincha" narsa, buyum, narsalar bilan, narsalar vositasida) tushunchasi "voqea, hodisa, harakat ma'nosi mavxum so'zlar, teskari, chalkash ifodalar yordamida ifodalash", demakdir. Ushbu vositalardan foydalanish dars samaradorligi va refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda asos bo'la oladi

O'yin - inson faoliyatining ko'rinishlaridan biridir. Murakkab va qiziqarli hodisa sifatida u turli kasbdagi kishilar diqqatini jalb etadi. O'yin - inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamroxi" ham deb atash qabul qilingan. U bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'p jddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi.

Ta'limiy o'yinlarning yana bir jihati shuki, u bolada ikki miya yarim sharlarining bir vaqtning o'zida ishlashini ta'minlaydi. Miyadagi bunday faollik berilgan axbarotni bir vaqtning o'zida qabul qiladi, esda saqlaydi uni qayta tahrirlab berilgan savolga tez va aniq javob berishni ta'minlaydi. Shularni inobatga olgan

zamonaviy o'qituvchidan har bir darsni didaktik o'yinlar asosida tashkil etish talab etiladi. Shuning natijasida esa kun davomida bolada charchoq, toliqish kuzatilmaydi.

O'quv-bilim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish bolada o'qishga bo'lgan motivatsiyani to'g'ri yo'naltirilganligiga bog'liq. Didaktik o'yinlar aynan shunday motivatsiyani bera oladi. Ta'lim jarayonini alohida jarayon sifatida ko'rib uni bolaning asosiy faoliyati bo'lmish o'yin faoliyatidan ajratib qo'yish esa bolani qafasga solib qo'yish bilan barobar.O'yin faoliyati g'olib yoki mag'lub tushunchalardan iborat bo'lib dars jarayonida qo'llanilganda bola g'olib bolish uchun kurashadi va ana shu kurash natijasida berilgan axbarotni diqqat bilan tinglab bilimlarni osongina egallab oladi. Bir vaqtning o'zida bu bilimlarni hayotda qo'llab ko'radi.

Misol tariqasida "33ta 33"didaktik o'yinida bola ko'paytirish jadvalini yaxshi yodlagan bo'lishi va diqqatini ishga solgan holda ishtirok etishi kerak bo'ladi.O'yin sharti sinf o'quvchilari sonlarni tartib bilan aytganda 3 raqami ishtirok etgan sonlar va 3 ga bo'linadigan sonlar aytilmay o'rniga qarsak chalinadi. (1,2, qarsak, 4,5,qarsakvah.). Sanoq 33 soniga qadar davom etadi sanoqda adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi va sanoq qayta boshlanadi.

Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional - hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi.

O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K. Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga xarakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller o'yinlarni "qoniqish hosil qiluvchi" faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S. Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o'yinlarni nazariy jihatdan ijtimoy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib , uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi axamiyatliligidir. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O'yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tamondan o'yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu

faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilardi .

O'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish. Ona Vatanimiz O'zbekistonning qadimiy shaharlari haqida bilim berib atoqli otlarning yozilishiga e'tibor qaratish orqali ona tili fani bilan bog'lash. Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash o'yinshart, magnit doskaga aeroport maketi chizilgan surat osib qo'yilgan. Suratda qadimiy shaharlarimiz nomlari yozib qo'yilgan bo'ladi. Sinf o'quvchilari soniga mos chiptalar tayyorlangan bo'lib chiptalarning orqa tomonida misollar berilganbo'ladi, old tomonida yo'nalishlar yozilgan bo'ladi. Masalan, Buxoro-Toshkent, Buxoro-Xiva singari. O'quvchilar misollarni to'g'ri yechsa, berilgan yo'nalish bo'yicha sayohatga chiqadi. Ya'ni o'rinidan turib poyezdcha ko'rinishida saflanib sinf bo'ylab yuradi. Videoproyektor ekranida qadimiy shaharlarning video tasviri ko'rsatiladi. Samalyot aeroportga qo'ngach, o'quvchilardan chiptalarga diqqatbilanqarash talab etiladi.O'quvchilar chiptadagi xatolikni topishlari kerak ya'ni bitta chiptada joy nomi kichik harf bilan yozilgan bo'lib ushbu xatoni topgan o'quvchidan atoqli otlar qoidasi so'raladi. Tabiat bilan bog'lashda esa videolavhada ko'rgan tasvirlari asosida suhbat o'tkazish mumkin.

**Xulosa.** Shunday qilib, o'yin ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi -boshqa tarbiya vositalari qatorida to'plangan ijtimoiy tajribani bir avloddan ikkinchi avlodga o'tkazilishini, bola shaxsining rivojlanishini ta'minlaydi. O'yinning ijtimoiy tabiatini shundan ham bilsa bo'ladiki, u faqat muayyan ijtimoiy sharoitda voqea bo'la oladi. Jamiyatning katta a'zolari bolalarning yashashi va o'sishi uchun zarur moddiy sharoit yaratish asnosida o'yinlarning rivojlanishi uchun ham ob'ektiv imkoniyatlar yaratadilar.O'yin bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida bola tarbiyasidagi ahamiyati o'tmish va hozirgi zamonning ko'plab pedagogik tizimlarida tadqiq etilgan. Ko'pchilik pedagoglar o'yinni bola uchun juda jiddiy va muhim faoliyat sifatida baholashlari be'jiz emas.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. Konimex - Mirzo/ Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va boshq. 5-tom. T.: "O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyot, 2GG2.-4I8 b.

mushohadalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bir zamonlar gullab yaShnagan, ilmu urfon yuksakligiga erishgan Buxoroda ham, boshqa Shaharlardagi kabi, Shohlar va xokimlar, vazirlar va hatto olimlardan himmat, ma'rifat, insof-diyonat yo'qolib ketganligi, ijtimoiy-ma'naviy tarbiyada bo'shliqning paydo bmlayotganligi Yassaviyni juda qattiq tashvishga solayotganligini quyidagicha ifodalaydi: Ahli dunyo, xalqimizda saxovat yo'q, Podshohlarda, vazirlarda adolat yo'q, Darveshlarning duosida ijobat yo'q, Turlik balo xalq ustig'a yog'di, do'stlar. Yoki Nokas, hasis bediyonat qullar hoqim, Manmanlik haddin oshib, bo'ldi zolim Xalq ichinda xor bo'ldilar darvesh, olim Himoyati xalqni kofir bo'ldi, ko'ring.. Bu misralar barcha xalqni ogohlantiruvchi aqliy, ta'lim-tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan misralardir. Komillikning asosini, u hamma vaqt tarbiyada, ilmda, axloqiy poklikda deb bilgan va bu bilan u xalq orasida katta shuhrat qozongan. Shu bilan birga Xoja Ahmad Yassaviy fanni, bilimni chala, sayoz o'rganishga qarshi chiqadi. Har bir so'zning ma'nosini bilib olgan holda ularni xalqiga, o'sib kelayotgan yosh avlodga nishon deb keltirgan hikmatlaridagi so'zlarini dur va gavhar bilan tenglashtiradi. Xoja Ahmad Yassaviy o'z vazifasiga yuzaki qarovchi, pala-partish bajaruvchi, bilimi sayoz olimlarni ayovsiz tanqid qiladi va «haqiqiy olim kim?» degan savolga qator hikmatlari orqali javob beradi: Olim uldur, xisht yostanib tahsil qilsa, Kecha-kunduz Tangrisiga zori qilsa, "Fal-yaz haqu" oyatini tafsir qilsa, Andog' olim olim bo'lur, do'stlarimo!. Olimlik va undagi yuksak aqliy salohiyatni Yassaviy qanday tushunadi va targ'ib qiladi degan savol tug'iladi. Yassaviy buni quyidagicha ta'riflaydi: «Olimlik -bu shariat bilan tariqatni tushunish, ularning talabiga javob qila bilish». Olimlikning asosiy mezoni sifatida esa Qur'onni to'g'ri tushunish va tushuntirishni belgilaydi. Buni u gavharlarni yig' a bilish bilan qiyoslaydi: Olim uldur - Shariatda javlon qilsa, Tariqatning bozoriga o'rnin solsa, Muhabbatning daryosidan gavhar olsa, Andog' olim olim bo'lur, do'stlarimo!. Shu sababli shoir olimlarning bilimlariga tanqidiy ko'z bilan qarab men olim deb kitob o'qishni emas, balki uning ma'nosini tushunish, har bir so'zning mohiyatini oyat mazmunidek anglash, shaytonlik, manmanlikdan kechgan, johillik bilmagan kishini olim deb ko'rsatadi. Yassaviy kitobning ma'nosini tushuntirib, quruq yodlab, yuzaki o'qishni bilim olish deb hisoblamaydi. Shuningdek, u oyatlarning tagida yotgan ulug' g'oyalarni tahlil qila olish, uning mohiyatini bilish va hayotga tatbiq eta olish lozimligini uqtiradi:Olimmen deb kitob o'qur, ma'no uqmas, Ko'p oyatning ma'nosini hargiz bilmas, Takabburu manmanlikni dini tutmas, Olim ermas, johil turur, do'stlarimo Xoja Ahmad Yassaviy ushbu tanqidiy qarashlarini bo'lg'usi olimlarga qarata nasihat sifatida yetkazadi. Bu esa ular uchun yanada ko'proq o'qish

va izlanishga, bilim egallashga, olgan bilimlarini turmushga, hayotga bog'lab shogirdlariga yetkazishlariga turtki bo'lgan.

**Xulosa qilib aytganda** Yassaviy hikmatlari aososida kollej talabalariga ta'lim-tarbiya berishning alohida shakllari o'z ichiga quyidagilarni oladi: Yassaviy hayoti va iodiga oid adabiyotlarni, badiiy asarlarni, alloma yaratgan hikmatlarni o'qish - o'rganish; tasavvuf allomalarining hayoti va faoliyati bilan tanishish, "Buyuk tasavvuf allomalari komil inson haqida", "Yassaviy- buyuk mutaassiv", «So'fiylar kamtarlik haqida», «Poklik iymondandir» kabi mavzularda suhbatlar o'tkazish, Yassaviy pedagogik qarashlariga oid mustaqil ishlar, referatlar tayyorlash, tasavvuf allomalari hayoti va ijodiga oid teleko'rsatuvlar, filmlarni tomosha qilish, tarixiy muzeylarga sayohat, tarixchi, faylasuf va pedagog olimlar bilan davra suhbatlari tashkil etish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmad Yassaviy. Ibroxim Haqqul. - T.: Gafur Gulom nashriyoti, 2001 yil.
2. Al-Buxoriy. Hadis, Al-jome' as-sahih. -T.: "Qomuslar" bosh tahririyati, 19911992 yillar , 1- 4-kitoblar.
3. N. Komilov. Tasavvuf. -T.: «Yozuvchi», 1996 y
4. N.Komilov. «Komil inson haqida 4 risola». -T.: «Ma'naviyat»,1997 y.
5. Kubro Shayx Najmiddin. Jamoling menga bas: Ruboiylar /Forsiydan Matnazar Abdulxakim tarj.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.-64 b.
6. Pardayeva, K., Tangirov, A., & Muxammadiyeva, S. (2020). The Use Of The Humanistic Ideas Of Khoja Ahmad Yassavi I+-9n The Teaching Of Pedagogical Sciences. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Muxammadiyeva, S., & Farsaxonova, D. (2020). PEDAGOGY OF EASTERN THINKERS THE ISSUE OF ETHICAL EDUCATION IN THEIR VIEWS. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. I.Qarshiyeva Abdulla Avloniy asarlarida odob-axloq va tarbiyaviy masalalarning yoritilishi-“Ta‘lim, fan va innovatsiya”,2024
9. I.Qarshiyeva Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish- "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali, 2024

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH VA KITOBGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH

**Jumayeva Sarvinoz Ilkhombekovna**
**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti**
**Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti**
**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qish – nafaqat bilim olishning asosiy vositasi, balki ularning kognitiv rivojlanishiga, til va tafakkur qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish va kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirish o‘qituvchilar va ota-onalar uchun juda muhim vazifadir. Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirish usullari haqida batafsil so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, o‘qish, o‘qish ko‘nikmalari, rivojlantirish, qiziqish, kitob, bilim, tushunish, matn, kitobxonlik

**Kirish.** Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bugungi kunda “Mutolaa madaniyati”, “Kitobxonlik madaniyati”, “ O‘qish madaniyati ” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir. Kitob insoniyat aqlzakovati yaratgan eng buyuk mo‘’jizalardan biridir. Kitoblar va kutubxonalar o‘quvchi shaxsi kamoloti va uning taraqqiyotiga xizmat qilganligi uchun ham hamisha e’zozlanadi. Zamonaviy bolalar hamda maktab kutubxonalari oldiga quyidagi vazifalarni yechish mas’uliyati qo‘yilgan:

- o‘quvchilarning kitob bilan o‘zaro aloqasini mustahkamlash ularni kitob o‘qishga qiziqtirish,ta’lim-tarbiya jarayonida kitob va boshqa axborot manbalaridan foydalanishga keng imkoniyat yaratish;
- o‘quvchini badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitob o‘qishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirish,uni mustaqil o‘qishga o‘rgatish,badiiy adabiyot orqali o‘quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish;
- o‘quvchilarda izchil tarzda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;

- o‘quvchilarning kitobni mustaqil mutolaa qilib,uni ijodiy o‘zlashtirishga odatlantirish;
- o‘quvchilarda kitob bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qaror toptirish;
- o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Axborot resurs markazlari hamda maktab kutubxonalari o‘quvchilarning muloqotga kirishish, axborotlarni qabul qilish markaziga aylanmog‘i lozim. Bunday kutubxonalarda faoliyat ko‘rsatadigan kutubxona xodimlari esa o‘quvchi bilan yaxshi muloqotga kirisha oladigan, badiiy adabiyotni tushuna oladigan, yuqori badiiy–estetik didga ega bo‘lgan kutubxonachilar bo‘lishi lozim. So‘nggi yillarda kutubxonalarni axborotlashtirish ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Elektron o‘quv xonalari, medioxonalar ochilmoqda. Bunday maxsus xonalar audiovizual materiallardan to‘liq foydalanish uchun ixtisoslashgan uskunalar bilan jihozlanadi. O‘quvchilar bilan ishlaydigan kutubxonachi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kutubxonalik, metodik, tadqiqot va boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyor bo‘lishi lozim. Kutubxonachi insoniylik, bolalarga muhabbat, pedagogik fikrlash kabi fazilatlariga ham ega bo‘lishi lozim.

**Adabiyotlar sharhi va tahlil natijalari.** Safo Matchon: “Kitobxonlik – o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li uqishini, ya’ni asar “tili”ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko‘rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi”. Uning fikricha kitobxonlik talanti tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: “Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag‘ishladim, lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman”.

Professor V.F.Asmus o‘zining “Kitobxonlik – mehnat va ijod” nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta’rif beradi: “Mutolaa vaqtida asar bir ko‘zadan ikkinchi ko‘zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi”. Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda, deb yozadi H.To‘xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir O‘zbek xalqi azaldan kitobxon xalq bo‘lgan. Ajdodlarimiz kitob mutolaasi

bilan muntazam shug'ullanganlar.Bolalarda juda yoshlikdan boshlab kitobxonlik madaniyati ko'nikmalari shakllantirilgan. O'tmishda bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ota-onalar, enagalar, murabbiylar zimmasida bo'lgan. Ko'pgina ziyoli, ma'rifatli oilalarda juda katta miqdordagi kitoblar saqlangan.

**Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalar**

**O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish**

**a. O'qishning asosiy bosqichlari:** O'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda birinchi bosqichda harf va tovushlarni tanish, so'zlarni to'g'ri o'qish, unda ma'no anglash, va keyinchalik kitoblarni tushunib o'qish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

**Harf va tovushlar bilan tanishish:** O'quvchilar harflar va ularning tovushlarini bilishlari kerak. Bu bosqichda tovushni eshitish va harflarni tasvirlash o'qish ko'nikmasining asosini tashkil etadi.

**So'zlarni o'qish:** O'quvchilar ko'p so'zlarni o'qishga o'rganishadi. Ular so'zlarning yozilishiga va talaffuziga e'tibor qaratishlari kerak.

**Matnni tushunish:** O'qish jarayoni faqat talaffuzni o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki o'qilgan matnni tushunish ham zarur. Bu bosqichda o'quvchilar matndagi asosiy fikrlarni aniqlashni o'rganadilar.

**b. Qiziqarli va turli xil materiallar bilan ishlash:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishini oshirish uchun turli xil materiallar bilan ishlash muhimdir. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**Rasmli kitoblar:** Rasm va matnning uyg'unligi o'quvchilarda o'qish motivatsiyasini oshiradi. Rasmli kitoblar o'qish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular tasavvurni shakllantirishga va matnni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**Ko'p turdagi kitoblar:** O'quvchilarga hikoyalar, she'rlar, ilmiy adabiyotlar va hamda komikslar kabi turli xil janrlarni o'qish tavsiya etiladi. Bu o'qish jarayonini yanada qiziqarli va rang-barang qiladi.

**c. O'qish mashqlarini muntazam qilish:** O'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda muntazamlik juda muhim. Har kuni o'qish mashqlari o'tkazish, o'quvchilarga o'qishni o'rganish va yaxshilashda yordam beradi. O'qish jarayonida yangi so'zlar va iboralarni bilib olish, o'quvchilarga o'qishning turli shakllarini amalda sinash imkonini yaratadi.

**2. Kitobga bo'lgan qiziqishni oshirish**

**a. Kitoblarni tanlashda yordam berish:** Kitobga qiziqishni oshirish uchun, o‘quvchilarga o‘zlariga qiziqarli va mos kitoblarni tanlashda yordam berish zarur. O‘qituvchi yoki ota-onalar o‘quvchining qiziqishlariga qarab kitoblarni tavsiya qilishlari kerak. Misol uchun, agar o‘quvchi hayvonlar haqida bilishni yaxshi ko‘rsa, unga hayvonlar haqida yozilgan kitoblar tavsiya etilishi mumkin.

**b. O‘qishni o‘yin shaklida olib borish:** O‘qish jarayonini o‘yin va interaktiv faoliyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Masalan, o‘qilgan kitobdan so‘ng kichik viktorinalar, o‘quvchining o‘qigan matnini tasvirlash, kitobni davom ettirish kabi o‘yinlar tashkil etish mumkin. Bu orqali o‘quvchi o‘qish jarayoniga ko‘proq jalb etiladi.

**c. O‘qishning ahamiyatini tushuntirish:** Kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun, o‘quvchilarga o‘qishning nafaqat bilim olishning, balki dunyoqarashni kengaytirish va tasavvur qobiliyatini rivojlantirishning muhim vositasi ekanini tushuntirish zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘qishning foydalari, yangi ma’lumotlar olish, dunyoni yaxshiroq tushunish, va turli xil fikrlarni shakllantirish haqida bilib olishlariga rag‘batlantirishi kerak.

**d. Ota-onalar va o‘qituvchilar hamkorligi:** O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish va kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirishda ota-onalar va o‘qituvchilarning hamkorligi juda muhimdir. Ota-onalar uyda o‘qish uchun vaqt ajratib, bolalariga o‘qilgan kitoblar haqida suhbatlar olib borishlari, kitoblarni birgalikda o‘qishlari kerak. Bu orqali o‘quvchilar kitobni nafaqat o‘qish vositasi, balki oilaviy bir faoliyat sifatida ham ko‘radilar.

**Xulosa.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish va kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun samarali va turli xil usullarni qo‘llash zarur. O‘qishning asosiy bosqichlarini o‘zlashtirish, o‘qish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish, turli xil kitoblarni tanlashda yordam berish va ota-onalar hamkorligi bu jarayonda juda muhim rol o‘ynaydi. Bularning barchasi o‘quvchilarda o‘qishdan zavq olish va kitobga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Y.Qayumxo‘jayeva “O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari” –T.: 2011.-B.14-15.

2. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti” darslik „ O‘qituychi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2008

3. Nasriddinova N. A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2024. - 205 b.

4. Mamatova. G Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi.–T.: Istiqlol, 2010. –55 b.

5. Matchonov S., G‘ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlag‘ich sinflarda o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.–T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2008. –224 b.

# РОЛЬ АФГАНСКИХ БЕЖЕНЦЕВ В ОТНОШЕНИЯХ ПАКИСТАНА И АФГАНИСТАНА И ИХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

**Жасур Умирзок угли Умирзоков**
Исследователь Ташкентского государственного университета востоковедения, Узбекистан

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль афганских беженцев в отношениях Пакистана и Афганистана, причины их появления, текущее состояние и социально-экономические последствия. Основное внимание уделяется политическим диалогам, сложившимся по вопросу беженцев после прихода к власти Талибана, существующим проблемам в двусторонних отношениях и перспективам их развития в контексте национальных интересов государств.

**Ключевые слова:** Международная организация по миграции, Конвенция о беженцах, межгосударственные отношения, афганские беженцы, массовая депортация, Пакистан, Афганистан, правительство Талибана, социально-экономическое положение.

Продолжающиеся вооружённые конфликты в различных уголках мира нарушают торговые и инвестиционные потоки, усугубляют проблемы обеспечения продовольственной и энергетической безопасности. Наряду с этим, глобальные изменения климата, рост дефицита природных и водных ресурсов, утрата биоразнообразия, а также распространение опасных инфекционных заболеваний ещё более ярко выявили уязвимые стороны наших обществ. Эти проблемы приводят к разрушению общих ценностей и благ, имеющих непосредственное отношение к судьбе человечества, угрожают жизни и деятельности людей, сокращают их источники доходов.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев особо подчеркнул: “В таких сложных условиях очевидно одно: ни одно государство не в состоянии в одиночку избежать или устранить эти глобальные угрозы и риски” [1].

В связи с этим, в открытой внешней политике Узбекистана сегодня наблюдается тенденция к сближению не только с соседними странами, но и с соседними регионами. В этом отношении южноазиатское направление приобретает особую значимость.

В частности, расположенные в этом регионе Пакистан и Афганистан являются государствами, связанными между собой географической близостью, общей историей, языковым и культурным родством. В связи с этим отношения между Пакистаном и Афганистаном занимают особое место в политических процессах Южной Азии.

В настоящее время афганские беженцы занимают особое место в отношениях между Пакистаном и Афганистаном и являются одним из важнейших направлений двусторонних отношений. По данным Международной организации по миграции (МОМ), в 2023 году число официально зарегистрированных афганских беженцев в Пакистане составило 3,7 миллиона человек, тогда как правительство Пакистана утверждает, что их количество не менее 4,4 миллиона [2].

Несмотря на то, что Пакистан не подписал “Конвенцию о беженцах” 1951 года, афганским беженцам было разрешено свободно передвигаться по стране. Однако многие из них вынуждены возвращаться в Афганистан, так как их права на получение официального образования, открытие банковских счетов, трудовую деятельность, покупку имущества и доступ к здравоохранению ограничены.

Согласно имеющимся данным, в Пакистане незаконно проживает от 600 тысяч до 1,5 миллиона афганских беженцев (по состоянию на 2024 год). С 1979 года более 2 миллионов детей, родившихся от афганских беженцев в Пакистане и не имевших никакого гражданства, были возвращены в Афганистан.

Результаты анализа показывают, что афганские беженцы, возвращающиеся из Пакистана, делятся на две группы. К первой группе относятся беженцы, обладающие афганским гражданством, которые покинули страну после Саурской революции. Ко второй группе относятся дети афганских беженцев, родившиеся в Пакистане и не имеющие гражданства.

В последние годы процесс возвращения беженцев усилился, и за последние 30 лет в Афганистан вернулись более 6 миллионов человек. Большая часть этих беженцев прибыла из Ирана и Пакистана. В стране с населением более 43 миллионов человек вернувшиеся беженцы составляют около 15% населения Афганистана.

После того как в августе 2021 года в Афганистане к власти де-факто пришло движение “Талибан”, произошла новая волна миграции, и, по имеющимся данным, около 600 тысяч афганцев бежали в Пакистан.

После прихода к власти талибы пытались наладить отношения с Пакистаном по вопросу афганских беженцев. Однако в последнее время обострение ситуации на границе, усиление активности боевиков и угрозы безопасности Пакистана привели к напряжённости в отношениях между двумя странами. По данным Института исследований мира Пакистана, с момента прихода Талибана к власти количество террористических атак в Пакистане за последние два года увеличилось на 73%.

Официальные представители утверждают, что рост числа терактов в Пакистане связан с нелегальными иностранцами. В связи с этим 3 октября 2023 года правительство Пакистана объявило о плане депортации нелегальных иностранцев, проживающих в стране. Хотя этот план распространяется на всех нелегальных мигрантов, в первую очередь он затрагивает около 1,7 миллиона нелегальных афганских беженцев.

Согласно данным ООН, в Пакистане проживает более 2 миллионов нелегальных афганских граждан, из которых не менее 700 тысяч покинули Афганистан после прихода Талибана к власти. Кроме того, более 60% депортируемых из Пакистана афганцев составляют дети [3].

Массовая депортация вызвала резкую реакцию администрации Талибана. И.о. министра обороны Мохаммад Якуб предупредил Исламабад о значительном ухудшении двусторонних отношений в случае полной реализации этого плана. Также он назвал высылку афганских беженцев несправедливой и призвал афганских предпринимателей перевести свои активы в Афганистан, чтобы нанести экономический ущерб Пакистану [4].

Министр внутренних дел Пакистана Сарфраз Багти заявил, что депортация нелегальных беженцев до 1 ноября 2023 года была разработана в интересах внутренней безопасности страны. Он подчеркнул, что Пакистан, как суверенное государство, имеет право принимать такие решения и что эта мера не направлена исключительно против афганцев, а касается всех иностранных граждан. Также он добавил, что из 24 террористических актов, совершённых в Пакистане в 2023 году, в 14 участвовали граждане Афганистана.

Согласно имеющимся данным, в результате данной политики Пакистана на сегодняшний день в Афганистан уже вернулись более 600 тысяч нелегальных афганцев [5].

Тем не менее, официальные лица обеих стран стремятся решить существующие проблемы через политический диалог, учитывая их социально-экономические последствия. В частности, в январе этого года лидер одной из

крупнейших религиозно-политических партий Пакистана, Маулана Фазлур Рахман, встретился в провинции Кандагар с верховным лидером движения "Талибан" в Афганистане, Маулви Хибатуллой Ахундзадой. В ходе переговоров стороны обсудили вопросы смягчения напряжённости между Исламабадом и Кабулом, а также дальнейшую судьбу афганских беженцев. Следует отметить, что эта встреча стала первой с Ахундзадой для пакистанского лидера после того, как в августе 2021 года талибы вновь взяли под контроль Афганистан. Это свидетельствует о том, что в последнее время руководство обеих стран заинтересовано в урегулировании проблемы афганских беженцев.

В октябре 2023 года правительство Пакистана объявило о запуске "Плана репатриации нелегальных иностранцев", в рамках первого этапа которого афганским беженцам без документов было дано 30 дней на выезд из страны или они подлежали депортации. С тех пор в Афганистан вернулись 783 918 человек.

Международная правозащитная организация Amnesty International призвала правительство Пакистана отменить это решение, принимая во внимание международные обязательства в области прав человека, и защитить афганских беженцев от произвольных задержаний и преследований. В апреле 2024 года Пакистан объявил о начале второго этапа депортации афганских граждан, однако он не был полностью реализован.

По состоянию на сегодняшний день Объединённый комитет по вопросам беженцев Пакистана сообщил, что с 1 января 2025 года в Исламабаде было задержано более 800 афганцев [6]. Ранее министр внутренних дел Пакистана Мохсин Накви заявил, что ни один афганский гражданин без документов не останется в Исламабаде [7]. Это заявление было сделано после протестов, организованных пакистанским движением “Техрик-е-Инсаф” (PTI) 26 и 27 ноября 2024 года в Исламабаде, когда в результате чрезмерного применения силы со стороны сил безопасности погибли десятки человек.

В качестве вывода можно отметить, что основными причинами нежелания афганских беженцев возвращаться на родину являются недоверие и нестабильность, нехватка средств для устойчивой реинтеграции и гуманитарной помощи, отсутствие скоординированной политики между правительствами по вопросам беженцев, непрозрачность распределения земель, отсутствие возможностей для трудоустройства и средств к существованию у афганских предпринимателей, трудности при перемещении

производственных активов в Афганистан, а также социальные конфликты между местным населением и вернувшимися беженцами, в первую очередь из-за нехватки ресурсов.

Процессы репатриации и реинтеграции афганских беженцев из Пакистана продолжаются, и если правительство не усилит контроль над миграционными вопросами, это приведёт к многочисленным проблемам для Афганистана. Одним из ключевых вопросов является владение землёй. Многие афганские беженцы, находившиеся за пределами страны десятилетиями, не доверяют судебной системе государства и вынуждены решать имущественные споры через местные религиозные суды.

Согласно данным ООН, на сегодняшний день из 39 миллионов граждан Афганистана 24 миллиона по-прежнему нуждаются в гуманитарной помощи, 19 миллионов живут за чертой бедности, а 6 миллионов страдают от голода [8].

Это, в свою очередь, может привести к усилению недоверия к правительству и вовлечению людей в различные террористические группировки, которые будут действовать в интересах антиправительственных сил. Скопление вернувшихся беженцев в городах, особенно в Кабуле, создаёт дополнительные проблемы. Городская инфраструктура не соответствует требованиям, люди вынуждены жить в нелегальных поселениях без воды и санитарных условий, растёт число безработных, а система образования не охватывает всех нуждающихся. Всё это способствует росту внутренней нестабильности. Большинство недавно вернувшихся беженцев – это бездомные одинокие мужчины, среди которых преобладают недовольные текущей ситуацией молодые люди, стремящиеся как можно скорее покинуть страну.

Таким образом, проблема афганских беженцев наносит ущерб не только Афганистану, но и инфраструктуре, социальному укладу и экономическому потенциалу Пакистана. В результате нарастающие социально-экономические проблемы и межгосударственные разногласия могут привести к фрагментации “Талибана” на различные вооружённые группировки, что повысит вероятность возобновления гражданской войны в Афганистане под влиянием внешних сил.

Это, в свою очередь, может задержать реализацию узбекистанских проектов и инициатив, связанных с афганским направлением (экономических, энергетических, транспортных и других).

## Список использованных источников:

1. Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг Самарқанд саммити: ўзаро боғлиқликдаги дунёда мулоқот ва ҳамкорлик, 2022 йил 12 сентябрь // https://president.uz/uz/lists/view/5495;

2. Forced returns from Pakistan deepen Afghanistan’s humanitarian crisis // https://www.unhcr.org/news/forced-returns-pakistan-deepen-afghanistan-s-humanitarian-crisis;

3. UN agencies call on Pakistan to protect Afghan refugees, https://news.un.org/en/story/2023/10/1142022;

4. Maulvi Yaqub “Pakistan’s plan to evict refugees can harm ties”, https://pajhwok.com/2023/10/05/maulavi-yaqub-pakistans-plan-to-evict-refugees-can-harm-ties/;

5. Anne Hammerstad “Repatriating Afghan Refugees”, 2024. https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199213085.003.0014;

6. Pakistan: Renewed arrests, detention and harassment of Afghan refugees must stop, https://www.amnesty.org/en/latest/news/2025/01/pakistan-renewed-arrests-detention-and-harassment-of-afghan-refugees-must-stop/;

7. Afghan Nationals to Obtain NOC to Stay in Islamabad Beyond 2024, https://moderndiplomacy.eu/2024/12/22/afghan-nationals-to-obtain-noc-to-stay-in-islamabad-beyond-2024/;

8. “Марказий Осиё ва Афғонистон: умумий келажак сари” мавзуида халқаро давра суҳбати, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтақалараро тадқиқотлар институти, 2024 йил 11–12 сентябрь, https://uza.uz/uz/posts/termizda-afgoniston-masalasi-boyicha-davra-suhbati-bolib-otdi_635772.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# SABZI CHIQINDILARINING O‘YUCH QIZDIRISH JARAYONINI O‘RGANISH VA UNING RATSIONAL REJIMINI ASOSLASH

**Uzoqova Shirin Ibrohimovna**
Toshkent kimyo texnologiya instituti
shirinuzokova@gmail.ru
**Sanayev Ermat Shermatovich**
Toshkent kimyo texnologiya instituti
ermatsanayev@gmail.com

**Annotatsiya:** Sabzi chiqindilarining O‘YuCh qizdirish jarayonini o‘rganish va uning ratsional rejimi asoslash sanoatda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda optimal parametrlar aniqlanib, chiqindilardan samarali foydalanish imkoniyatlari baholangan.

**Kalit so‘zlar:** Sabzi chiqindisi, O‘YuCh qizdirish jarayoni, ratsional rejim, optimal parametrlar, texnologik jarayon, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik samaradorlik, energiya tejamkorlik.

O‘YuCh-qizdirishning texnologik omillarining sabzavot chiqindilariga ta’sirini, jumladan harorat, namlik (quruq moddalar miqdori), antioksidantlar (suvda eriydigan) umumiy miqdorini kversetin bo‘yicha o‘rganish maqsadida, ularni 50 dan 96°C gacha bo‘lgan haroratda doimiy quvvatda, ya’ni 800 Vtda qizdirish amalga oshirildi.

Sabzi chiqindilarining O‘YuCh-qizdirishning ratsional rejimi SAF maksimal qiymati bo‘yicha tanlandi.

Nazorat sifatida O‘YuCh -qizdirishga duchor qilinmagan yangi sabzavot chiqindilari qo‘llanildi, ularning boshlang‘ich quritilgan moddalar miqdori 16,9 %, antioksidantlar umumiy miqdori 19,6 mg/100 g (116,0 mg/100g q.v.) va harorati 20°C edi.

1-jadval

Sabzavot chiqindilarini O‘YuCh-qizdirishning turli rejimlarining antioksidantlar umumiy miqdoriga (kversetin bo‘yicha) ta’siri.

| № | Quvvat, Vt | Isitish vaqti, s | Isitish harorati, $^0$C | Namlik, % | SAF, mg/100 g |
|---|---|---|---|---|---|
| Nazorat | | | | | |
| 1 | - | - | - | 83,1 | 19,6 |
| prototiplar | | | | | |
| 2 | | 60 | 50 | 82,7 | 24,3 |
| 3 | | 80 | 60 | 82,3 | 25,5 |
| 4 | | 100 | 70 | 81,9 | 26,4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5 | 800 | 120 | 80 | 81,4 | 28,4 |
| 6 | | 140 | 90 | 80,9 | 30,1 |
| 7 | | 160 | 92 | 80,4 | 31,6 |
| 8 | | 180 | 95 | 80,1 | 38,0 |
| 9 | | 200 | 96 | 79,7 | 32,7 |

Aniqlanishicha, sabzi pulpasini qizdirish harorati 95 $^{0}$C ga oshishi bilan antioksidantlarning umumiy miqdori ortishi kuzatiladi. Shunday qilib, SAF 38,0 mg / 100 g (191,0 mg / 100 g quruq modda) namlik miqdori 80,1% bo‘lgan sabzi pulpasining maksimal qiymati mikroto‘lqinli isitishning quyidagi parametrlari bilan aniqlandi: quvvat - 800 Vt, o‘ziga xos ish - 720 Vt. /g s, harorat - 95 $^{0}$C, vaqt - 180 s. Shunday qilib, ushbu rejim ostida mikroto‘lqinli pechda isitish sabzi pulpasining SAF qiymatini nazorat bilan solishtirganda 1,65 marta oshiradi.




1-rasm.

Quruq moddalar miqdorining haroratga va mikroto‘lqinli pechning o‘ziga xos ishiga bog‘liqligi - sabzi pulpasini isitish.




2 -rasm.

Antioksidantlarning umumiy tarkibi (kversetin uchun) haroratga va mikroto‘lqinli pechning o‘ziga xos ishiga bog‘liqligi - sabzi pulpasini isitish

Shuningdek, O‘YuCh-qizdirish davomiyligi 200 s gacha uzaytirilganda va 800 Vt doimiy quvvatda sabzavot chiqindilarining harorati faqat 1°C ga oshdi, SAF qiymati esa 15,7 % ga pasaydi, quritilgan moddalar miqdori esa 0,4 % ga ko‘paydi. Bu holat shundan kelib chiqadiki, chiqindilarning 180 s davomida 95°C gacha qizdirilishida SAFning maksimal chegarasiga yetiladi, va uzoq muddatli yuqori haroratdagi ta’sir antioksidantlarning buzilishiga olib keladi. O‘YuCh-qizdirishning 800 Vt/g·s maxsus ish qiymatida sabzavot chiqindilarining antioksidantlar umumiy miqdori 32,7 mg/100 g (161,1 mg/100 g q.v.) ni tashkil qildi, quritilgan moddalar miqdori esa 20,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, O‘YuCh-qizdirishning turli quvvatlarining sabzavot chiqindilarining antioksidantlar umumiy miqdoriga ta’siri o‘rganildi. Chiqindilar doimiy 720 Vt/g·s maxsus ish bilan 95°C gacha qizdirildi, bu O‘YuCh-qizdirishning maksimal SAF qiymatini ta’minlash bilan bog‘liq. Tadqiqot natijalari jadval 3.14 va rasmlar 3.18 da keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu xulosaga kelish mumkinki, O‘YuCh-qizdirishning quvvati 180 dan 800 Vtgacha oshirilishi bilan sabzavot chiqindilarini qizdirish davomiyligi o‘rtacha 4 martaga qisqaradi. Masalan, sabzavot chiqindilarini 95°C gacha qizdirish uchun 180 Vt quvvatda 13 min 20 s vaqt sarflansa, 800 Vt quvvatda 3 min sarflanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov A.R. Oziq-ovqat texnologiyasi: Chiqindilarni qayta ishlash. – Toshkent: Mehnat, 2021.
2. Abdullaev U., Saidov B. Qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashning zamonaviy usullari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
3. Yusupov Sh.N. Oziq-ovqat sanoati chiqindilarini utilizatsiya qilish va ekologiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.
4. Nurmatov J., Rahmonov A. Qizil lavlagi va uning qayta ishlash mahsulotlari. – Toshkent: Universitet, 2023.
5. Journal of Food Processing and Preservation – Red Beet Waste Processing and Valorization, 2022.
6. Food Science & Nutrition – Thermal Treatment of Beetroot Waste for Energy Efficiency, 2023.
7. Scopus Indexed: Waste and Biomass Valorization – Sustainable Utilization of Agro-Industrial Residues, 2022.
8. Springer: Environmental Science and Pollution Research – Optimization of Pyrolysis for Food Waste Management, 2023.
9. Web of Science: Renewable Energy & Sustainable Development – Energy Recovery from Agro-Waste, 2022.

# KOMPOZIT ARALASHMADAGI KLEYKOVINA MIQDORI VA SIFATI

**Azamatov Umid Zokirovich**
Toshkent kimyo texnologiya instituti
umidazamatov3@gmail.ru
**Sanayev Ermat Shermatovich**
Toshkent kimyo texnologiya instituti
ermatsanayev@gmail.com
**Rahmatov Furqat Eshpo‘lat o‘g’li**
Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali
rahmatovfurqat@gmail.com

**Annotatsiya:** Mahalliy bug’doy, grechka va soya unlaridan iborat kompozit aralashmadagi kleykovina miqdori va sifati oziq-ovqat mahsulotlarining texnologik jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda turli kompozit un aralashmalaridagi kleykovina miqdori va uning elastiklik, cho‘ziluvchanlik hamda strukturaviy xususiyatlariga ta’siri o‘rganiladi. Olingan natijalar asosida optimal nisbatlar aniqlanib, mahsulot sifatini oshirish va texnologik jarayonlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kompozit un asosida tayyorlangan mahsulotlarning iste’mol xususiyatlarini yaxshilashga ham yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** Kompozit aralashma, kleykovina miqdori, kleykovina sifati, elastiklik, cho‘ziluvchanlik, struktura xususiyatlari, texnologik jarayon, optimal nisbatlar, mahsulot sifati, iste’mol xususiyatlari.

“Kleykovina makaron xamirining asosiy strukturaviy komponentlaridan biri bo‘lib, uning asosiy texnologik xossalarini – plastiklik, oquvchanlik va cho‘ziluvchanlikni belgilaydi”.

Makaron xamirining reologik xulq-atvori uning struktura-mexanik xususiyatlari bilan aniqlanadi. Kleykovin oqsillari miqdori va sifati unning suvni o‘zlashtirish qobiliyati, xamirni shakllantirish, uglerod dioksidini ushlab qolish imkoniyatiga katta darajada ta’sir ko‘rsatadi. Kleykovina xamirning reologik xossalari, yoki unning “kuchi”ni aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Bug‘doy un va kompozit aralashmadan olingan xom kleykovina miqdori va sifati o‘rganildi. Olingan natijalar 1, 2 va 3-rasmlarda keltirilgan.




1-rasm. Bug‘doy un va kompozit aralashmadan olingan xom kleykovina massaviy ulushi.

Tadqiqot natijasida kompozit aralashmadan ajratilgan xom kleykovina massaviy ulushi bug‘doy unga nisbatan 2,1 % ga kamroq ekani aniqlandi. “Kleykovina miqdorining kamayishi, marjumak va soya oqsillarining suvda eriydigan fraksiyalari kiritilishi natijasida sodir bo‘ladi”. Bug‘doy uni va kompozit aralashmasining kleykovina sifati 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Bug‘doy uni va kompozit aralashmadan olingan kleykovina sifati.

Tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, kompozit aralashmadan olingan kleykovinaning cho‘ziluvchanligi biroz oshgan. “Kleykovinaning

deformasiyalovchi yuklamalarga nisbatan qarshilik koʻrsatish qobiliyati nazorat namunalariga nisbatan 7 % ga oshgan, bu kleykovina oqsillari molekulalaridagi gidrofob va ion ta'sirlarining kuchayishi bilan izohlanadi".




3-rasm. Bugʻdoy un va kompozit aralashmadan olingan kleykovinaning gidratatsiya qobiliyati.

Kompozit aralashmadan olingan kleykovinaning gidratasiya qobiliyati bugʻdoy unga nisbatan 7 % ga yuqori ekani aniqlandi. Bu marjumak va soya oqsillarining fraksiyaviy tarkibiga xos xususiyatlari bilan bogʻliq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Karimov A., Mirzayev S. Makaron mahsulotlari texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2022.

2. Nizamov B., Rahmonov A. Oziq-ovqat sanoati uchun innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.

3. Yusupov U. Makaron mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy usullari. – Toshkent: Mehnat, 2021.

4. Abdullaev H. Qayta ishlangan don mahsulotlari texnologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2023.

5. Food Science & Technology International – Dough Mixing and Pressing Conditions in Pasta Production, 2022.

6. Journal of Cereal Science – Influence of Composite Flour on Pasta Dough Properties, 2023.

7. Scopus Indexed: Food Engineering & Processing – Optimization of Pasta Processing Parameters, 2022.

8. Springer: Journal of Food Science and Technology – Technological Advances in Pasta Production, 2023.

9. Web of Science: Agro-Food Processing Journal – Energy-Efficient Pasta Manufacturing, 2022.

# Basalt Products' Origin History and Fiber Extraction Processes

**K.V. Kabulovna, Y.M. Yusupova, X.Q. Madaminovich, Z. Erkinov Erkinboy o'g'li, A.X.Abduvoxidovich**
**1994@gmail.com**
**Namangan State Technical Unversity**

**Annotation:** This thesis analyzes the history of the origin of basalt products, the natural characteristics of basalt rocks, the processes of obtaining basalt fibers, and their significance in industry. Basalt fiber possesses properties such as high strength, heat resistance, and environmental friendliness, making it widely used in various sectors of modern industry. The thesis discusses the production process of basalt fibers, including the melting of basalt rocks and fiberization technologies. It also examines the main application areas of basalt products and the prospects for their future development. This research could be useful in expanding the use of basalt materials in terms of ecological efficiency and their role in industry.

**Keywords:** Basalt, basalt fiber, production technologies, fiberization, ecological materials, high strength, heat resistance, composite materials, construction, aerospace industry, automotive industry, environmentally friendly materials.

## Introduction

- **Relevance of the topic**: Basalt products and their extraction processes are widely used in modern industry, especially in construction, aerospace, and automotive industries. The ecological purity and high technical properties of these materials have made them popular worldwide.

**Basalt Products:** The primary goal of producing basalt products is to utilize its natural properties and apply them in various industrial fields. Below are some types of basalt products:

1. **Basalt Fiber:** The production of basalt fiber involves melting basalt rock and the process of fiberization. Basalt fiber is known for its high strength, heat resistance, chemical stability, and environmental purity. These fibers are primarily used in construction (insulation materials), automotive (composite materials), and aerospace (structural components).
2. **Basalt Stones and Slabs:** Basalt stones are used in construction as foundations, walls, road coatings, and decorative materials. Basalt slabs and tiles also possess high durability and are used in various decorative applications.

3. **Basalt Composite Materials:** Composite materials made from basalt fibers are lightweight, heat-resistant, and strong, which makes them widely used in aerospace, automotive, and construction industries. These materials enhance the strength of structures while reducing weight.

4. **Basalt Materials for Tooling:** Basalt-based materials, such as basalt inserts, are combined with aluminum or plastic composites to improve energy efficiency. These materials can be recycled without harming the environment.

5. **Basalt Gravel and Aggregate:** Basalt gravel and aggregate are commonly used in construction and road building due to their excellent mechanical properties and long-lasting durability.

**Advantages of Basalt Products:**

- **High Strength and Durability:** Basalt materials are known for their superior mechanical strength, making them ideal for use in harsh conditions where durability is crucial.
- **Heat Resistance:** Basalt is highly resistant to heat, making it suitable for use in high-temperature environments.
- **Environmental Purity:** Basalt products are made from natural materials and are environmentally safe, with no harmful emissions during their production.
- **Chemical Stability:** Basalt is chemically stable and remains reliable over long periods, even under harsh conditions.

**Natural Characteristics of Basalt Rocks**

- **Description of basalt rocks**: The geological composition and origin of basalt rocks, their relationship with volcanic processes. The composition of basalt rocks (silicon, alumina, iron oxide, etc.) and their qualities.
- **Distribution and occurrence of basalt**: The global distribution of basalt as a natural resource and the main regions where it is mined.

**History of Basalt Products' Origin**

- **Initial use of basalt**: How basalt was used as a building material in ancient times, such as in Greek and Roman periods.
- **Introduction of basalt fibers to industry**: The production of basalt fiber and its entry into industry (since the mid-20th century). The beginning of basalt fiber production and its technological development.
- **Development and innovations**: The development of basalt fiber production technologies in the Soviet Union and other countries from the 1960s to 1980s.

**Processes of Extracting Basalt Fibers**

- **General process of fiber extraction**:
  - Melting basalt rocks at high temperatures.
  - Converting melted basalt into fibers (fiberization).
  - Controlling the length and ensuring the quality of fibers.
- **Technologies for basalt fiber production**:
  - Microwave melting and electric arc melting technologies.
  - Characteristic methods: production of basalt fibers using both cold and hot methods.
  - Properties: high strength, heat resistance, chemical stability.
- **Areas of application**:
  - In construction (insulation materials),
  - In aerospace and automotive industries (as composite materials),
  - In energy and engineering (strengthening composite materials).
- **Advantages**:
  - Ecological purity,
  - Energy efficiency,
  - Durability and long-term use.

**References:**

1. Mays, P. J., & Miller, R. D. (1985). "Basalt fibers: A new material for construction." Journal of Composite Materials.
2. Kuchling, W. (2003). "Basalt Fiber Reinforced Composites." Materials Science and Engineering.
3. Soltani, R., & Namini, S. S. (2008). "Production and characterization of basalt fibers." Journal of Thermal Analysis and Calorimetry.
4. Vernon, R. H. (2004). "Basalt rocks and their use in construction materials." Geological Journal.
5. Giles, M. R. (2015). "The future of basalt fiber applications in civil engineering." Journal of Civil Engineering and Materials Science.
6. Martínez, M. A., & García, G. E. (2012). "The history of basalt in construction." Construction and Building Materials.
7. General information on basalt fibers, production technologies (2020). Soviet Scientific Technological Journal.
8. Wang, L., & Zhang, X. (2011). "High-Performance Basalt Fiber and Its Applications." Journal of Materials Science.

# ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛҒОР ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ

**Кадиров Камил Маликович**
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби тингловчиси

Бугунги кунда иқтисодий зоналарни ривожлантириш жаҳон иқтисодиётининг муҳим йўналишларидан бири бўлиб, мамлакатларнинг инвестициявий жозибадорлигини ошириш, саноатни модернизация қилиш ва янги иш ўринларини яратишда катта аҳамият касб этади. Хорижий давлатлар, жумладан, Хитой, Жанубий Корея, Сингапур, АҚШ ва Европа Иттифоқи мамлакатлари иқтисодий зоналарни ташкил этиш ва ривожлантиришда турли моделлар ҳамда инновацион ёндашувлардан фойдаланмоқда. Бу мамлакатлар тажрибаси иқтисодий ўсишни рағбатлантириш, экспорт салоҳиятини ошириш ва технологик тараққиётни жадаллаштиришда самарали механизм сифатида ўзини намоён қилмоқда.

Ўзбекистон ҳам иқтисодий зоналарни ташкил этиш ва уларни ривожлантиришга катта эътибор қаратмоқда. Мамлакатда эркин иқтисодий зоналар (ЭИЗ), махсус саноат зоналари ва технопарклар фаолияти йўлга қўйилиб, инвестициявий муҳитни яхшилаш, замонавий технологияларни жалб этиш ва маҳаллий ишлаб чиқаришни қўллаб-қувватлаш бўйича ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Шу нуқтаи назардан, илғор хориж тажрибасини ўрганиш ва уни миллий иқтисодиёт шароитига мослаштириш иқтисодий зоналарнинг самарадорлигини оширишда муҳим омил ҳисобланади.

Ҳозирги даврда саноати ривожланган мамлакатлар, ривожланаётган мамлакатларда ҳам албатта турли мақсадларни кўзлаб эркин иқтисодий зоналарни вужудга келтирмокдалар. Эркин иқтисодий зоналар борасида иқтисодий жиҳатдан турли туман таърифлар мавжуд. БМТнинг шу муаммога бағишланган фаолиятида 20 дан ортиқ таъриф келтирилган.

Биринчи марта эркин иқтисодий зоналарнинг ёки “франко зонаси” нинг тушунчаси 1973 йилда Киото конвенциясида берилган. Эркин иқтисодий зоналарни - давлат худудининг муайян натижаларга эришмок максадида миллий ва хорижий тадбиркорлар учун иқтисодий фаолиятнинг преференциал шартлари, бошқарувнинг алоҳида режими ва бошқа ташкилий

маъмурий тадбирларни жорий этиладиган қисми сифатида таърифлаш мумкин.

Ҳозир жахонда 4 мингдан ортик эркин иқтисодий зоналар мавжуддир. Улар турли вазифаларни бажариши учун ўз олдига турли мақсадларни умумлаштирган. Масалан, - махсус имтиёзлар, баркарор қонуний база ва ташкилий муолажаларни соддалаштириш туфайли хорижий капиталнн ва илғор технологияларни жалб этиш; - тайёр маҳсулот экспортини кенгайтириш учун мехнат тақсимоти афзалликларидан фойдаланиш; -мамлакат ва минтақа бюджетига валюта тушумини ўстириш; - янги иш жойларини яратиш; - ташкил килиш, бошқариш ва молиялаш сохасида жахон тажрибасини ўрганиш ва амалиётга жорий этиш ҳисобидан ишчи кучи малакасини ошириш.

Ҳозирги глобаллашган даврда хар бир давлат ўз олдига улкан мақсадларни қўйиши аниқ лекин бу мақсадлар инвестицияларсиз ташкил этишили қийиндир. Шу инвестицияларнинг мажозий маънода ўчоғи ҳисобланган эркин иқтисодий зоналар ҳисобланади. Бугунги кунда дунёнинг 150 дан ортик, давлатида ташкил этилган эркин зоналар мамлакатлар тараккиёти учун ҳизмат қилиб келмокда. Ўзбекистонда ҳам қарийб, 10 йиллик тажриба мавжуд. Бу жараён албатта Ўзбекистан учун ривожланган ва ривожланаётган давлатлар тажрибасини ўрганишни талаб қилади. Ҳамма давлатларда ҳам эркин иқтисодий зоналар яратиш ишлари илмий асосда, пухта ўйланган эркин иқтисодий зоналар сиёсати орқали ташкил этилган, деб бўлмайди. Биз бу борада катта тажрибага эга бўлган айрим давлатлардаги зоналарда олиб борилган ишларни таҳлил қилмоқчимиз. Бу борада катта тажрибага эга давлатлар анчагина, аммо кайси давлатнинг тажрибасига эътиборни қаратишда икки нарсани ҳисобга олдик: биринчидан, эркин иқтисодий зоналар сиёсати борасида ўзига хос ўрни бор ва иккинчидан, тажрибасини Ўзбекистонда қўллаш учун аҳамияти муҳимроқ давлатлар танланди.

Биринчи танлаган давлатимиз бу-Япония. Бу давлат эркин иқтисодий зоналар сиёсати масаласида ўзига хос томонларга эга бўлиб, у қуйидаги мезонлар тизимига таянади:

- минтақаларнинг чекланган ер ресурсларидан иложи борича самарали фойдаланиш;
- табиий ресурсларнинг нисбатан камлигини ҳисобга олиш;
- махаллий ва марказий маъмурият манфаатларини мослаштириш;

- йирик шаҳарларда аҳолининг ва саноат ишлаб чиқаришнинг хаддан ташкари концентрациялашувини бартарафлаштириш.

Японияда қуйидаги тур эркин савдо зоналари тузиш таклиф этилган:

- импортга кўмаклашувчи эркин иқтисодий зоналари: экспортга мўлжалланган ўсиш даврига оид тартибларни кўриб чиқиш ва ўзгартириш (10 мингга яқин қарорларни кўриб чиқиш зарур). Бу зоналар Хитой махсус зоналари ва Тайваннинг -экспорт қайта ишлаш зоналарига нисбатан ўзаро бир-бирини тўлдирувчи муносабатда бўлиши зарур.

- ресурсни тежовчи эркин иқтисодий зоналари. Уларда жахон бозорларида коньюнктура қулай бўлган даврда сотиб олинадиган хом ашё-нинг йирик захираларидан божсиз сақлаш кўзда тутилган. Хом ашёни япон истеъмолчилари хам, зонада ишлаб чиқариш билан шуғулланувчи хорижий фирмалар хам ишлатишлари мумкин;

- эгизак зоналар, яъни Хитойнинг махсус иқтисодий зоналаридаги мехнат кўп талаб қиладиган ишлаб чиқаришларни тўлдирувчи зоналар. Бу зоналарга эгизак зоналардаги хом ашё ва деталларга асосланувчи капитал кўп талаб қилинадиган ишлаб чиқаришларни ривожлантириш кўзда тутилган:

- Океан олди мамлакатларидаги фирмалар учун “энг қулай” тартибли эркин иқтисодий зоналари. Улардаги корхоналар, хатто япон технологиясини қўлласалар хам солиқ имтиёзларга эга бўладилар.

- ҳалқаро савдо билан алоқадор масалалар бўйича маълумот-маслаҳат берувчи махсус ташкилотлар тузиладиган эркин иқтисодий зоналари;

13. Hung, P.V., Vien, N.L., Lan Phi, N.T., 2016. Resistant starch improvement of rice starches under a combination of acid and heat-moisture treatments. Food Chem. 191, 67–73.

14. Sarawong, C., Schoenlechner, R., Sekiguchi, K., Berghofer, E., Ng, P.K.W., 2014. Effect of extrusion cooking on the physicochemical properties, resistant starch, phenolic content and antioxidant capacities of green banana flour. Food Chem. 143, 33–39.

15. Nagahata, Y., Kobayashi, I., Goto, M., Nakaura, Y., Inouchi, N., 2013. the formation of resistant starch during acid hydrolysis of high-amylose corn starch. J. Appl. Glycosci. 60, 123–130.

16. Reddy, C.K., Suriya, M., Haripriya, S., 2013. Physico-chemical and functional properties of Resistant starch prepared from red kidney beans (Phaseolus vulgaris L.) starch by enzymatic method. Carbohydr. Polym. 95, 220–226.

# MINTAQAVIY ANTROPOMETRIK BAHOLASH – SOG'LOM MILLAT GAROVI (adabiyotlar sharhi)

**F.A.Ibragimov, M.I.Kosimhojiev, D.I.Sadikova**
Qo'qon Universitetining Andijon filiali
Andijon davlat tibbiyot instituti

**Muhokama:** Inson morfofunksional ko'rsatkichlarining barqarorligi va o'zgaruvchanligi tadqiqotchilar e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda [B.N.Nikituk, 1997; I.K. Kosimhojaev, 1998; O.M.Yuldosheva, 2002]. Butun umr davomida inson tanasi o'zgarish jarayonida bo'ladi. Uning to'qimalari, a'zolari va tizimlarida yosh, jins, irsiyat, ichki va tashqi muhitning ko'plab omillari ta'sirida murakkab o'zgarishlar ro'y bermoqda [E.I.Carter, D.Y.Heath, 2010]. Morfofunksional belgilar majmui oxir-oqibat insonning jismoniy holatini aniqlaydi [J.M.Bruzek, K.A.Hajnis, 1998; P.Z.Tlaskal, V.S.Blazek, 2015].

Mintaqaviy yosh-jinsiy standartlarni umumlashtiruvchi usul (baholash jadvallari) bilan yaratish - bolalarning katta guruhlarini tekshirishga asos bo'lgan muntazam jarayon [A.I.Mezek, 2008; I.K.Madaken, 2020]. Standartlarni yaratishda fazoviy-vaqt cheklovlari muhim rol o'ynaydi, bu esa bolalarning jismoniy rivojlanishi normativlarini har 10-15 yilda muntazam qayta ko'rib chiqish zarurligini taqozo etadi.

Zamonaviy sog'liqni saqlash ustuvor milliy loyihalardan biri bo'lib, uning vazifalariga, boshqa masalalar qatorida, sog'liqni saqlashning profilaktik yo'nalishini ommaviy dispanser ko'rikdan o'tkazish yo'li bilan kuchaytirish kiradi, uning davomida sog'liqni saqlashning yakka tartibdagi pasportini shakllantirishda, shu jumladan, jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash zarur [I.S.Somah, 2004; V.V.Strek, 2019].

Aholini tekshirishda kompleks yondashuv konstitutsiyaning tarkibiy ifodasi sifatida somatotip diagnostikasini o'z ichiga olishi shart [V.G. Nikolayev va

boshqalar, 2017]. Insonning somatik turi jismoniy maqomi va salomatligini tavsiflashga qaratilgan kompleks morfologik baholash hisoblanadi [Shchedrina A.G., 2019]. Shu munosabat bilan, organizmning jismoniy holatini kompleks ravishda - o'zaro bog'liq parametrlar majmui sifatida qarash kerak: jinsi, yoshi, somatik turi, organizm tizimlarining funksional holati va boshqalar [Apanasenko G. L., 1985; Nikolayev V.G., 2007 va boshqalar].

**Xulosa:** Hozirgi vaqtda somatometrik tadqiqotlar inson tanasi tuzilishi va jismoniy rivojlanishining hududiy va ekologik jihatiga bog'liq, shuningdek, etnik xususiyatlarini aniqlash maqsadida viloyat, shahar, butun mamlakat miqyosidagi antropometrik ko'rsatkichlarning mintaqaviy farqlariga urg'u berilgan. Jismoniy rivojlanishning holati o'sib borayotgan organizm salomatligiga muhit ta'siri bog'liq.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

**Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna**
**Termiz davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi**
**Mamanazarova Feruza**
**Termiz davlat pedagogika instituti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim malakasini hamda xalqaro ta'lim dasturi asosida takomillashtirish masalasi to'g'risida va ta'limning oʻziga xos xususiyatlari, uning muhim imkoniyatlari, ular oʻrtasidagi bogʻlanishlar haqida fikir yuritilgan.

**Abstract:** This article discusses the issue of improving the knowledge of primary school teachers based on the international educational program, the specific features of education, its important opportunities, and the connections between them.

**Kalit soʻzlar:** Pedagogika, boshlang'ich, xalqaro dasturlar, o'qituvchi.

**Key words:** Pedagogy, elementary school, international programs, teacher

Ayni paytda, oliy ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlantirishlar jarayoni boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari qiyofasiga yangi talablarni qoʻyib boradi. Bunda qoʻyilayotgan yangi talablar oliy pedagogik ta'lim jarayonida hisobga olinadi va ularning ijrosiga e'tibor qaratiladi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy qiyofasida quyidagi talablarga moslik muhim oʻrin tutadi:

ijtimoiy faollik;

axloqiy yetuklik;

kasbiy namunalik.

Mazkur talablar asosida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy qiyofasi shakllantiriladi.Bugungi kunda mamlakatimizning umumiy oʻrta ta'lim boshlangʻich sinflarida professional oʻqituvchilar faoliyat yuritmoqda. Ular bu borada Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonunining (2020-yil 23-sentyabr) 5-bobida belgilangan pedagog xodimlarning huquqi, maqomi va majburiyatlariga qat'iy amal qilishi bilan faoliyat samaradorligiga erishadi. Ayni paytda, amaliy faoliyatdagi boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining malakaviy tayyorgarligiga qoʻyiladigan talablarni ular tomonidan chuqur bilishi va amal qilishi taqoza etiladi. Bu borada hozirgi kunda ham ijroda boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi

25-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo‘yiladigan Davlat talablari”da amaliy faoliyatda bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun malakaviy talablar belgilangan. Bizning yondashuvimizga binoan bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo‘lishi kerak. SHu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qiyofasida pedagogik, psixologik va estetik malaka bo‘rtib turishi kerak. Bu borada quydagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo‘ladi:  bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik vazifani qo‘ya olishi, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;  imkon qadar har bir o‘quvchi bilan individual ishlash uslubiga ega bo‘lishi shart;  o‘quv materiallari bilan ishlash ko‘nikmasini egallash bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini TALIS xalqaro dasturi asosida takomillashtirish metodikasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, o'quvchilarning o'quv fanlari kesimida bilim egallashi va o'zlashtirgan bilimlari asosida ijodiy yondashuvini tarkib toptirish muhim o'rin tutadi va uni o'quvchilarning bilim malakasini takomillashtirish metodikasi deb ataymiz. Bunda TALIS xalqaro dasturining quyidagi qoidalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) o' quv fanlarini turkumlashtirib o' qitish;

2) o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra muayyan fanlar.

Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini TALIS xalqaro dasturi talablari asosida baholash imkoniyatlari kengayadi.Bunday yondashuv TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim malakasini har chorakda baholab borish muhim ahamiyatga ega ekanligini namoyon qiladi.  Bilimlarni o‘zlashtirish yuzasidan nazorat va xolisona baholash bo‘yicha qo‘yiladigan talablar:

bilimlarni o‘zlashtirishni baholashning printsiplarini bilish;

bilimlarni o‘zlashtirishni baholashning metodlari va mexanizmlaridan xabardor bo‘lish;

standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqishni bilish;

o‘zlashtirishni xolisona baholashga qat’iy amal qilish.

E’tibor berilsa, amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muhim umumiy talablar belgilangan.

Kasbiy talablar. Ta’kidlangan hujjatda amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun quyidagi kasbiy talablar qo‘yilgan:

- oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lish;

- davlat ta'lim standartlarini va o'qitilayotgan o'quv fanlari dasturlari talablarini bilish;

- umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish;

- sinflar, laboratoriyalar va to'garaklar xonalarini jihozlashni bilish;

- o'quv–tarbiya jarayonini tashkil etish va sifatini ta'minlash printsiplariga amal qilish;

- o'quv fanlarining mazmuni va ularni o'qitishda izchillikka amal qilish;

Eslatib o'tish joizki, amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu umumiy va kasbiy talablarga rioya qilishi bilan faoliyat samaradorligiga erishadi hamda belgilangan kategoriyalarni egallaydi. Ularning mazkur talablarga rioya qilib borishi Malaka oshirish tizimida nazorat qilinadi hamda kuchaytirib boriladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida ana shu umumiy va kasbiy talablarni o'zlashtiradi. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan malaka talablari davlat tomonidan belgilanadi, ularni o'zlashtirish va ularga amal qilish boshlang'ich sinf o'qituvchisining professionalligini ta'minlaydi.

**ADABIYOTLAR:**

1. З.Х. Абдуназарова (2024). Tabiiy Fanlarni O'Qitishda O'Quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O'ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 ), 123-129.

2. Abdunazarova, Z. (2024). The Content Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ecological Thinking Of Primary Class Students In The Teaching Of Natural Sciences. News Of The Nuuz, 1(1.6.1), 43-45. Https://Doi.Org/10.69617/Nuuz.V1i1.6.1.3664

3. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, . (2024). Pedagogical Significance Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In Forming Ecological Thinking In Primary Class Natural Science Lessons. International Journal Of Pedagogics, 4(04), 95–97. Https://Doi.Org/10.37547/Ijp/Volume04issue04-18

4. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, & Kasimov Shavkat Urolovich.(2022). Main Tasks Of Moral Education And The Role Of Youth inlife. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 547–551.

5.Abdunazarova, Z. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students'ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.

6.Al-Buxoriy, Imom Ismoil. Hadis. Al jome' as-sahih. 4-kitob. - T.: - Qomuslar bosh tahririyati, 1997.- 528 b.
7.At-Termiziy, Abu Iso. Ash shamoil an-nabaviya.- T.: Cho'lpon, 1993. -112b.
8.Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya.-Toshkent: O'qituvchi, 1992. 62 b.
9. Zebiniso Abdunazarova. (2023). Formation Of The Components Of Ecological Thinking In Primary Class Students. Emergent: Journal Of Educational Discoveries And Lifelong Learning (Ejedl), 4(07), 4–9.
10. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students' Ecological Thinking In The Teaching ofnatural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.
11.Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities offorming Students' Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.
12.Абдуназарова Зебинисо Формирование экологическогомышления У Учащихся Начальных Классов "Экономика Исоциум" 11(114) 2023
13.Абдуназарова, З. Х. (2024). Tabiiy Fanlarni O 'Qitishda O 'Quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 (1)), 123-129
14. Z.X. Abdunazarova (2024). Boshlang'Ich Sinf O'quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Falsafiy Xususiyatlarini Takomillashtirish Ahamiyati. Inter Education & Global Study, (8), 342-348.
15. Абдуназарова З.Х. (2023). Формирование Экологического Мышления У Учащихся Начальных Классов. Экономика И Социум, (11 (114)-1), 486-489.
16. Z.X. Abdunazarova (2024). Boshlang'Ich Sinf O'Quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Falsafiy Xususiyatlarini Takomillashtirish Ahamiyati. Inter Education & Global Study, (8), 342-348.
17. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students' Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83. Retrieved From
18. З.Х. Абдуназарова (2024). Tabiiy Fanlarni O'qitishda O'quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O'ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 ), 123-129.
19. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, . (2024). Formation Of Ecological Thinking In Teaching Natural Sciences. International Journal Of Pedagogics, 4(04), 91–94.

20. Abdunazarova, Z. (2024). The Content Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ecological Thinking Of Primary Class Students In The Teaching Of Natural Sciences. News Of The Nuuz, 1(1.6.1), 43-45.
21.Musurmonova A.va boshqalar Umumiy pedagogika 1-qism T.: “O‘zkitobsavdonashriyoti” nashriyoti, 2020. ISBN 978-9943-6296-2-2 308b. o‘quv qo’llanma.

PSSIR TUR PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# XIVA XONLIGIDA BOSMAXONANING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI

**Tillaev Dilmurod Ollaberganovich – Urganch Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** Bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lgan XIX asrning oxiri – XX asr birinchi choragida Xorazmda bosmaxona, nashriyot va matbuot tizimi masalasi atroflicha o'rganilmagan, biroq istiqbolli mavzular qatoriga kiradi. SHu jihatdan olganda mazkur maqola Xorazm tarixining dolzarb muammolaridan biriga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Rahimxon I, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Ibrohim Sulton, Otajon Abdolov, Abdulla Boltaev.

**Аннотация:** Вопрос о типографии, издательстве и системе печати в Хорезме в конце XIX - первой четверти XX века, являющийся сегодня одним из актуальных научных направлений, является одним из недостаточно изученных, но перспективных. темы. С этой точки зрения данная статья посвящена одной из актуальных проблем истории Хорезма.

**Ключевые слова:** Мухаммад Рахимхан I, Мунис, Огахи, Баяни, Ибрагим Султан, Отаджон Абдолов, Абдулла Болтаев.

**Abstract:** The issue of printing, publishing and the printing system in Khorezm at the end of the 19th - first quarter of the 20th century, which is one of the current scientific directions today, is one of the insufficiently studied, but promising. Topics. From this point of view, this article is devoted to one of the pressing problems in the history of Khorezm.

**Keywords:** Muhammad Rahimkhan I, Munis, Ogahi, Bayani, Ibrahim Sultan, Otajon Abdolov, Abdulla Boltaev.

O'rta Osiyo matbaachilik tarixiga nazar tashlasak, XX asr boshlariga kelib O'rta Osiyo hududida 90 ta matbaa mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin.

Ko'rilayotgan davrda Xiva xonligidagi ikki matbaa faoliyati o'rganildi. Birinchi matbaa Muhammad Rahimxon II Feruz davrida tashkil etilgan va u «Podshohi zamon tipolitografiyasi» deb nomlangan[1].

Tadqiqotchi F. Ernazarov ma'lumotiga qaraganda, toshbosma dastgohi Feruz tomonidan Jenevadan Xivaga olib keltirilgan ekan. Xiva shahrida toshbosmaning

[1] Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз – шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б.103.

ishga tushirilishi bilan kitoblarni chop qilish ishlari jonlanib ketgan, mumtoz adabiyot, tarixning o'lmas namunalarini ko'p nusxada chop etish imkoniyati tug'ilgan.

Vohadagi ikkinchi bosmaxona Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l)dagi S.V.Novikov matbaasidir. Bu matbaa ham o'zining tuzilishi va chop etgan mahsulotlari bilan boshqa kichik vaqtli matbuot bosmaxonalaridan farq qilmagan[2]. O'rta Osiyo tarixidagi yagona matbaa Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida tashkil etilgan «Podshohi zamon tipolitografiya»sidagi nashr jarayoniga to'xtalsak, nashr uchun tayyorlangan asar matni dastlab eski o'zbek yozuvida qo'lda qog'ozga tushunarli qilib ko'chirilgan. Bu o'rinda xattotlar mehnati va hissasini aytib o'tish joiz. Toshbosma nashriga tayyorlangan qo'lyozmalarning har biri bilan hattot yaqindan tanishib, mazmunini o'qib chiqqachgina asar nashrga tavsiya etilgan. Keyin esa matn maxsus tashqolipga ko'chirilgan. Toshqolip bilan 500-600 nusxagacha kitob bosish mumkin bo'lgan. Toshbosma nashr qo'lyozmaga nisbatan bir necha barobar ko'proq qo'lyozma tarqalishini ta'minlagan[3]. SHarq adabiyoti matnshunosligidagi bosh maqsad, matnni muallif yaratgan ko'rinishiga iloji boricha yaqin holatda nashr etishdan iborat bo'lgan[4].

Qo'lyozma asar kotib va xattotlar tomonidan qo'lyozma shaklida ko'paytirilib borilishi asarlarning mazmun va shaklida o'zgarish yasagan.

Tadqiqotchi A.Erkinov qo'lyozmalarni nashr qilish xususiyatiga ko'ra 4 turga ajratgan. Bular asliyat matnidan nusxa ko'chirilgan nashr, asliyat xatini saqlagan nashr,transkriptsion nashr, transliteratsion nashrlardir. Qo'lyozmalar tahlil qilinganda, bizgacha yetib kelgan nashrlarning ko'pchiligi asliyat xatini saqlagan nashrligi ko'riladi.

A.N.Samoylovich shohidlik berishicha, toshbosma 1908 yilda Tozabog'ga Muhammad Rahimxonning dala hovlisiga ko'chirilgan. Unga shu davrda Xudaybergan muhrkan rahbarlik qilgan[5]. Toshbosmada dastlab Navoiyning «Xamsa»si, Munisning «Devoni Munis», Ogahiyning «Devoni Ogahiy», Feruzning «Devoni Feruz»i, shuningdek, Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ahmadjon Tabibiy, Muhammadrasul Mirzo kabi iqtidorli shoirlarning devonlari va bayozlari chop etilgan[6].

---

[2] Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан.– Б.114.

[3] Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. –Т., 1997. – Б.33.

[4] Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. – Т., 1997.– Б.31.

[5] Болтаев А. Биринчи матбаачимиз // Хоразм ҳақиқати. 1965 йил, 10 феврал.

[6] Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон. 1997.– Б. 97.

Hozirgi kunda O'zbekiston FA SHarqshunoslik instituti jamg'armasida saqlanayotgan Xiva matbaasiga oid kitoblarning aksariyati devonlardan iborat bo'lib,ular Alisher Navoiy, Munis Xorazmiy, Muhammad Rojiy hamda XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida ijod qilgan Xiva shoirlarining devonlaridir. Navoiyning «Xamsa», «Xazoyin ul-maoniy» asarlari Muhammadrasul Mirzaboshi tahriri ostida nashr etilgan. Ushbu xazinada saqlanayotgan Xivada nashr etilgan asarlarning eng birinchisi, 1874 yilda nashr etilgan «Devoni Munis» kitobidir. Tadqiqot jarayonida Xivada nashr qilingan toshbosma kitoblarni o'rgangan holda birinchi bosma nashr «Devoni Munis» kitobi Xiva toshbosmasining, O'rta Osiyodagi birinchi matbaaning ilk mahsuli deb hisobladik. Ushbu asarning ikkinchi nashri 1876 yil, 1879 yilda uchinchi marta nashr qilingan. Kitob o'zbek tilida yozilgan bo'lib, 668 betdan iborat. Bu asar Xiva xoni kutubxonasida saqlangan.

Kitobat ishining takomili natijasida o'zbek tilida toshbosmada nashr qilingan birinchi asar «Munis devoni»ning dovrug'i Yevropagacha yetib bordi. Yaqin SHarq ma'lumotlarini e'lon qiluvchi Vena jurnalida yirik sharqshunos-turkshunos olim Arminiy Vamberi bu haqda shunday yozgan: «O'rta Osiyo litografiyasi mahsuloti bo'lmish «Munis devoni» nihoyatda sodda nashr bo'lib, 1874 yili Xivada nashrdan chiqarilgan edi»[7]. SHu muallifning o'zi birinchi bo'lib ushbu devondan ba'zi parchalarni o'zbek tilidan nemis tiliga o'girganini matbuotda e'lon qilgan[8].

1908 yil Xiva xonligida bo'lgan sharqshunos olim A.N.Samoylovich xon va saroyning madaniyat ishlari mutasaddi vakillari bilan uchrashganini, Arqdagi va Tozabog'dagi xonning kutubxonalaridagi ajoyib kitob va qo'lyozmalar bilan yaqindan tanishib chiqqanini alohida ta'kidlaydi[9]. A.N.Samoylovich ma'lumotiga ko'ra, xonning Tozabog'dagi kutubxonasida 200 ga yaqin qo'lyozma hamda Turkiston, Qozon, Usmonli turk, fors, hind nashrlariga oid ko'plab kitoblar mavjud bo'lgan[10]. Bundan bilish mumkinki, xon kutubxonasida nafaqat Xiva litografiyasi nashrlari, balki boshqa xorij litografiya nashrlari ham joy olgan.

Muhammad Rahimxon II Feruz tashabbusi bilan saroy kutubxonasida saqlanayotgan nodir qo'lyozma asarlarni kitob shaklida nashr qilish maqsadida 1874

---

[7] Wambery A. Zwei moderne centralasiatische Dicher, Munis und Emir. // Wiener Zeitschrift fur die kunde des Morgenlandes. -Bd VI. 1892. – P.198.
[8] O'sha joyda: – Б.273-291.
[9] Ахунджанов Э.А. К истории разветия книжного дела в Хиве // Общественного науки в Узбекистане. №7-8. – Тошкент, 1997. – С.100-103.

[10] Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературы. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня // Изв. АН Туркм. ССР. Сер. обществ. наук. №1. – Ашхабад, 1981. – С. 74 – 79.

yili Erondan litografiya anjomlari Xivaga olib kelindi. Eronlik maxsus matbaachi Ibrohim Sulton o'z ishining mutaxassisi sifatida litografiyada dastlabki ishlarni amalga oshirishga kirishgan va toshbosmada ilk bor matbaachilik qildi, bu sho'baning boshlig'i qilib saroy shoiri Tabibiy tayinlangan[11].

Ibrohim Sulton yangi tashkil etilgan toshbosmada bitta o'zi ishlashga qiyinchilik sezgach, Otajon Abdalovni shogirdlikka oladi. Dastlab, toshbosmada ba'zi bir qog'ozlar, hujjatlar chop etila boshlanadi. Ibrohim Sulton bilan tuzilgan shartnoma muddati tugagach, u Eronga jo'nab ketdi va xonlik toshbosmasidagi barcha ishlar va bu ish ma'suliyati Otajon Abdalov zimmasiga yuklatildi. Otajon Abdalov bu ishning davomchisi sifatida xonlik kutubxonasidagi nodir kitoblarni mustaqil ravishda nashr qilishga kirishdi[12].

Xiva toshbosmasida nashr qilingan kitoblar xalq ommasi orasida keng tarqalib, aholining madaniy-ma'rifiy o'sishiga shu asarlardan ilhomlanib ijod ahli yangi asarlar yaratishiga olim va adiblarning yetishib chiqishiga turtki bo'ldi va bu asarlar talon-taroj qilingan xon kutubxonasini qayta to'ldirdi.

**FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:**

1. Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон. 1997. – 144 б.
2. Ахунджанов Э.А. К истории разветия книжного дела в Хиве // Общественного науки в Узбекистане. №7-8. – Тошкент, 1997. – С.100-103.
3. Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 196 б.
4. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз – шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 130 б.
5. Маҳмудова Р. Хива литографик матбаасида босилган асарлар // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 5. – Тошкент, 1967. – Б.43-45.
6. Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературы. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня // Изв. АН Туркм. ССР. Сер. обществ. наук. №1. – Ашхабад, 1981. – С. 74 – 82.
7. Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. – Т., 1997.– 44 б.
8. Wambery A. Zwei moderne centralasiatische Dicher, Munis und Emir. // Wiener Zeitschrift fur die kunde des Morgenlandes. -Bd VI. 1892. – P.198.

[11] Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Б. 97.
[12] Маҳмудова Р. Хива литографик матбаасида босилган асарлар // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 5. – Тошкент, 1967. – Б.43-45.

PSSIR TUR PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# ТИЖОРАТ БАНКЛАРДА РИСКЛАРНИ БОШҚАРИШНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Б.Алимов**
АТ "Халқ банки" Ички аудит
департаменти директори

Ҳозирда банк тизими иқтисодиётнинг энг муҳим таркибий қисмларидан бири ҳисобланиб, молиявий барқарорлик ва иқтисодий ўсишни таъминлашда катта аҳамият касб этади. Жаҳон молиявий бозорларининг динамик ривожланиши, рақамли технологияларнинг жадал тараққий этиши ва бизнес жараёнларининг автоматлаштирилиши банк тизими олдига янги имкониятлар билан бир қаторда жиддий хатарларни ҳам юзага келтирмоқда. Шу сабабли, тижорат банкларида рискларни бошқариш жараёнини рақамлаштириш долзарб илмий ва амалий муаммолардан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда рақамлаштириш жараёни банк рискларини аниқлаш, баҳолаш ва бошқаришда самарадорликни оширишга хизмат қилмоқда. Жумладан, сунъий интеллект, машинали ўрганиш, блокчейн ва катта маълумотлар таҳлили каби рақамли технологиялар банклар томонидан таваккалчиликни баҳолаш ва камайтиришда фаол қўлланилмоқда. Шунингдек, автоматлаштирилган тизимлар банк операцияларини тезлаштириш ва инсон омили таъсирини камайтириш орқали рискларни минималлаштириш имконини беради.

Бугунги кунда рақамли технологиялар иқтисодиётимизнинг барча тармоқларига жадал кириб бормоқда. Электрон тижоратнинг ривожланиши, турли тўлов хизматларини етказиб берувчилар ўртасида рақобат муҳитининг шаклланиши ва кучайиши, чакана тўловлар бўйича транзакцион харажатларнинг қисқариб бориши, шунингдек, тўловларни амалга оширишда молиявий институтларнинг воситачиликни талаб этмайдиган инновацион ва жозибадор тўлов воситаларининг жорий қилинишини тақозо этмоқда.

Бугунги кунда анъанавий банк хизмат турларининг ўрнини рақамли банкинг хизмат турлари эгалламоқда. Чунки банклар хизмат турларини такомиллаштириб бормас экан, улар даромадини ва мижозлар сонини кескин ошириб бориш имкониятидан маҳрум бўлиши мумкин.

Молиявий хизматлар саноатининг ривожланиши боис жадаллашмоқда. Биз юқорида муҳокама қилган FinTech тенденциялари мижозлар талабига жавобан пайдо бўлди. Улар аслида провайдерларга молиявий маълумотлардан фойдаланиш имкониятларини ошириш, шаффофликни ошириш, транзакцияларни тезкор қайта ишлаш, масофадан хизматларни кўрсатиш, идентификация қилишнинг ишончли усуллари ва мижоз ҳаётининг айланиш жараёнини яхшироқ қўллабқувватлашга имкон берадиган янада сифатли хизматларни тақдим этишга ёрдам беради.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-5992-сонли фармонида банк хизмати кўрсатишни модернизация қилиш, банкларнинг самарали инфратузилмасини яратиш ва фаолиятини автоматлаштириш, шунингдек, банклар фаолиятига хос бўлмаган функцияларни босқичма-босқич бекор қилиш орқали банк тизимининг самарадорлигини ошириш, давлат улуши мавжуд тижорат банкларини комплекс трансформация қилиш, банк ишининг замонавий стандартларини, ахборот технологиялари ва дастурий маҳсулотларни жорий этиш, аҳоли ва кичик бизнес учун масофавий хизматларни кенг жорий қилиш, кам харажатли хизмат кўрсатиш нуқталари тармоғини ривожлантириш, шунингдек, республика ягона молия тизимининг ўзаро тўлдирувчи қисми сифатида нобанк кредит ташкилотларининг шаклланиши ва ривожланиши учун қулай шартшароитлар яратиш орқали молиявий хизматлар оммабоплигини ва сифатини ошириш учун 2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегиясини ишлаб чиқиш белгиланди[1].

Айни пайтда ривожланган давлатларда банк хизматларини кўрсатиш масофадан ва онлайн тарзда замонавий банк технологиялар имкониятларидан кенг фойдаланган ҳолда амалга оширилмоқда. Мамлакатимиз банк тизимида ҳам банк хизматларни масофадан кўрсатиш ва рақамли банк хизматларга айланиб, замон талабларига мос равишда ортиб бормоқда. Тижорат банклари учун янги банк маҳсулотлари ва хизматлари иқтисодий ўсишни ва рақобатбардошликни таъминлашда муҳим восита ҳисобланади.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-5992-сонли фармони.

Хусусан, банк хизматларининг рақамлашуви ва масофадан ташкил этилиши натижасида, хизматларни амалга ошириш билан боғлиқ турли рискларнинг пайдо бўлишига олиб келади[2]. Ҳар бир давлатда банкларнинг фаолиятида албатта рисклар мавжуд бўлиб Ўзбекистонда ҳам банклар учун етарлича рисклар мавжуд. Уларнинг келиб чиқиш сабаблари билан пухта ўрганилиб ечим топиш муаммони осонроқ ҳал қилишга ёрдам беради. Банк тизимининг хавфсиз ва ишончли бўлишида банк рисклари мониторингининг ўрни жуда катта(1-расм).

Бу рискларни бошқаришдан олдин банкларнинг масофавий хизматларининг аҳамияти мижозларга тўлиқ етказилмаётганлиги, вилоят, шаҳар марказларидан узоқ ҳудудларда инфраструктуранинг етарлича ривожланмаганлиги, аҳолининг масофавий банк хизматлари соҳасидаги билими етишмаслиги каби салбий омилларни бартараф этиш лозим. Шундай экан ушбу соҳани ривожлантириш мақсадида тадқиқотлар ўтказиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолаверади.

[2] Kitsios F., Giatsidis I., Kamariotou M. Digital transformation and strategy in the banking sector: Evaluating the acceptance rate of e-services //Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2021. – Т. 7. – №. 3. – С. 204.




**1-расм. Банк тизимининг ишончлилиги ва барқарорлигини таъминлашда банк рисклари мониторингининг рўли ва ўрни.**

Хавфсизлик риски бу фирибгарлик ёки хакерларнинг электрон банкларнинг хавфсизлигига тажовуз қилиш сабабли мумкин бўлган йўқотишдир. 1960-йиллардан бошлаб тадқиқотларда истеъмолчиларнинг хаттиҳаракатларини тушунтириш учун қабул қилинган риск назарияси тушунчаси фанга киритилди. “Риск бу онлайн банк фойдаланувчиси томонидан онлайн режимида фаолиятидаги зарарни субъектив равишда аниқлаш” деб таърифлаган[3] (Lee, 2009).

Featherman ва Pavlou таваккалчиликни “таъқиб қилишда йўқотиш эҳтимоли” электрон хизматдан фойдаланишнинг исталган натижаси деб таърифлашган[4]. Мижозлар транзакцияда қанча кўп пул қатнашган бўлса,

[3] Lee, (2009) Factors influencing the adoption of internet banking: An integration of tam and Tpb with perceived risk and perceived benefit. Electronic Commerce Research and Applications, 8 (3), pp. 130-141.

[4] Featherman, Pavlou (2003) Predicting E-services adoption: A perceived risk facets perspective International Journal of Human-Computer Studies, 59 (4) (2003), pp. 451-474

шунчалик катта хавф туғдиради. Бу ҳолда улар ўзлари тахмин қиладиган хавфини оширадилар ва электрон банкларга бўлган ишончни пасайтирадилар[5]. Бундан ташқари, он-лайн-банкдан фойдаланиш ниятига, асосан, хавфсизлик риски ҳамда молиявий риск салбий таъсир қилади.

Ўзбекистон Республикасининг "Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида"ги қонунининг қабул қилиниши электрон пуллар муомаласини, жумладан, электрон пулларни чиқариш, фойдаланиш ва уларни қоплаш бўйича амалга ошириладиган фаолиятнинг ҳуқуқий асосини яратиб берди.

Мазкур ҳужжат жаҳон тажрибасига таянган ҳолда, электрон пуллар тизими фаолиятини ташкил этиш, электрон пуллар муомаласи, электрон пуллар тизимида рискларни бошқариш ҳамда тизимда хавфсизликни таъминлаш мақсадида ишлаб чиқилди.

Шунга кўра, эмитент, оператор, электрон пуллар тизимининг агенти, электрон пуллар эгаси, шунингдек, эмитент билан шартнома тузган банклар, тўлов ташкилотлари, якка тартибдаги тадбиркорлар ва (ёки) юридик шахслар электрон пуллар тизимининг субъектлари саналади (2-расм). Бунда электрон пуллар тизимининг ишлашини таъминлайдиган банк ва (ёки) тегишли лицензияга эга бўлган тўлов ташкилоти – электрон пуллар тизимининг операторидир. Эмитент ёки эмитент бўлмаган бошқа банк оператор билан тузилган шартнома асосида электрон пуллар тизимининг ҳисоб-китоб банки сифатида фаолият юритиши мумкин.

[5] Yang et al. (2015) Exploring consumer perceived risk and trust for online payments: An empirical study in China's younger generation computers in Human Behavior, 50, pp. 9-24




**2-расм. Электрон пул тизими субъектлари**[6].

Таъкидлаш жоизки, эмитент ўз фаолиятини бошлаши учун, энг аввало, электрон пулларни чиқариши ва реализация қилиши тўғрисида Марказий банкка белгиланган шаклдаги хабарнома ва унга илова сифатида оператор билан тузилган шартнома ҳамда электрон пуллар тизими субъектлари билан тузиладиган шартномалар намуналарини юбориши зарур.

Мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан электрон пуллар тизимида транзакцияларни оператор томонидан электрон пуллар тизими қоидаларига мувофиқ амалга оширилиши белгиланган. Ушбу қоидалар оператор ва эмитент ўртасида тузилган шартномага асосан тасдиқланади. Кўп эмитентли электрон пуллар тизимида эса ушбу қоидалар ҳар бир эмитент билан келишилган бўлиши талаб этилади.

Эмитент ва оператор электрон пуллар тизимида фирибгарликни ҳамда жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришни, терроризмни молиялаштиришни ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришни аниқлаш, шунингдек уларнинг олдини олиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг «Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин

[6]https://cbu.uz/oz/press_center/news/268736/

қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғрисида»ги қонуни талабларига мувофиқ ташкилий ҳамда тартиб-таомилга оид чора-тадбирларни таъминлаш ва жорий этиш чораларини кўради.

Электрон пуллар тизимида тизимдан фойдаланиш қоидалари ва электрон пуллар тизими субъектлари ўртасида тузилган шартномалар асосида ман этилган тўловлардан ҳимояланади.

Бунда, электрон пуллар тизимининг дастурийтехник воситалари ва электрон ҳамёнларига рухсатсиз киришнинг олдини олиш воситалари ва чоралари, шунингдек ташкилий чоралар ахборотни етарли даражада муҳофаза қилиш борасида эҳтиёт чораларни таъминлаш талаб этилади.

Электрон пуллар тизимида қўлланиладиган ахборот хавфсизлиги ва муҳофазасининг тартибтаомиллари, электрон пуллар муомаласининг барча босқичларида ахборотнинг узлуксиз муҳофазасини таъминланиши шарт, шу жумладан:

– электрон пуллар эгасининг электрон пуллар билан операцияларни амалга ошириш учун ҳуқуқларини аниқлаш;




3-расм. Банк ва мижозларига қаратилган энг кенг тарқалган кибертаҳдид турлари[7].

– электрон пуллар билан операцияларни амалга оширишда аниқланган инцидентларнинг сабабларини аниқлаш;

– ахборотдан рухсатсиз фойдаланишдан ҳимоялаш ва ахборотнинг яхлитлигини таъминлаш кабилар.

[7] https://cybersecure.uk.com/biggest-risks-of-onlinebanking-and-how-to-avoid-them/ маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Эмитент ва оператор ўртасидаги шартномага мувофиқ эмитент ёки оператор электрон пуллар эгаларининг электрон ҳамёнларидаги электрон пуллар қолдиғи ва улар томонидан амалга оширилган операцияларга доир ахборот ҳисобини юритади.

Оператор электрон ҳамёнлардан фойдаланган ҳолда амалга оширилган барча операцияларнинг рўйхатга олинишини, операциялар тўғрисида статистик ва ахборот тарзидаги ҳисоботларнинг шакллантирилишини ва операциялар тўғрисидаги маълумотларни улар шакллантирилган, жўнатилган ёки қабул қилинган форматида, яхлитлиги ва ўзгармаслигига амал қилган ҳолда беш йилдан кам бўлмаган муддатда сақланишини таъминлайди.

Электрон пуллар тизимида рискларни бошқариш қуйидагиларнинг мавжудлигига асосланган бўлиши лозим:

● тизим ишининг ички назорати ва аудити тартиб-таомиллари, тизимнинг ишлаши ва транзакциялар тўғрисида маълумотларни сақлаш;

● ҳар бир транзакция бўйича маълумотларни ўз вақтида қайта ишлаш, ҳисобга олиш ва ахборотни сақлаш, тизимда маълумотларни ҳимоя қилиш ва сақлашни таъминловчи ахборот тизими;

● малакали ходимларнинг мавжудлиги[8].

Банк тизимининг рақамлашуви, пул маблағларининг рақамларда сақланиши ва тўлов тизими онлайн амалга оширилиши жараёнида энг хатарли иш улар билан боғлиқ жуда хатарли рискларнинг мавжудлигидир.

Бу ҳақида Буюк Британиянинг TESCO Bank банки 40 мингга яқин мижозлари орасида тез-тез фирибгарлик операциялари содир бўлаётганини қайд этди ва зудлик онлайн тўловлар тизимини тўхтатди. Банк ижрочи деректори айтишича, “Банк “тизимли мураккаб ҳужум”га учраган, бу “ҳужум”ни аниқ билар эдик, лекин қўшимча маълумотларни ошкор этаолмайман чунки бу терговнинг бир қисми” дея таъкидлаган[9].

Бу ерда банк мижозлари ва банкларнинг ўзига қаратилган энг кенг тарқалган кибертаҳдидларни келтирамиз:

– очиқ мобил банк дастурлари;

– агрессив банк зарарли дастурлари; – тўхтатиб бўлмайдиган DDoS ҳужумлари.

---

[8] Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқарувининг 2020 йил 15 февралдаги 13/3-сон қарори иловаси “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида электрон пулларнинг чиқарилиши ва муомалада бўлиши” қоидалари

[9]https://cybersecure.uk.com/biggest-risks-of-onlinebanking-and-how-to-avoid-them/

Очиқ мобил банк дастурлари. 2015 йилда Android дастури билан ишлайдиган энг яхши 100 та мобил банк дастурларининг 70 фоизга яқинида хавфсизлик чоралари яхши йўлга қўйилган ва маълумотлар тарқалишига қарши бўлган. Кўплаб ҳолларда, хавфсизликнинг заиф томонлари кўриниб қолар эди, масалан, қасддан алдаш, маълумотларнинг ноаниқ тарқалиши, SQL инъек цияси, JavaScript инъекцияси ва XML инъекцияси ва бошқалар.

Яхшиямки, аксарият банклар қўшимча хавфсизлик чораларини қўллашди, масалан, электрон белгилар, бир марталик пароллар ва Андроид телефонларига юборилган ноёб кодлар ёрдамида икки факторли аутентификация. Шунга қарамай, кибержиноятчилар ушбу чораларни четлаб ўтишга қодир воситалар ва зарарли дастурларни ишлаб чиқишда тезда ечимлар топдилар.

Тижорат банкларида рискларни бошқаришни рақамлаштириш бугунги кунда молиявий барқарорлик ва самарадорликни таъминлашда муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Ушбу тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, рақамли технологиялардан фойдаланиш банк рискларини аниқлаш, баҳолаш ва минималлаштириш жараёнларини яхшилашга хизмат қилади. Сунъий интеллект, машинали ўрганиш, блокчейн ва катта маълумотлар таҳлили каби инновацион ёндашувлар банк рискларини бошқариш самарадорлигини ошириш имконини беради.

Тадқиқот давомида рискларни бошқаришнинг анъанавий ва рақамли усуллари ўзаро солиштирилди ва уларнинг устунликлари ҳамда камчиликлари аниқлаб берилди. Шунингдек, рақамлаштириш жараёни банк операцияларини автоматлаштириш, шаффофликни ошириш ва инсон омилини камайтириш орқали рискларни пасайтиришда муҳим аҳамият касб этади.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-5992-сонли Фармони.

2. Мамадияров Зокир Тоштемирович Банкларни трансформация қилиш шароитида масофавий банк хизматлари билан боғлиқ рискларни бошқариш // Экономика и финансы (Узбекистан). 2021. №5 (141).

3. Умарова М. Ўзбекистонда рақамли банк хизматларини такомиллаштириш йўллари //Economics and education. – 2021. – №. 2. – С. 74-78.

4. Мамадияров З. Т. Банкларни трансформация қилиш шароитида масофавий банк хизматлари билан боғлиқ рискларни бошқариш //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 5 (141). – С. 12-21.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# Biofeedback therapy using the Anika computer glove in the rehabilitation of patients with impaired motor function after a stroke

**Sharipov F.R.**
**Tashkent Pediatric Medical Institute**

Research goal. To study the effectiveness of biofeedback therapy using the Anika computer gloves in patients with impaired motor function after a stroke.

Materials and research methods. During the study, rehabilitation measures were carried out in 41 patients aged 45-70 years with ischemic stroke and functional disorders in the range of motion. In the first group of 13 (31%) patients underwent traditional rehabilitation (physiotherapy, kinesiomassage, ergotherapy). Traditional rehabilitation and the anika gloves recovery method were used in 28 (68%) patients of the second group.

Results. In both groups, 3 rehabilitation courses were carried out over 3 months .The durations of each rehabilitation course is 10 days. As a result, in the 1st group, the activity of the hands increased by 30-40% due to a decrease of muscle tone in the hands and muscle strength increased from 1-2 points to 2-3 points. In the second group, the activity of the hands increased by 45-60% due to a decrease of muscle tone and muscle strength increased from 1-2 points to 3-4 points (P≤0.09). There was an increase in the activation of movements in the fingers of the hands.

Biofeedback therapy using devices like the Anika computer glove has gained attention in the rehabilitation of patients with impaired motor function after a stroke. The goal of biofeedback therapy is to help individuals learn to control physiological processes such as muscle activity, which can lead to improved motor control and recovery of function.

## Overview of Biofeedback Therapy

Biofeedback therapy involves using real-time data from sensors that measure various physiological functions, such as muscle tension, heart rate, or skin temperature. These sensors feed the information back to the patient, allowing them to see and feel their own physiological responses. Over time, this helps patients learn to consciously control these functions, thereby improving movement, strength, and coordination.

**Anika Computer Glove in Rehabilitation**

The Anika computer glove is a specialized device designed for rehabilitation purposes, specifically in patients who have lost motor control in their hands and fingers, often due to a stroke. It is equipped with sensors that monitor and provide feedback on the movements of the hand and fingers, which can be used to enhance motor recovery.

Here's how it generally works:

1. **Sensors and Data Collection**: The glove contains sensors that measure muscle activity, joint angles, and hand/finger movement.
2. **Real-Time Feedback**: As the patient performs rehabilitation exercises, the glove provides immediate feedback on the quality and accuracy of their movements, often through visual, auditory, or tactile cues.
3. **Training the Brain**: This feedback helps the patient understand how their muscles are moving and allows them to make adjustments to improve coordination and strength. Over time, with consistent use, the brain and nervous system can re-establish neural connections and pathways that were impaired by the stroke.
4. **Motor Learning**: The process of receiving feedback during the exercises helps to promote motor learning. The more accurate and controlled the movement, the more likely it is that patients will recover or improve their motor function.

**Benefits for Stroke Rehabilitation**

1. **Improved Motor Control**: By using biofeedback to retrain the brain and muscles, stroke patients can improve their ability to move their hand and fingers with more precision and strength.
2. **Neuroplasticity**: Regular use of biofeedback therapy encourages neuroplasticity, the brain's ability to reorganize itself by forming new neural connections. This is particularly important after a stroke, when certain brain areas are damaged.
3. **Personalized Therapy**: Biofeedback provides individualized feedback based on the patient's specific needs and abilities. This allows

therapists to tailor rehabilitation exercises that target the most critical impairments.

4. **Motivation and Engagement**: The interactive nature of biofeedback therapy can increase patient motivation by providing clear goals and progress tracking. This can lead to greater adherence to the rehabilitation program.

**Potential Limitations**

While the Anika computer glove and biofeedback therapy can be very effective, there are potential limitations:

- **Accessibility**: Devices like the Anika glove may be costly, and their availability may be limited in some rehabilitation centers.
- **Patient Readiness**: Some patients may find it challenging to engage with technology, especially older adults or those with cognitive impairments.
- **Duration of Therapy**: Significant improvement might require extended periods of therapy and regular use of the device, which can be a barrier for some patients.

**Conclusion**.

1) Rehabilitation measures have shown that the use of Anika computer gloves method with the traditional rehabilitation method increases the effectiveness of treatment and in a short time has a positive effect on fine movements of the fingers.

2) In the comprehensive rehabilitation of patients with stroke, it is recommended to use the Anika computer gloves in order to restore fine motor skills of the hand.

In conclusion, biofeedback therapy using devices like the Anika computer glove offers a promising approach to stroke rehabilitation, helping patients regain motor function and improve their quality of life. It combines technology with neuroscience principles, providing a powerful tool in the recovery process.

PSSIR TUR PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# Qo'g'a turkumi (Typha L) o'simliklarining tur tarkibi,bioekologiyasi va ahamiyati (Xorazm viloyati sharoitida)

**G'afurova O'g`iloy Ildus Qizi**- UrDU,Biologiya yo'nalishi talabasi.

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitidagi suv havzalarida tabiiy holda uchraydigan Qo'g'a turkumi o`simliklarining tur tarkibi bioekologiyasi va ahamiyati haqida ma`lumotlar berilgan.Viloyat sharoitida Qo'g'a turkumiga kiruvchi o`simliklarning Kengbarg qo'g'a- T.latifolia L, Laksman qo'g'asi – T.laxmannii Lepech, ,- T.minima Funk, Nozik qo'g'a- T.angustata Bory et Chaub turlari aniqlanganligi qayd qilingan.

**Kalit so'zlar:** kengbarg qo'g'a, , Laksman qo'g'asi, mayda bargli qo'g'a, nozik qo'g'a, qo'g'a tugunagi, patak ildiz, lo'x.

Abstract. This article provides information on the bioecology and importance of the species composition of plants of the Koga family found naturally in the water bodies of the Khorezm region. In the conditions of the region, the Kengbarg goga - T. latifolia L, Laxman goga - T. laxmannii Lepech, , - T. minima Funk, Nozik goga - T. angustata Bory et Chaub of the plants belonging to the Goga family. It is noted that the species have been identified.

**Key words**: broadleaf sedge, , Laxman sedge, small-leaved sedge, fine sedge, sedge nodule, patak root, loh.

**Абстрактный.** В статье представлены сведения о биоэкологии и значении видового состава растений семейства Кога, встречающихся в природе в водоемах Хорезмской области. В условиях региона из растений семейства Гога - Кенгбарг гога - T. latifolia L, Лаксман гога - T. laxmannii Lepech, - T. minima Funk, Нозик гога - T. angustata Bory et Chaub. Отмечается, что вид идентифицирован.

**Ключевые слова:** осока широколистная, осока Лаксмана, осока мелколистная, осока мелкая, клубеньок осоки, корень патака, лох.

**Kirish.**Yovvoyi suv o'simliklari bir tomondan yuqori ozuqa manbai hisoblansa, ikkinchi tomondan o'zi yashayotgan muhitda ya'ni ko'llar, suv havzalari, hovuzlar, kallektorlar va zaxkashlar tabiiy iqlim muhitini bir me'yorda tutib turish ya'ni ekologik muvozanatni saqlab turishda katta ahamiyatga egadir.Yovvoyi suv o'simliklari nihoyatda serhosil bo'lib, o'zi juda ko'p miqdorda ozuqa elementlarini to'playdi.Bundan tashqari suv va suv atrofidagi turli xil umurtqali va umurtqasiz hayvonlar uchun ozuqa manbai hamda yashash va

ko'payish uchun makon bo'lib xizmat qiladi. Juda ko'plab hayvonlar suv o'simliklaridan ko'payish va tuxum qo'yish uchun pana joy sifatida foydalaniladilar.

Mahalliy sharoitda suv havzalaridagi ko'llar va zovurlarda o'sayotgan suv o'simliklarini chuqur ilmiy asosda o'rganish yuqoridagi ko'rsatilgan chorvachilik sohalarini arzon,to'yimli yem-xashak maxsulotlari bilan ta'minlash muammosini hal qila oladi.Shundan kelib chiqqan holda turli xil suv havzalari, ko'llar, hovuzlar kallektor va zovurlardagi suv o'simliklari, jumladan yuksak suv o'simliklarini biologiyasini ko'payishi va rivojlanishini hamda ekologiyasini, ya'ni tarqalish sabablarini har tomonlama  chuqur ilmiy asosda o'rganishni taqozo qiladi. Bu masala mutaxassis olimlar ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar talabalar, fermerlar va keng jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

**Natija va munozara**.. Xorazm viloyati sharoitida Amudaryo va Orol dengiziga bog'liq ravishda katta-katta ko'llar va tabiiy suv havzalari hamda  bir necha yuz kilometrga yetadigan zovurlar shakllangan. Ko'l va tabiiy suv havzalarida  tabiiy ravishda uchraydigan suv o'simliklari  orasida qamish, qo'g'a, kurmak kabi yovvoyi o'simliklar katta maydonlarni egallaydi. Mahalliy aholi bu o'simliklarni  begona o't sifatida juda yaxshi biladi.Shuning uchun ham yillar davomida bu o'simliklarni qishloq xo'jaligida katta-katta maydonlarni egallamasligi uchun kurashib keladi.

Mana shunday  alohida ahamiyatga ega bo'lgan suv o'simliklari tabiiyki, Xorazm  vohasidagi ko'llar va boshqa suv havzarida ham keng tarqalgan. Xorazm viloyati sharoitida juda ko'plab tabiiy ko'llar,suv havzalari ,botqoqliklar ko'pchilikni  tashkil qiladi. Bu yerlarda juda ko'plab yovvoyi suv o'simliklari  o'sib rivojlanadi. Lekin bu o'simliklarning hammasi ham ilmiy jihatdan  to'liq o'rganilgan emas. Shuning uchun bu o'simliklarni o'rganish  insonlar uchun yana ham muhim

**Ahamiyati.**Qo'g'a. O'rta Osiyo suv havzalaridagi xo'jalik uchun  qimmatli o'simlik. Eng avvalo qo'g'a ondatra, suv qushlari va boshqa hayvonlar uchun asosiy ahamiyatga ega.Tana a'zolari tarkibida zararli moddalar bo'lmaydi.asosiylari kraxmal va shakar saqlovchi moddalardir. Ayniqsa ildizpoyasida ko'p kraxmal tutadi.Qo'g'a uni ( ilddizpoyasidan olingan) cho'chqa, shoxli chorva mollari va qushlar uchun ozuqa bo'ladi. Ko'pgina hudularda qo'g'a kartoshka o'rniga cho'chqalar uchun ozuqa hisoblanadi. Yosh novdalari chorva mollari, suv qushlari va baliqlar ( karp) tomonidan iste'mol qilinadi. Ondatra, nutriya, to'ng'izlar ham qo'g'aning novdasi, ildizpoyasi bilan oziqlanadilar.Mevalash davrida quruq novdalarida 8,52% suv, 8,04% kul, 27,14 % kletchtaka 4,28% protein 1,22% yog' va 50,7% azotsiz ekstrakt moddalar tutadi. Qo'g'aning tugunagi kraxmalga juda boy bo'lib, 46 % ni tashkil qiladi. Yashil massaning tarkibida 5 % oqsil, 50,7 %

uglevodlar, 27,1% klechatka, 1,2 % yog',8% mineral moddalar bor.Ayrim tumanlarda qo'g'anining kraxmalli ildizpoyasi qaynatib yoki quruq holda iste'mol qilinadi.yosh poyalari ziravor tayyorlashda ishlatiladi. Xitoyda bu mahsulot bozorda ham sotiladi.ildizpoyasidan spirt haydab olinadi.Qo'g'a uni toza holatda kisel uchun javdar bilan va bug'doy uni bilan non tayyorlashda ishlatiladi.Qo'g'a dorivorlik xususiyatiga ham ega, ildizpoyasining damlamasi xalq tabobatida keng foydalaniladi. Tolalari ( tuklari) dan yara ( jarohat) ga qo'yiladi, yarani bitishini yaxshilaydi.Qo'g'a ildizpoyasidan olingan kraxmal pudra tayyorlashda foydalaniladi. Qo'g'adan tola ham olinadi,bu olingan tola 12%ga teng qo'ga tola ( tuklari) mustahkam bo'lib, uzunligi 600-2000 mk. Bundan shpagat va kanar xalta tayyorlanadi. Qo'g'aning barcha turlari qog'oz olishda ishlatiladi.to'pgulidan kinoplenka olishda , himoya kamarlari, palto ichiga issiq qobiq, alpininstlar uchun Amudaryo suv havzalaridagi tashqi ko'l va boshqa suv havzalarini hisobga olmagan holda qo'g'azorlar maydoni 30-35 ming gektar ni tashkil qiladi. Qo'g'a o'simligi ham ozuqaviy birligi yuqori suv o'simligi hisoblanadi.

**Qo'g'a turkumi (Typha L)** o'simliklari asosan tabiiy suv havzalari ko'l va zovurlarning asosiy suv o'simligi hisoblanadi. Undan tashqari namli tuproqlarda, botqoqliklarda va sholipoyalarda o'sib, rivojlandi.

**Kengbarg qo'g'a- T.latifolia L.**Kengbarg qo'g'aning changchi to'pgullarning eni 1-1,5 sm urug'chi to'pgullarniki 2-2,5 sm, qoramtir-qo'ng'ir.Bo'yi 1-2 metr, poyasining yo'g'onligi 1-1,5 sm.Barglari yassi,keng qalami, eni 1-2 sm. Adir va tog' zonasidagi daryo va ko'l bo'ylarida, soylardagi botqoqlashgan yerlarda o'sadi. Iyun-iyul oylarida gullab urug'laydi.Urug'li va changchi to'pgullari oralig'i 1 sm va undan ham ko'proq. Urug'chi gullari gulyonbarglarsiz. Barglari poyasidan uzunroq,ostki tomoni do'ng.Bu o'simlik lo'x deb ham ataladi.U 0,5-1,2 m chuqurlikdagi chuchuk va uncha sho'r bo'lmagan suv havzalarida keng tarqalgan Namli yerlarda ham o'sadi, lekin tuproqning qurib qolishiga chidamaydi.Bu o'simlikning ingichka bargli turi keng tarqalgan, poyasi va bargining uzunligi 4-5 m bo'ladi, bargi tasmasimon eni 2-2,5 sm. Poyasi uchinchi yili paydo bo'ladi.Yumshoq, silindrsimon, bargidan kalta,poyasining uchi 15-20 sm keladigan tig'iz,qizg'ish-qo'ng'ir boshoq bilan tugallanadi.Qo'g'a tugunak ildizli ko'p yillik o'simlikdir.Uning tugunagida ikki xil ildiz ingichka yuqoriga suvning qatlamiga qarab o'sib, suvda erigan oziq moddalarni o'zlashtirish va o'simlikning nafas olishiga xizmat qiladi,ikkinchi xili yo'g'onroq patak ildiz bo'lib tuproq qatlamiga tarqaladi va o'simlikni tutib turish bilan birga tuproqdan oziq moddalarni o'zlashtirish vazifasini bajaradi.Qo'g'aning tugunagi kraxmalga juda boy bo'lib, 46

% ni tashkil qiladi.Yashil massaning tarkibida 5 % oqsil, 50,7 % uglevodlar, 27,1 % klechatka, 1,2 % yog', 8 % mineral moddalar bor.

**Laksman qo'g'asi – T.laxmannii Lepech.**Urug'chi va changchi to'pgullari 1-4 sm oraliqda joylashgan. Changchi to'pguli ingichka, eni 5 mm,uzunligi 20 sm cha . Urug'chi to'pgulining eni 1-2 mm,uzunligi 8 sm cha . Cho'l zonasida daryo, ko'l bo'ylariga botqoqlashgan yerlarda o'sadi. Iyul-avgustda gullab urug'laydi.Urug'chi gullari gulyonbargchali. Barglari poyasidan kaltaroq yoki unga teng, deyarli yassi bo'yi 1m gacha. Barglari ensiz 1-1,5 mm. Bu o'simlik oddiy qo'g'aga nisbatan kam tarqalgan

**Mayda bargli qo'g'a- T.minima Funk.**Bu o'simlikning urug'chi va changchi to'pgullari 0,5-2 sm oraliqda joylashgan. Changchi to'pgullarning uzunligi 3-7 sm, urug'lariniki 1,5-4,6 sm. Bo'yi 30-100 sm, poyasining yo'g'onligi 4-6 mm. Cho'l zonasida daryo va ko'l bo'ylarida o'sadi. Iyul- avgustda gullab urug'laydi.Bo'yi 1-2 mm barglarining eni 4 mmdan ortiq .To'pguli qoramtir- qo'ng'ir. Gulyonbargcha tumshuqchadan ko'ra kaltaroq. Bu qo'g'aning ahamiyati oddiy qo'g'aga nisbatan yuqori bo'lib,poyasining ozuqaviy tarkibi ko'p bo'lganligi sababli chorvachilikda va yilqichilikda katta ahamiyatga ega.

**Nozik qo'g'a- T.angustata Bory et Chaub.**Bu o'simlikning urg'chi va changchi to'pgullari 2-4 sm oraliqda joylashgan.Changchi to'pgullari 15-20 sm. Urug'chi to'pgullari yetilganda 10-16 sm, kulrang- qo'ng'ir. Cho'l va adir zonasida daryo ,ko'l va ariq bo'ylarida o'sadi. Iyul- avgust oylarida gullab urug'laydi. Nozik qo'g'a Charchali ko'l,Burali ko'l,Divan kol,Oq ko'lda nisbatan ko'proq tarqalgan.Asoson chorvachilikda , baliqchilikda qo'llaniladi.Ko'llarning juda soy joylarida hamda botqoqlik hosil qilgan joylarida ko'p uchraydi.

**Xulosa.** Qo`g`a turkumining xorazm viloyati suv iqlim sharoitida 4 turi aniqlandi. Kuzatishlar Urganch.Yangibozor,Bog`ot tumaniga qarashli tabiiy va su`niy suv havzalari,ko`llar va zaxkashlarda olib borildi.Qo`g`aning boshqa turlariga nisbatan Kengbarg qo'g'a- T.latifolia L. turi keng tarqalganligi aniqlandi.Bu o`simliklarning ozuqaviy va boshqa xususiyatlarini e`tiborga olib, madaniylashtirish ishlarini amalga oshirish tavsiya qilinadi..

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1.B.S.Islomov, M.A.Hasanov Botanika (darslik). Samarqand 2020.

2.O'. Pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, k.Ibodov, V.Mahmudov. Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika). Talim nashriyoti Toshkent-2010.

3. A. Rahimov, S. Rahimova ”Suv o`simliklari- ozuqa manbai”Toshkent O`zbekiston «Fan» 1987.

4.A. Hamidov, M. Nabiyev, T. Odilov O`zbekiston o`simliklari aniqlagichi Toshkent «O`qituvchi» 1987.

PSSIR TUR PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# TEACHING ALGEBRA AS A FACTOR FOR DEVELOPING STUDENTS' THINKING AND PRACTICAL SKILLS

**NavSU Academic Lyceum Computer Science Teacher J.N. Makkamov**
**NavSU Academic Lyceum Mathematics Teacher F.I. Rakhimova**

Algebra is one of the most basic and important branches of mathematics, which studies numbers, variables and their relationships. Teaching algebra not only strengthens mathematical knowledge, but also develops students' analytical and logical thinking skills. The role of algebra in secondary education is very important, because algebra is the entry point to other branches of mathematics. Therefore, information about the goals and objectives of teaching algebra, as well as its main purpose in secondary education, is very important.

## 1. Objectives of teaching algebra

The main objective of teaching algebra is to form algebraic knowledge and skills in students, develop their mathematical thinking, and acquire the skills to apply algebraic methods in practice. It is necessary to give students reliable knowledge in understanding algebraic expressions and formulas, working with them, and solving algebraic equations and inequalities.

The main goals of algebra are (figure 1).




**Figure 1**

• **Teaching algebraic concepts and operations**: To explain algebraic expressions, equations, multiplication, division, and other algebraic operations to students. To teach them the basic elements of algebraic models.

• Develop analytical thinking: Algebra helps students develop analytical thinking, which is useful in choosing different paths and methods when solving problems.

• **Practical application of mathematical methods:** Algebra is often used to solve mathematical problems, for example, in economic problems, technical problems, and other areas. By teaching algebra, students are prepared to solve various practical problems.

• **Increases abstract and logical thinking:** Algebra teaches students to grasp complex concepts and express them clearly and concisely. This helps to form a positive attitude towards mathematics in the future.

**2. Tasks of teaching algebra (figure 2)**




**Figure 2**

In order to effectively teach algebra, along with the objectives, the teacher is required to perform the following tasks:

• **Teach algebraic formulas and expressions:** Teach students algebraic formulas, variables, and mathematical operations. They will develop skills in solving mathematical problems based on algebraic equations and expressions.

• **Develop a logical approach:** Algebra develops students' logical thinking and analytical skills. In solving algebraic problems, it is necessary to use a logical approach to select the main steps and through them to reach a solution.

• **Solving practical problems**: Algebra is used in many practical fields. For example, in economics, computer science, physics, biology, etc. Teaching students how to apply algebraic problems in practice helps to consolidate their knowledge.

• **Systematic learning of new knowledge:** Algebra teachers should teach students new concepts in a step-by-step, systematic manner. It is effective to teach students from basic algebraic concepts to more complex problems.

• **Updating education using developed methodologies:** It is necessary to use new methodologies, technologies and pedagogical approaches to update and improve students' algebraic knowledge. Interactive teaching methods, visual materials and practical exercises play an important role in this process.

**3. The main goal of teaching algebra in secondary educational institutions**

The main goal of algebra in secondary educational institutions is to teach students not only algebraic operations, but also to develop the skills to apply the knowledge acquired with them in everyday life. Algebra is one of the main processes of mental development in students, because this subject increases the students' ability to think logically and analytically.

**The main goals of teaching algebra are as follows:**

• **Developing mathematical thinking:** Algebra helps students develop mathematical thinking. Algebraic problems require logical and systematic thinking, which ensures the intellectual development of students.

• **Application to everyday life:** Studying algebra not only provides students with academic knowledge, but also teaches them to apply this knowledge in practice. For example, algebraic calculations are widely used in economics, technology, and engineering.

• **Creating a foundation for learning new knowledge**: By teaching algebra, students acquire the necessary basic knowledge to later move on to geometry, functions, statistics, and other mathematical sections.

• **Developing problem-solving skills:** Another important goal of teaching algebra is to develop students' mathematical problem-solving skills. Solving algebraic equations teaches students to use a systematic approach.

• **Expanding thinking:** Algebra teaches students to think more broadly. They learn not only to solve mathematical equations, but also to solve various practical problems.

**Conclusion**

Teaching algebra is a key way to develop mathematical thinking and practical skills. The main goal of teaching algebra in secondary schools is to develop analytical and logical thinking, develop practical problem-solving skills, and teach students how to apply algebraic knowledge in everyday life. Algebra is important not only in mathematics, but also in all areas of modern life, such as technology, economics, and engineering. Therefore, the methodology and goals of teaching algebra serve not only to improve academic knowledge, but also to prepare students for practical life.

**LIST OF REFERENCES:**

1. Mal Coad and other. Mathematics for the international student: Mathematical Studies SL second edition (For use IB diploma programme). Haese and Harris Publications 2010.
2. Bill Roberts, Sandy MacKenzie. Mathematics: Higher level for the IB diploma (CD inside). Oxford University Press 2007.
3. Mathematics Syllabus. Pre-University H2 mathematics. Ministry of Education . Cirriculum Planning and Development Division. Singapore. 2015.
4. Abduhamidov A.U., Nasimov X.A. “Algebra va matematik analiz asoslari”. I qism. Akademik litseylar uchun darslik. - T., 2008 y.
5. Сайдаметов Э., АмановА. и др. «Алгебра и основы математического анализа» учебное пособия для академических лицейи. «O’qituvchi», 2012 г.
6. Nasimov X. va boshqalar. Algebra va matemarik analiz asoslaridan masalalar to’plami. - T.: 2004.
7. Mirzaaxmedov M.A., Ismoilov Sh. N, Amanov A.Q. Algebra va analiz asoslari, 10-sinf darslik. T: 2017.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# STRATEGIES FOR MANUFACTURING MEDICAL DEVICES IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS

**Jiyanbayev O.E., Abdullayev I.N.**
Center for the development of professional qualification of medical workers

Manufacturing medical devices is a complex process that necessitates strict adherence to international standards to ensure quality, safety, and reliability. To enhance competitiveness in both national and global markets, manufacturers can adopt several effective strategies.

First and foremost, implementing a robust Quality Management System (QMS) is essential. The ISO 13485 standard provides a comprehensive framework for managing quality. This involves establishing a document control system to ensure that all procedures are current and accessible, monitoring production processes to identify areas for improvement, and conducting regular audits and reviews to facilitate continuous improvement of processes and products.

In addition to a strong QMS, compliance with technical safety requirements, such as those outlined in IEC 60601, is crucial. Manufacturers should adopt risk management practices in line with ISO 14971, which allows for the systematic identification, evaluation, and mitigation of risks throughout the product lifecycle. Thorough testing and validation during various stages of development are necessary to confirm that devices meet safety requirements before market release. Staying informed about local and international regulations is also vital to ensure compliance with all necessary safety criteria.

Navigating the certification process is another critical step for manufacturers. Engaging with recognized Notified Bodies can streamline the certification process and ensure adherence to relevant standards. Preparing for audits through internal assessments helps identify non-compliance issues early, facilitating a smoother certification experience. Additionally, investing in training programs for staff on compliance requirements and quality management practices enhances understanding and implementation across the organization.

Manufacturers may face challenges when implementing international standards. To address these obstacles, financial planning is important; developing a clear budget that outlines the costs associated with implementing standards can effectively manage initial investments. Talent acquisition and ongoing training are also key to building the expertise needed to navigate complex standards. Simplifying

technical processes by breaking down complex requirements into manageable steps can make implementation more feasible and less daunting.

In conclusion, adhering to international standards in the manufacturing of medical devices is not only a regulatory requirement but also a strategic necessity for enhancing product quality, safety, and market competitiveness. By implementing effective quality management systems, meeting technical safety requirements, navigating certification processes, and addressing implementation challenges, manufacturers can position themselves favorably in the global market. As the healthcare landscape evolves, embracing these strategies will be critical for fostering innovation and ensuring the delivery of safe and reliable medical devices to patients worldwide.

**References**

1. CE Marking for Medical Devices \u2013 European Commission Guidelines, 2021.
2. Advances in Quality Management Systems for Medical Device Manufacturing \u2013 Journal of Quality Engineering, 2021.
3. Innovation and Safety in Medical Device Production \u2013 Journal of Medical Technology Research, 2020.
4. Risk Management in Medical Devices \u2013 Insights from ISO 14971 Implementation \u2013 Journal of Healthcare Engineering, 2019.
5. Global Market Trends in Medical Device Certification \u2013 International Trade Report, 2022.
6. Sustainable Manufacturing Practices in Medical Devices \u2013 Journal of Environmental Engineering, 2021.

# ALPOMISH DOSTONIDA XAT MATIVI

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2- kurs talabasi **Boltayeva Iroda**

**Annatatsiya:** Ushbu maqola orqali Barchinoyning Hakimbekka yo'llagan maktubi hamda undan keyin sodir bo'lgan voqealar haqida bayon qilinadi.

**Kalit soz'lar:** Arza, xat matni, choparlar, qalmoq eli, qahramonlik dostoni

Adabiyotlarda yozilgan xatlar yoki maktublar muhim badiiy vositalardan biri bo'lib, ular qahramonlarning his-tuyg'ularini ifodalash, syujetni rivojlantirish va voqealarga chuqur ma'no berish uchun ishlatiladi. Ko'plab xalq dostonlarida xatlar muhim ro'l o'ynaydi. Shuningdek, yirik hajmli ikki qisimdan iborat bo'lgan "Apomish" dostoni IX- X asrlarda yaratilgan bo'lib, Qo'ng'irot urug'i boshliqlari, Alpinbiyning o'g'illari aka- uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi bilan boshlanadi. Doston 1922-yildan folklorshununos olimlar tomonidan xalq baxshilaridan yozib olingan. Ushbu dostonda ham biz muhim hosisaga sabab bo'luvchi xat matnini uchratishiz mumkin. Xat matni – bu yozma shaklda fikr yoki axborotni ifodalovchi matn bo'lib, u turli maqsadlarda yoziladi. "Alpomish – o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimizning avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir"[1]

Xalq dostonlari olimlar tomonidan quyidagi turlarga ajratilgan:

1. Qahramonlik dostonlari.
2. Jangnoma dostonlar.
3. Romantik dostonlar.
4. Tarixiy dostonlar.
5. Kitobiy dostonlar.

"Alpomish" dostoni qahramonlik dostoni hisoblandi. Chunki dostonda Alpomish obrazining qahramonlik mohiyatini chuqur ochib berib, uning mardligi, sevgiga sodiqligi va vatanparvarligi namoyon qilingan. Doston o'zbek xalq dostonchiligining eng sara yodgorligidan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarning bosh qahramonlari Alpomish va Barchinoy bo'lib, ular chaqqonlik, botirlik va jasorat, o'z xalqiga sadoqatlilik singari eng oliyjanob insoniy fazilatlarga ega. Dostonning asosiy voqealari qalmoqlar qo'lida qolgan Barchinoyning Hakimbekka

---

[1] O'zbekiston Respublikasi birinchi prizidenti I. A. Karimovning "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlanagan tantanali marosimida so'zlagan nutqidan

yozgan arzasidan keyin boshlanadi. Arza esa quyidagicha: "Olti oychalik yoʻlga keldim, qalmoqning eliga keldim, zoʻr yovning qoʻlida qoldim, olti oyga muhat oldim, mendan umidi boʻlsa, Alpomish kelsin boʻlmasa javobimni bersin".[2] Barchinoy xatnini tugatib, choparlarga oq yoʻl tilab, duo qilib qoladi. Choparlar toʻqson kecha-kunduz yoʻl yurib qalmoq elida Qoʻngʻirotga Boyboʻrining davlatxonasiga yetib borgach, xatni Boyboʻriga berishadi va xatdagilarni anglab uni bir sandiqqa solib yashirtirib qoʻyadi. Choparlarga ham bundan hech kim habar topmasligi kerakligini agar kimdir habar topsa dorga torttiraman deb aytadi. Ular ham "Sira ogʻzimizdan chiqarmaymiz" – deb, yoʻlga kirdi. "Xoʻp gapirdi, xohi bor, xohi borma, bizdan bir xizmat-da, bizning borgan-bormagani bilan nima ishimiz bor, ketsa, sening kelining ketadi, qalmoq olsa, sening iningning qizini oladi, bizdan ketadigani bir yoʻl xizmatimiz-da"[3] – deb yoʻlga tushishadi. Dostonda Alpomishning Qaldirgʻoch ismli singlisi ham boʻlib, u bir kuni kanizlari bilan sandiqni ochib koʻrib chechasining xatidan boxabar boʻlib qoladi keyin akasini xabardor qiladi. Alpomish bu xatni koʻrib, avval bormaslikka qaror qiladi. Lekin uning singlisi uni oʻz yorini qutqarishga undaydi. Har bir ota oʻz farzandini begona yurtlarga ketmasligini xohlagani kabi, boyboʻri ham buni istamaydi. U Qultoy degan ot boqarga Aplomishga yilqi berma deb amr beradi. Qultoy qanchalik bermaslikka urunmasin, Alpomish maqsadidan voz kechmaydi va undan Boychiborni olib qalmoq eliga ketadi. Barchinoy alplarga ot choptirish, yoy tortish, merganlik, kurash shartlarini bajarganga tegishini aytadi. Alpomish toʻrt shartni bajarib vafodor Barchinni qalmoqlardan qutqarib olgandan soʻng baxmal oʻtovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi boʻlib, bir necha xotinlar "kampir oʻldi", "it irillar", "soch siypatar", "qoʻl ushlatar" degan marosimlarni oʻtkazib boʻlgach Alpomish va Barchinoy murod maqsadlariga yetib, Qoʻngʻirot tomon koʻchib ketishadi.

Zamonaviy texnikalar asri boshlanguncha insonlar muhim voqea hodisalar haqidagi maʼlumotlarni xat orqali bayon etishgan. Bu esa ularning hayotida muhim oʻzgarishlarga sabab boʻlganligi yuqoridagi misolda ham yaqqol isbotini topgan. Koʻpincha xat yoʻllagan insonga yetib borish yoki bormasligi vositachilarga bogʻliq boʻlsa, Alpomish dostonida choparlar xatni Qoʻngʻirotga yetkazgach maktubning yashirilib qoʻyishi va Qaldirgʻochoyimning bundan xabar topib oʻz akasiga yetkazishi voqealarning biroz oʻzgarishiga sabab boʻlgan deyish mumkin. Chunki olti oylik yoʻlga otlanishga oʻzida kuch topa olmayotgan Alpomishni qahramonlik

---

[2] Alpomish" dostoni Toshkent – 2019. 88-bet

[3] "Alpomish" dostoni Toshkent – 2019. 96-96- bet

ko‘rsatib o‘z yorini qutqarishga Qaldirg‘ochoyim sababchi bo‘ladi. Yozilgan arza orqali Barchinoyning Hakimbekka sodiq va vafoli yor ekani yaqqol aksini topgan. U hattoki qalmoqlik alplardan olti oyga muhlat so‘raydi. Bu esa haqiqiy vafodor yorning to‘g‘ri yo‘lidir. Barchinoy Alpomishning jasur va har ishda ildamligini bilgan holda uning narmoda emas ekanligi isbotlash uchun ham to‘rt shart qo‘ygan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Ko‘rib turganimizdek, dostondagi xat Barchinoyning qakmoqlar qo‘lidan ozod bo‘lib, o‘zi tug‘ulib o‘sgan yurtiga qaytishi uchun muhim vosita bo‘lib hizmat qilgan. Alpomish o‘z jasoratini ko‘rsatishida Qaldirg‘ochning ham o‘rni beqiyosdir. Bunday jasorat har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Dostonning mazmun-mohiyatida kelib chiqqib aytish mumkinki, haqiqat va adolat yo‘lida fidokorlik qilgan insonlar doimo o‘z maqsadiga yetadi. Alpomishning fidokorona harakati va Barchinoyning sadoqati natijasida ezgulik g‘alaba qozonadi. Shu sababli, xat mativi dostondagi voqealar rivojida hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi va xalqona dunyoqarashning muhim jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Dostondagi xat umid, najot timsoli sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga xalqning ezgulikka bo‘lgan intilishlarini ham o‘zida aks ettirgan badiiy unsur sifatida qadirlidir.

**Foydalanilgan adaboyotlar:**

1. “Alomish” dostoni Toshkent – 2019
2. Nilufar Rasulova Adabiyotdan qo‘llanma I kitob Toshkent – 2018
3. “Alpomish” – o‘zbek xalq qahramonlik eposi", T., 1999.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Alpomish

PSSIR TUR PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
PROBLEMS AND SOLUTIONS OF
SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# TUYAMO'YIN SUV OMBORI VA UNING QUYI AMUDARYO REGIONIGA TA'SIRI

**Matjonov To'rabek Otabek o'g'li**
Urganch Davlat Universiteti
Tabiiy va Qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti
70530402 – Geografiya mutaxasisligi 2-bosqich magistranti
Email: turabekmatjonov@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tuyamo'yin suv omborining qachon va nima maqsadlarda qurilganligi, bu ulkan suv omborining qaysi hududlarga foydasi bo'lgani shuningdek, zarari bor yoki yo'qligi, unda qurilgan gidrotexnik inshoot haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, nega Tuyamo'yin suv omborining toshqin hududini aniqlash, ushbu falokatli hodisa ro'y bergan taqdirda aholini evakuatsiya qilish maydonlarini xaritalashtirish muhimligi bo'yicha hamda, maqola muallifining fikr hamda xulosalari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Sivilizatsiyalar, Tuyamo'yin suv ombori, Quyi Amudaryo, Xorazm, Sardoba suv ombori, evakuatsiya, kartalashtirish

# ТУЯМУЮНСКОЕ ВОДОХРАНИЛИЩЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА НИЖНЕАМУДАРЬИНСКИЙ РЕГИОН

**Аннотация:** В статье приводятся сведения о том, когда и для каких целей было построено Туямуюнское водохранилище, каким регионам принесло пользу это огромное водохранилище, нанесло ли оно какой-либо вред, и о построенном на нем гидротехническом сооружении. В то же время приводятся сведения о важности определения зоны затопления Туямуюнского водохранилища, картографирования зон эвакуации в случае этого катастрофического события, а также мнения и выводы автора.

**Ключевые слова:** Цивилизации, Туямуюнское водохранилище, нижнеамударья, Хорезм, Сардобинское водохранилище, эвакуация, картографирование

# THE TUYAMUYIN RESERVOIR AND ITS IMPACT ON THE LOWER AMU DARYA REGION

**Abstract:** This article provides information about when and for what purposes the Tuyamuyin Reservoir was built, which regions this huge reservoir has benefited from, whether it has any harm, and the hydraulic structure built on it. At the same time, there are information about the importance of determining the flood zone of the Tuyamuyin reservoir, mapping evacuation areas in the event of this catastrophic event, and the author's opinions and conclusions.

**Keywords:** Civilizations, Tuyamuyin reservoir, lower Amu darya, Khorezm, Sardoba reservoir, evacuation, mapping

Insoniyat yer yuzida yashar ekan, yashab qolishi uchun doimo eng muhim resurs bo‘lmish ichishga yaroqli suv manbalarini ahtargan. So‘ngra daryolar, ko‘llar atrofida o‘rnashib, qabila shaklida yashay boshlashgan. Bazi jamoalar sivilizatsiya darajasiga ham yetishganligi bizga ma’lum. Tarixdan oldingi davrda, minglab yillar davomida odamlar oziq-ovqat yig'ish, ov qilish va baliq ovlash orqali tirik qolish uchun birlashib, kichik guruhlarda yashagan. Keyin, miloddan avvalgi IV ming yillikda, taxminan, bir vaqtning o'zida, Osiyo va Afrikaning bir necha yirik daryolari vodiylarida bir-biridan keng ajralgan jamoalar muntazam ravishda ekin ekishga kirishdilar. Oziq-ovqat ishlab chiqarishning ko'payishi aholi sonining ko'payishiga, shaharlar va hukumatlarning ko'payishiga, yozuv va san'atning rivojlanishiga olib keldi.

Ushbu qadimiy sivilizatsiyalar 4 ta daryo sistemasi bo‘ylab vujudga kelgan:

1. Frot va Dajla daryolari vodiysidagi Mesopotamiya sivilizatsiyasi Frot va Dajla daryolari vodiysida (miloddan avvalgi 3300-2000-yillar)
2. Nil vodiysidagi Misr sivilizatsiyasi (miloddan avvalgi 3200-1000-yillar)
3. Hind vodiysidagi Xarappa sivilizatsiyasi (miloddan avvalgi 3200-1300-yillar)
4. Xuanxe vodiysidagi Sariq daryo (xitoychadan tarjimasi) sivilizatsiyasi(miloddan avvalgi 2000-200-yillar)[1]

Vaqt o‘tishi bilan aholi soni ko‘paygani sari ularning kundalik va qishloq xo‘jaligidagi suvga bo‘lgan ehtiyoji ortgan. Daryo vodiysini to‘sish orqali suvni saqlab turish, yo‘nalishini o‘zgartirish kabi ishlarga qodir bo‘lishdi. Shu tariqa yuzlab yillardan keyin ekin dalalari sun’iy sug‘orishni talab etadigan hududlarda suv omborlari qurila boshlandi.

Buni Tuyamo‘yin suv ombori misolida ko‘rib chiqsak. Tuyamo‘yin suv ombori – Amudaryoning quyi qismidagi Tuyamo‘yin tor darasida qurilgan ulkan suv

ombordir. Inshoot asosan sug'orish va elektor energiyasi olish maqsadida ishga tushirilgan. Uning qurilishi 1970-yildan boshlangan bo'lsa, 8 yil o'tib birinchi navbati, 1983-yilda esa to'liq ishga tushirilgan. Omborning umumiy hajmi 7,8 milliard kubometrni tashkil etadi. Suv ombori 4 ta – 1 ta o'zanli va chap sohildagi tabiiy chuqurliklarda barpo etilgan, suv uzatish yo'li bilan to'ldiriladigan 3 ta ombordan (Kaparas, Sultonsanjar, Qo'shbuloq) iborat. Omborning umumiy hajmi 7,8 milliard kubometrni tashkil etadi. Ushbu suv ombori Amudaryoning chap va o'ng sohillariga suv yetkazib berishni ta'minlaydi, bu esa Xorazm viloyati, Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumani va Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida yangi yerlarni o'zlashtirish hamda sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minotini yaxshilash imkonini yaratadi. [2]

So'nggi yillarda Tuyamo'yin suv omboridagi suv sathi sezilarli darajada kamaymoqda. Masalan, 2022-yil may oyida ombordagi suv hajmi 2,2 milliard kubometrgacha qisqargan, bu esa suv ombori tarixidagi eng past ko'rsatkichlardan biridir.[3]

Xorazm viloyatida tabiiy energetika resurslarining deyarli yo'qligi zamonaviy energetika bazalarini yaratish imkonini bermaydi. 1961-1962 – yillarda Taxiatosh

[1]https://www.mentorials.com/high-school-history-ancient-river-civilizations.htm sayti ma'lumotlari.

[2]https://uz.wikipedia.org/wiki/Tuyamo'yin_suv_ombori sayti ma'lumotlari.

[3]https://xabar.uz/uz/tahlil/tuyamoyin-suv-ombori-ham-quriyapti-ekspert sayti ma'lumotlari.

GRESining barpo etilishi viloyatning elektr energetikaga bo'lgan ehtiyojini qoplash imkonini yaratdi. Tuyamoyin suv ombori negizida shu nomdagi GRESning bunyod etilishi viloyatning elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojlarini deyarli to'la qondirishga yordam berdi desa bo'ladi. [1. 67-bet]

Shu o'rinda savol tug'iladi Xorazm, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari, Dashovuz viloyati uchun foydali hisoblanib qurilgan bu suv omborining kamchilik va havotirli jihatlari haqida o'yladikmi? Respublikamiz hududida bundan qariyb 5 yil ilgari ro'y bergan Sardoba suv omborida kuzatilgan falokatli hodisa boshqa suv omborlarida ham ro'y bermasligining kim kafolatini beradi?

2020 yil 1 may kuni soat 05:55 da Sirdaryo viloyatida joylashgan «Sardoba» suv ombori dambasining devorida suv sizib chiqib yaqin hududlardagi qishloq va mahallalarga zarar yetkazgan edi.

Sardoba fojeasi 2020 yil koronavirus infeksiyasi avj olgan paytda bo‘lgan edi. Suv ostida qolgan mahallalar aholisi dastlab yaqin-atrofdagi mahallalarga joylashtirilgan bo‘lsa, keyinchalik u yerlarni ham suv bosgani tufayli Jizzax viloyatining Do‘stlik, Paxtakor, Zarbdor va Mirzacho‘l tumanlaridagi maktab, kollej va aholi xonadonlariga, ayrimlar esa Sirdaryoning boshqa shahar va tumanlariga ko‘chirila boshlandi. Umumiy hisobda 90 mingga yaqin aholi evakuatsiya qilingan edi. Sardoba fojeasi sabab 10ta mahalla fuqarolar yig‘ini, 23ta aholi punkti, hududlardagi 4711ta turar va 277ta noturar joy obektlariga hamda 30 718 gektar ekin maydonlariga zarar yetkazgan. Toshqindan talafot ko‘rgan 4351ta xonadonning 2570tasi yaroqsiz holga kelgan, 1781tasiga qisman zararlangan.

Toshqin tufayli Sardoba, Mirzaobod va Oqoltin tumanlarining jami 32 381 gektar maydonlari talafot ko‘rgan. Shundan 549 gektari aholi tomorqa ekin maydonlari hisoblanadi.[4]

Bundan tashqari Sardoba suv omborida kuzatilgan falokat natijasida qo‘shni Qozog‘iston Respublikasi yerlariga ham zarar yetgan edi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ko‘rib chiqilgan ma’lumotlardan shularni anglash mumkinki Tuyamo‘yin suv ombori Xorazm vohasi uchun katta

[4]https://paradigma.uz/uz/news/sardoba-fojiasiga-tort-yil-toldi-146

ahamiyatga ega. Bir tarafdan inshoot zaxirasidagi suv yildan-yilga kamayib Amudaryoning quyi oqimidagi suv ta'minotiga salbiy ta'sir ko‘rsatib, mintaqada suv tanqisligini kuchaytirishi mumkin. Suv sathining bunday pasayishi iqlim o‘zgarishlari, qurg‘oqchilik va suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish kabi omillar bilan bog‘liq. Natijada, Amudaryoning quyi oqimidagi qishloq xo‘jaligi va ichimlik suvi ta'minotida muammolar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, suv resurslarini samarali boshqarish va suvni tejash bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda.

Ikkinchi tomondan, suv omborlari tabiat resurslarini boshqarish va suv ta’minotini tartibga solishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq, har qanday gidrotexnika inshooti toshqin xavfini oshirishi mumkin. Shuning uchun, suv omborlari atrofidagi toshqin hududlarini aniqlash va kartalashtirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Toshqin xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda qishloq xo‘jaligi, sanoat zonalari va yashash joylarini rejalashtirishga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Kartalashtirish natijasida xavf darajasi bo‘yicha turli hududlarni belgilash, muhandislik yechimlarini ishlab chiqish va infratuzilmalarni muhofaza qilish

osonlashadi. Suv omborlarining toshqin ta'siri nafaqat odamlar va infratuzilmaga, balki tabiiy ekotizimlarga ham sezilarli ta'sir qiladi. Suv oqimining o'zgarishi natijasida botqoqliklar, o'rmonzorlar va qirg'oq ekotizimlari zarar ko'rishi mumkin. Kartalashtirish ushbu muammolarni bartaraf etish va muhofaza qilish choralarini ko'rish uchun muhim vosita bo'lishi mumkin. Suv omborlarining toshqin va aholi uchun evakuatsion hududlarini aniqlash va kartalashtirish xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy zararlarning oldini olish va ekologik muvozanatni saqlash uchun muhim hisoblanadi. Ilmiy asoslangan rejalashtirish va zamonaviy GAT texnologiyalari yordamida ishlab chiqilgan kartalar orqali suv resurslarini samarali boshqarish mumkin bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qurbaniyozov R. Xorazm Geografiyasi. O'quv qo'llanma. Urganch-1997. – 67 b.
2. https://www.mentorials.com/high-school-history-ancient-river-civilizations.htm
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tuyamo'yin_suv_ombori
4. https://xabar.uz/uz/tahlil/tuyamoyin-suv-ombori-ham-quriyapti-ekspert
5. https://paradigma.uz/uz/news/sardoba-fojiasiga-tort-yil-toldi-146

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA " ILK QADAM " DAVLAT O'QUV DASTURINING QO'LLANILISHI

**Yusupova Nilufar**
**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi**
**Ilmiy rahbari: Alimardanov Jo'rabek Bobonazarovich**
**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya**: Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi kundagi holati va sohada olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar, tavsiya va xulosalar keltirilgan bo'lib ushbu jarayonda "Ilk qadam" dasturining maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llanilishi haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar**: Maktabgacha ta'lim, konsepsiya, ilk qadam dasturi, bola, Malaka

**Kirish.** Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim alohida vazirlik sifatida tashkil qilinganligi yosh avlod tarbiyasining eng quyi pog'onasiga naqadar katta e'tibor berilayotganligiga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 10-maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori PQ-2707-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori va mavzuga bevosita bog'liq bo'lgan BMTning bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi yuqoridagi so'zlar namunasidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat o'quv dasturi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi

Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgna me'yoriy-huquqiy hujjat qilib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning keying bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan".

Mashg'ulot ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishdir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni tashkil etish shaklidir.

Ta'lim shakli deganda ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi.

Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga, o'tkazish joyiga shuningdek kun tartibida egallagan o'rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari, ekskursiya, ta'limiy o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boradi.

Mashg'ulot maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir. Unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

Davlat talablari asosida tuzilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari hamda o'zlari uchun turli sohalar bo'yicha dasturlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli tuman o'yinchoqlar va ta'lim tarbiya qurollari yaratiladi.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish Maktabgacha ta'lim tizimining boshlang'ich bo'limi bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida "ilk qadam" davlat o'quv dasturi tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Makabgacha ta'limi vazirligi bu dasturni respublikamizning o'ziga xos tomonlarini iqlimi, jugrofiy, iqtisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini hisobga olib, uni qayta ishlab chiqdi. Dastur tug'ilgandan to yeti yoshgacha bo'lgan bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar hajmini o'z ichiga oladi. U maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

**Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalar.** Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish
2. Jismonan rivojlantirish
3. Ma'nan rivojlantirish

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari, bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash "ilk qadam" davlat o'quv dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanayotgan eski shakl va uslublarni qayta ko'rib chiqishga undaydi, pedagogik tashabbus, tajriba va ijodga keng yo'l ochadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalariga sodiq holda voyaga yetib borishini ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishga erishish "ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi.

Davlat talablari 0-7 yoshli bolaning qay darajada rivojlanganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo'lib, ular bilim, Malaka va ko'nikmalar rivojlanishining ko'rsatkichlarini belgilaydi.

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari

4. Bilish jarayonining rivojlanishi
5. Ijodiy rivojlanish

Mazkur 5 ta yo'nalish 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarining shakllanishi, nutq, o'qish va savodga tayyorlash darajasini, atrof-olam haqidagi tushunchalarni va qo'yilgan talablarni egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari, bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash "ilk qadam" davlat o'quv dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanayotgan eski shakl va uslublarini qayta ko'rib chiqishga undaydi, pedagogic tashabbus, tajriba va ijodga keng yo'l ochadi.

Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining quyidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari va muassasalarida qo'llanilishi majburiydir.

- Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida
- Maktabgacha ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi nodavlat MTTlar
- Ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllarida
- "Mehribonlik" uylari maktabgacha ta'lim guruhlarda

Monitoring va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida

**"Ilk Qadam" Dasturining Maqsadi va Vazifalari**

"Ilk Qadam" dasturi bolalar uchun o'ziga xos o'quv va tarbiyaviy mexanizmni taklif qiladi. Dastur asosan 3-6 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning shaxsiy rivojlanishiga va maktabgacha ta'limni muvaffaqiyatli boshlashlariga ko'maklashadi. "Ilk Qadam"ning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. **Kognitiv rivojlanish**: Bolalarni mantiqiy fikrlash, ijtimoiy munosabatlar o'rnatish, o'zaro yordam va o'zini o'zi anglashga yo'naltirish.
2. **Ijodiy rivojlanish**: Bolalarni san'at, musiqa, drama kabi faoliyatlar orqali o'z ifodali qobiliyatlarini rivojlantirish.
3. **Ijtimoiy va emosional rivojlanish**: Bolalarga jamoada ishlash, o'z his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalar bilan aloqa o'rnatish qobiliyatlarini o'rgatish.
4. **Jismoniy rivojlanish**: Bolalarni jismoniy faollikka, sportga va sog'lom turmush tarziga rag'batlantirish.

**Dastur Mazmuni va Strukturasi**

"Ilk Qadam" dasturining asosiy tarkibiy qismlari bolalarning turli rivojlanish sohalarini qamrab olgan kompleks faoliyatlar to'plamidan iboratdir. U quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. **Darslar va mashg'ulotlar**: Har bir yosh guruhiga mos ravishda o'qituvchilar bolalar bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadilar. Bu mashg'ulotlar nafaqat bilim berish, balki bolalarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga, mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.
2. **Ta'lim o'yinlari va amaliy mashg'ulotlar**: Bolalar o'yinlar orqali o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu o'yinlar bilim olishning eng samarali usullaridan biridir.
3. **Individual va guruhli ishlash**: Dasturda bolalarga individual yondashuvni qo'llash, har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, guruhli faoliyatlar bolalar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi.
4. **Rivojlanish monitoringi**: Dastur davomida bolalar individual rivojlanishlarini kuzatish va tahlil qilish uchun maxsus monitoring tizimi yaratilgan. Bu tizim bolalarning har bir sohadagi o'sish va rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi.

**"Ilk Qadam"ning Afzalliklari**

1. **Ilmiy asoslangan metodika**: Dastur, maktabgacha ta'limning eng so'nggi ilmiy yutuqlariga asoslanadi, bu esa uning samaradorligini ta'minlaydi.
2. **Yuqori malakali o'qituvchilar**: "Ilk Qadam" dasturini amalga oshirishda o'qituvchilar maxsus treninglardan o'tib, pedagogik mahoratlarini oshiradilar, bu esa ta'lim sifatini yanada yuqori darajaga ko'taradi.
3. **O'qish va o'yin integratsiyasi**: O'qish va o'yin jarayonlarini birlashtirgan holda, bolalar yangi bilimlarni oson va qiziqarli tarzda egallaydilar.
4. **Bolalar uchun individual yondashuv**: Har bir bola o'ziga xosdir, va dastur har birining ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Bu esa bolalarning rivojlanishiga maksimal darajada yordam beradi.

**Xulosa**

"Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. Dastur, bolalarning ilk ta'limini muvaffaqiyatli boshlashlari uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratadi. Uning samarali qo'llanilishi natijasida bolalar nafaqat bilim olishadi, balki ijtimoiy, emosional va jismoniy rivojlanish uchun zarur ko'nikmalarni ham egallaydilar. Bu

dastur orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirish, bolalarning erkin va to'liq rivojlanishiga ko'maklashish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Z.T. Nishanova "Rivojlanish psihologiyasi. Pedagokik psixologiya".
2. Xasanova. O U "Maktabgacha ta’lim pedagogikasi "
3. G‘aniyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ
4. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O’QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH JARAYONI AS Abduqosimovna - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023
5.SHAXS SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI.MA Suyunova - Eurasian Journal of Academic Research, 2022 - in-academy.uz
6.SHARQ ALLOMALARINING YUKSAK G'OYALARI BOLA TARBIYASINING ASOSI SIFATIDA. S Sharapova - INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND …, 2022

-

PSSIR TUR PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MEHNAT TARBIYASI

**Ravshanova Dildora**
**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi**
**Ilmiy rahbar: Iroda Qarshiyeva,**
**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti**
**Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim**
**kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarga mehnat tarbiyasi berishning mazmuni, bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasining vazifasi va mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maktabgacha yosh guruhlarda kerakli shart- sharoitlar yaratilishi lozimligi haqida so'z olib boramiz. .

**Kalit so'zlar:** mehnat tarbiyasi, mehnat, kichik guruh, katta guruh, sayr, o'z-o'ziga xizmat, axloqiy, estetika.

**Kirish.** Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi vaqtda eng muhim mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir kishi kamolotida, umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muhim ahamiyatga ega.

Mehnat bolalarda diqqat, zehnlilik, topqirlik, o'rgangan malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayonida bolalar qisman ish turlarini (bir varaq qog'oz buklash, kerakli uzunlikni o'lchab olish, andozaga qarab shaklni qirqish kabi harakatlarni) anglatuvchi bir nechta tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so'zlab berishga to'g'ri keladi. Bular bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi, uning mantiqiy bog'liq ravishda grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishiga imkon beradi.

Bolalarni oddiy mehnat qurollari, materiallarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish lozim. MTTdagi mehnat bolalarni maktabdagi politexnik ta'limga tayyorlaydi.

MTTlarida mehnat tarbiyasining vazifasi va mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Bolalar mehnati uchun joy, vaqt va gigiyenik shart-sharoitlar yaratilmog'i kerak. Ozodalik, toza havo, kerakli darajadagi yorug'lik, mehnatning bolalar imkoniyatiga muvofiq

bo'lishi, mehnat vaqtini bolalar yoshiga qarab to’g'ri belgilash (kichik yoshli bolalar uchun 10-12 daqiqa, katta guruh bolalari uchun 15-20 daq), bolalar harakatlarini almashtirib turishni ham e'tiborga olish kerak.

Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mehnati biror jarayonga doir harakat bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Mehnat ijtimoiy taraqqiyotning manbayi, barcha moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart-sharoitlaridir. ushbu bilan birga inson xayotiy faolyatining asosiy shakllaridir, kishi xayotining mazmuni va xar bir jamiyat azosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosidir. Mehnat qadimdan jamiyatning axloqiy prinsipi xisoblanib kelingan. Mehnat-faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina emas, balki xalqqa xizmat qilish, vatanimiz gullab yashnashi va uning qudratini oshirishning asosi xamdir.

Madaniyatli kishi mehnatsevar bo'lib yetishadi. Mehnatni sevmaydigan va qadrlamaydigan odamdan madaniyatli kishi chiqmaydi. Insonning ongliligi, tarbiyalalanganligi avvalo mehnatga bo'lgan munosabatida ko'rinadi.

Mehnat insonni ulug'laydi go'zallikga chorlaydi. Mehnatsiz turmush mazmunsiz o'tadi. Mehnat qihnaydigan inson hayoti zerikarlidir. U ma’naviy qashshoq, jismoniy zaif bo'ladi. Uzoq umur ko'rish siri ham mehnatdadir. Mehnat qilmasang, xatto buyuk istedod xam so'nadi, mehnat har qanday qobilyatni rivojlantiradi. Terlab-pishib qilingan mehnat erta hosil beradi, mehnatdan qobiliyat, qobilyatdan iste’dod, undan esa daxolik paydo bo'ladi. Xammasining zamirida sidqi dildan qilingan mehnat yotadi. Mehnat baxt timsoli ekanligi xammaga ayon. Inson yaralgandan buyon mehnat faoliyati bilan shug'ullanib kelgan. Mehnat har qanday moddiy va ma’naviy boyliklarning asosiy manbai.

Inson hayotida mehnatning ahamiyati hamma vaqt barcha xalqlarning eng asl farzandlari mutafakkirlari, olimu-fozillaming diqqat markazida bo'lgan. Mehnat jarayonida insoniy xislatlarning faol namayon bo'lishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va har bir kishida ma’naviy qoniqish hosil qiladi.

Har bir bola maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnatda ishtirok etish zarur. Bolalar bog’chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo'lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak. Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetishish uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi

**Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalari.** Maktabgacha ta’lim muassasalari, bolalarning eng dastlabki ta’lim olish davri bo‘lib, ularning

intellektual va jismoniy rivojlanishi uchun muhim poydevor yaratadi. Biroq, bu ta’lim faqat bilim olish bilan cheklanmasdan, shuningdek, bolalarning shaxsiy va jamiyatdagi o‘rni, mehnatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga ham katta e'tibor qaratiladi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasi juda muhimdir.

**Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari-** Mehnat tarbiyasi, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga mehnatni qadrlash, uning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, mehnatga oid ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan jarayon sifatida qaraladi. Boshqa so‘z bilan aytganda, mehnat tarbiyasi orqali bolalar jismoniy va aqliy faoliyat orqali mehnatning turli shakllari bilan tanishadilar, o‘z mehnatlari natijasida qo‘lga kiritgan natijadan qoniqish hosil qilishni o‘rganadilar.

Mehnat tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **Mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish**: Bolalar o‘z mehnatlari bilan foydali natijaga erishishni va mehnatning qadriyatini tushunishni o‘rganadilar.
2. **Mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish**: Bolalarga oddiy, lekin foydali ishlarni bajarishni o‘rgatish, ular orqali jismoniy va aqliy salohiyatini rivojlantirish.
3. **Jamiyatga foydali bo‘lishni anglash**: Maktabgacha ta’lim muassasasida mehnat tarbiyasi yordamida bolalar o‘zlarining ishga bo‘lgan mas’uliyatini anglab yetadilar, bu esa jamiyatga foyda keltirish va muammolarni hal etishga xizmat qiladi.
4. **Qobiliyat va ko‘nikmalarni rivojlantirish**: Boshqalar bilan ishlash, guruhda faoliyat olib borish, maqsadga erishishda qiyinchiliklarni yengib o‘tish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish.

**Mehnat tarbiyasining usullari-** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasini amalga oshirishda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

1. **Amaliy mashg‘ulotlar**: Bolalarga turli mehnat jarayonlarini ko‘rsatish va ularni bajarishga jalb qilish. Masalan, bog‘da ishlash, o‘zlariga tegishli narsalarni tartibga solish, o‘yinchoqlarni yig‘ish.
2. **O‘yin orqali mehnatni o‘rgatish**: O‘yin orqali bolalar mehnatning oddiy shakllarini o‘rganadilar. Misol uchun, qurilish bloklari bilan o‘yin o‘ynash orqali mehnatni rejalashtirish va natijalarni olishni o‘rganish.

3. **Darsliklar va hikoyalar**: Mehnat va uning ahamiyatini tushuntirish uchun maxsus hikoyalar, she'rlar, multfilmlar va boshqa didaktik materiallardan foydalanish.

4. **Ko‘rgazmalar va namoyishlar**: Mehnat jarayonlarini bolalarga ko‘rsatish va ular bilan birga amaliy ishlar o‘tkazish.

5. **Mahoratli mutaxassislarning ish faoliyatini ko‘rsatish**: Bolalarga o‘z kasbini sevgan va mehnatini yuqori darajada bajarayotgan kishilarni namoyish qilish orqali mehnatning ijobiy tasvirini shakllantirish.

**Maktabgacha ta’limda mehnat tarbiyasining ahamiyati**

Mehnat tarbiyasi bolalarda bir nechta muhim fazilatlarni rivojlantiradi. Avvalo, bu bolalarning mas’uliyat hissini oshiradi. Har bir bolaga unga berilgan kichik vazifani bajarish orqali natijaga erishish muhimligi o‘rgatiladi. Mehnat tarbiyasi shuningdek, bolalarga samarali vaqtni boshqarish va muammolarni hal qilishni o‘rgatadi.

Bundan tashqari, bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Agar maktabgacha ta’limda mehnatning ahamiyati va uning hayotdagi o‘rni haqida to‘g‘ri tushunchalar berilsa, kelajakda ularning mehnatga bo‘lgan yondashuvi ijobiy bo‘ladi. Bu esa ularning jamiyatda muvaffaqiyatli va mas’uliyatli insonlar sifatida o‘sishlariga yordam beradi.

**Xulosa-** Maktabgacha ta’lim muassasalarida mehnat tarbiyasining o‘rni katta. Bu jarayon bolalar uchun mehnatning ahamiyatini tushunish, samarali va ijobiy mehnat ko‘nikmalarini o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, mehnat tarbiyasi bolalarni jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa kelajakda ularning hayotdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlashga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Kushakova.G .Мактабгача ёшдаги болаларни толерантлик руҳида тарбиялаш. Бола шахсини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. II – Халқаро илмий – амалий анжуманининг тезис ва мақолалар тўплами. Тошкент, 2008. –Б. 107- 108

2.Usmonova.M.Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq ertaklarining o’rni. Umumfilologik tadqiqotlar: muammo va yechimlar. Taniqli olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Bahodir Fayzullaevning 60 yillik yubileyiga bag’ishlangan ilmiy –amaliy anjuman materiallari. Jizzax -2011 yil. 218 -219 bet

3.Норқўзиева.М.А.Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигини таъминлашда буюк сиймоларнинг роли. Мактабгача таълим тизимини ривожлантиришда илмий-амалий инновацияларнинг педагогик аҳамияти халқаро илмий-амалий конференция 2020 йил 11-12 ноябрь Самарқанд, 1.

4. Belkin A.S. Yosh pedagogikasining asoslari: Prok. talabalar uchun nafaqa. yuqoriroq ped. darslik bosh / A.S. Belkin - M.: Akademiya, 2008. - 192 p

5. Рузматова, Д. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirishni o‘ziga xosligi. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1), 669–671. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/new-uzbekistan/article/view/32439

Библиографические ссылки

# SHARQ ALLOMALARINING TABIAT HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLARI

**Abdunazarova ZebinisoXudoyshukurovna**
**Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya** Mazkur maqolada Sharq allomalarining tabiat haqidagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Tabiat va inson oʻrtasidagi uygʻunlik, borliqning mohiyati, materiya, harakat, vaqt va makon kabi masalalar buyuk mutafakkirlar – Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Ulugʻbek va Yassaviy singari olimlarning asarlari asosida oʻrganiladi.

**Kalit so'zlar:** muallimi-soniy, inson xulqi, antropologiya, ruhiy «quvvatlar», totalitarchilik, insonparvarlik, tiriksevarlik (biofillik) va o'liksevarlik (nekrofillik), bixeviorizm.

**Kirish.** Goʻzal xulq fazilatlarni egallash, ta'lim-tarbiya masalalari moziydagi buyuk siymolar va donishmandlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Insondagi ezgulikka, yaratuvchanlikka undovchi xushsifat kuchlari qanchalik muhim bo'lsa, undagi yovuzlikka, buzg'unchilikka yetaklovchi badsifat kuchlarni tadqiq qilish ham shunchalik muhimdir. Agar inson xushsifat kuchlaridan ayricha qolsa, u biologik ehtiyojlari bilangina yashovchi va ushbu ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday zo'ravonlikka, vahshiylikka tayyor mahluqotga, agar badsifat kuchlaridan xoli o'rganilsa, insoniy his-tuyg'usiz, ehtirossiz va maslaksiz mavjudodga aylantiriladi. Sharq uyg'onish davrining buyuk olimi, o'z davri ilg'or falsafiy fikrining asosiy printsiplarini o'z ijodida aks ettirgan mutafakkir Abu Nasr Forobiydir. U o'rta asrning mashhur olimi - o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning harakteridan kelib chiqqan holda, o'z dunyoqarashida zamonasining g'oyaviy turmushidagi ilg'or, taraqqiyot va reaksion kuchlarning kurashini, Sharq va qadimgi yunon madaniyatining birikishi natijasida vujudga kelgan turli ta'limotlarning to'qnashuvini o'zida ifodalagan. Shu qatorda, XX asrning mashhur mutafakkiri, neofreydizm asoschilaridan biri, Erix Frommning asarlari butun dunyoda o'ta keng shuhrat qozongan - uning hayotligidayoq inson tabiatining axloqiy va ijtimoiy - psixologik muammolarga bag'ishlangan asosiy asarlari millionlab tirajlarda bir necha o'n marta qayta nashr qilingan. Bu ikkita buyuk allomalar biri Sharq va ikkinchisi G'arb faylasuflari bo'lishi va yashab ijod etgan davrlari turli xil bo'lsa ham inson xulqi va ruhiyatiga oid meroslari bir-birlarini to'ldirib turadi. Har ikkala alloma, Abu Nasr Forobiy va Erix Fromm antrpologik, ijtimoiy-falsafiy

dunyoqarashlarida inson xulqi, joni-ruhi, jamiyatda tutgan o'rni, ruhiy ma'naviyati haqida o'z davrlarida o'z ta'limotlarini yaratishgan.

Abu Nasr Forobiy va Erix Frommning inson xulqi va joni haqidagi qarashlarini solishtirar ekanmiz hamohang qirralarini ko'rishimiz mumkin.Bu masalada O'rta Osiyoning ulug' faylasufi Abu Nasr Forobiy G'arb faylasufidan farqli o'laroq - insoniy xislatlar, ta'lim-tarbiya haqida maxsus asar yozmagan. Uning insoniy fazilatlari haqidagi fikrlari olimning turli risolalarida bayon qilingan. Bu borada allomaning "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida risolasi", "Buyuk kishilarning naqllari", "Musiqa haqida katta kitob", "Fuqarolik siyosati" va boshqa risolalarida jamiyat va uni boshqarish, insoniy fazilatlar, axloq-odob, aqliy va xulqiy tarbiya haqida masalalarga bag'ishlangan "Baxt-saodatga erishuv haqida" risolasida insoniy fazilatlarni egallash yo'llari, ta'lim-tarbiya usullari, yosh avlodni maktabda o'qitishning yo'l-yo'riqlari to'g'risida fikr yuritiladi. Forobiyning fikricha, yaxshilik va yomonlik, ayniqsa, adolat va adolatsizlik yaqin turuvchi tushunchalardir. Yaxshilik va yomonlik iroda erkinligiga asoslanadi va faqat insonga xosdir. Yaxshilik insonning 5 ta ruhiy quvvatiga tegishlidir. Bular: aqliy-nazariy, aqliy-amaliy, intiluvchi, tasavvur va his qilish quvvatlaridir Inson baxt-saodatga faqat nazariy quvvat orqali idrok qilib yetishadi. Ulug' faylasufning ta'kidlashicha, ya'ni yaxshilik baxt-saodatga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Yaxshiliksiz va adolatsiz - ijtimoiy ideal va baxt-saodatga erishib bo'lmaydi. Bu yerda ko'rininb turibdiki, har ikkala allomaning hammohang jihatlari sifatida insonnig axloqiy qarashlarida -insoniy holatiga xos hislatlariga, yaxshilik va yomonlikning faqatgina insonga xos ekanligini aytib o'tishadi. Frommning "Yovuzlik faqat insonga xos hodisa. U insoniylik holatidan ortga qaytish, insonga xos, aql, muhabbat, erk xususiyatlarini yo'q qilishga bo'lgan intilish" fikrlari, shu jumladan Forobiyning esa "yaxsh ilik va yomonlik, ayniqsa, adolat va adolatsizlik yaqin turuvchi tushunchalardir. Yaxshilik va yomonlik iroda erkinligiga asoslandi va faqat insonga xosdir" - degan fikrlari bir biriga o'xshashdir. Forobiy inson tabiatini tahlil qilar ekan, har tomonlama: biologik, ruhiy - fiziologik, intellektual va ijtimoiy-siyosiy jihatlardan o'rganishga yondashadi.

Forobiyning odam haqidagi ta'limotining muhim ahamiyati uning odam tabiatining asosiy hususiyatlarini har tomonlama tahlil qilishga intilishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning fikricha, odam-avvalo hayvondir, sezish esa odamga ham, hayvonga ham xosdir. Shu bilan birga, odam - aqlga ega. Ana shu aql bilan ruh odamning tabiiy ibtidosi hisoblanadi. Lekin "bu ibtidolar - odamning tabiiy ibtidosi

ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanishiga kifoya qilmaydi, chunki inson inson bo'lib, kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb-hunarga muhtojdir- deb ta'kidlaydi Forobiy. Forobiy boshqaruvni sharti sifatida falsafaga murojat qilishining asl mohiyati shundaki, falsafa aql va dalillar bilan ish ko'radi. Aql va dalil bilan ish ko'rish esa, ayrim millat va ummatgagina xos bo'lgan narsa bo'lmay, jahonshumul ahamiyatga egadir. Agar diniy e'tiqodlar bilangina ish ko'riladigan bo'lsa, unda ma'lum va mashhur narsalarga xitob qilish va ularga qoniqish bilangina ish tutishga to'g'ri keladiki, unda muayyan asr, shaxs va makon aks etadi, xolos. Ammo aqliy dalillarga tayanilsa, yuqoridagi chegaralanishlarga xojat qolmaydi. Aql o'z-o'zicha shunday qoidalarga egadirki, hamma joyda va har qanday zamonda qo'llansa bo'laveradi [Abu Nasr Forobiy inson, uning bilishi, ilm-fan va aql haqida ham o'zining falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Garchi u insonni «aqli hayvon» desa ham aqlli inson haqida shunday yozadi: «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsa va hodisalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, (ular) yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil, deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli, deb bo'lmaydi, ularni ayyor, (muttaham), aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim» Forobiy, borliqni insoning bila olishini qayd qilib, insonning bilishini, uning ruhiy qobiliyatlarini inson miyasi boshqaradi, barcha ruhiy «quvvatlar», jumlardan, bilish qobiliyati ham unga bog'liq, deydi.

U o'zining «Ilm va san'atning fazilatlari» risolasida insonning tabiatni bilishi cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aktsidenttsiya (al-oraz)lardan, ya'ni sifatlardan substantsiyani-mohiyat (javhar)ni bilishga qarab borishini, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishni aytadi. Forobiy inson bilishi jarayonini ikki bosqichga bo'lib, bu bosqichlarning o'zaro bog'liqligini, aqliy bilim hissiy bilishsiz yuzaga kelmasligini alohida ta'kidlaydi. Erix Frommning asosiy diqqatini inson qalbining axloqiy talablariga munosabatini ochishga, totalitarchilik, insonparvarlik, tiriksevarlik (biofillik) va o'liksevarlik (nekrofillik) haqidagi mulohazalarga qaratadi. U inson qalbini, ruhiyatini, xulqini o'rganar ekan, u "Sevish san'ati", "Inson qalbi", "Uning ezgulik va yovuzlik qobiliyati" kabi asarlarida axloqiy muammolarga keng e'ti bor berib, yorqin ifodalab bergan Erix Fromm o'z falsafiy konstepstiyasini asoslash uchun ko'plab ustoz faylasuflar kabi «Shoh Edip» asariga murojaat etdi. Fromm «Shoh Edip» qismatida insoniyat taqdirini, tug'ilishi, yuksalishi va inqirozi ramzini ko'rdi hamda asardagi taqdiri azal hukmi Shoh Edipning otasini o'ldirib, bilmasdan onasiga uylanishi voqeasida emas, balki Shoh Edipning o'zida yashirindir, dedi. Ya'ni Shoh Edip

yashash uchun kurashayotgan inson obrazidir. "Bu mif, - deb yozadi Fromm, - onasiga uylanishning timsoli emas, balki o'g'ilning patriarxat otaga va uning tartiblariga munosabati timsolidir. Edipning onasiga uylanishi taqdiri azalni emas, balki bolalikda onasiga muhabbati kuchli bo'lgan bolaning tabiat hukmiga ko'ra, er bo'lib yetishgach xuddi otasi kabi patrarxal tartib tarafdoriga aylanganidadir. Ya'ni bu asar inson evolyustiyasini o'zida timsollashtiradi" Fromm Shoh Edipning otasini o'ldirishi va onasiga uylanishini shunday tahlil qiladi. Edip va otasi o'rtasidagi qarama-qarshilik oqibatida o'g'il otani o'ldirish voqeasini to'g'ridan-to'g'ri tushunmay, timsollar nazariyasiga ko'ra baholash kerak. Bu degani Edip onasiga - matrarxatga bo'lgan muhabbati tufayli otasini inkor qildi. Inkor esa o'limdir. Onasiga uylanishini ham to'g'ridan-to'g'ri tushunmaslik lozim. Onaga uylanish yaratuvchi kuchga, yaratishga o'zni bag'ishlashdir. Sofokl otasiga isyon qilgan Edip timsolida ona ma'budlar o'rnini egallagan ota ma'budlarga va ularning mustabid tuzumi, tartiblariga, umuman, patriarxal tuzum qiyofasida kirib kelayotgan insonni qul qilish an'anasiga qarshi kurashgan ozod inson obrazini yaratdi. Ozod inson Edip otasini yenggach, onalik bilan birlashgach, ma'lum davr o'tib uning o'zi despotga aylandi, oqibatda xilvat va noma'lum ibodatxonada o'lim topdi, ya'ni uning hayoti ham barcha mustabidlar kabi yo'qlikka aylandi. Bunday talqinlar XX asr faylasuflari orasida ko'plab topiladi. Frommning fikriga ko'ra, yovuzlik faqat insonga xos hodisa U insoniylik holatidan ortga qaytish, insonga xos, aql, muhabbat, erk xususiyatlarini yo'q qilishga bo'lgan intilish. Ayni paytda, insoniylikni yo'qotish fojiaviy holatdir. Chunki inson, hayvoniy darajaga qaytsa-da, u biror bir soniya odam ekanini unutmaydi, demak, uni yovuzlik masalani hal qilishning yo'li sifatida hech qachon qoniqtirmaydi. Insonning yovuzlik holati -o'zini ezib turgan insoniy turmushi og'irligidan ozod bo'lishga fojiaviy urinishi tufayli ro'y beradi, u o'zini yo'qotishdan iborat.

**Tadqiqot metodlari va tahlil natijalari.** Tarixiy-metodik yondashuv – Sharq allomalarining asarlari va ularning tabiat haqidagi fikrlarini tarixiy rivojlanish doirasida tahlil qilish. Taqqoslash usuli – G‘arb va Sharq falsafasidagi tabiatga oid qarashlarni qiyosiy tahlil qilish.Tahlil va sintez – Allomalar qarashlarini individual ravishda o‘rganib, umumiy xulosalar chiqarish.Germenevtik metod – Matnlarni tafsir qilish va ularning asl ma’nolarini ochib berish. Tadqiqot bosqichlari Manbalarni o‘rganish – Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Ulug‘bek, Yassaviy kabi mutafakkirlarning asarlari bilan tanishish. G‘oyalarni tizimlashtirish – Allomalar tabiat, materiya, harakat, vaqt, makon haqidagi qarashlarini ajratib olish Sharhlash va tahlil qilish – Ularning ilmiy qarashlari zamonaviy ilm bilan

bog‘lanadi. Xulosa va natijalar – Tadqiqotning asosiy natijalari umumlashtiriladi.Bu metodologiya orqali Sharq allomalarining tabiat haqidagi qarashlarini ilmiy asosda o‘rganish mumkin. Siz aynan qaysi alloma yoki masalaga e'tibor qaratmoqchisiz? Ezgulik bizining mavjudligimizni tobora mohiyatimizga yaqinlashtirib boradi, yovuzlik esa turmushimiz bilan mohiyatimizning o'sib boruvchi begonalashuvi demakdir. Inson ortga va oldinga intilishga, boshqacha aytganda, ezgulik va yovuzlikka moyil. Toki ikkala mayl teng ekan, agar u o'z ahvolini anglab etishga qobil bo'lsa, tanlash borasida erkin. Biroq, agar insonning yuragi tosh qotib, mayllari ortiq tenglashmaydigan darajaga kelsa, u bundan buyon tanlovda erkin bo'lolmaydi. Inson to tanlash erki qolmaydigan nuqtagacha o'z xatti-harakatiga javobgardir. Inson yuragi qanchalik tosh bo'lmasin, u insoniy yurak bo'lib qolaveradi. Biz inson bo'lib tug'ilganmiz va shu bois oldimizda doimo qaror qabul qilish masalasi ko'ndalang turadi. O'z maqsadlarimiz bilan birga, biz vositalarimizni ham tanlashimiz kerak. Agar kimki hayotga befarq - loqayd qarasa, unday odamning ezgulikni tanlashiga umid Forobiy Fozil shahar, undagi madaniy ravnaq munosabati bilan axloq, xulq-odob masalalariga juda katta e'tibor beradi. Bu borada alloma, xulq-odob masalalarini intellektual sifatlari - "aqlliligi", "donoligi" bilan uzviy bog'liq holda olib tekshiradi. Shuning uchun u tahlil etgan axloqiy tushunchalar, kategoriyalar kishilarning o'zaro munosabatlarida mavjud bo'lgan xulq normalarining ifodasi bo'libgina qolmay, balki kishilarning o'z tarixlari davomida olib borgan aqliy faoliyatlarining ham natijalari sifatida talqin etiladi. Aqliy faoliyat esa, insonning tabiatidan, o'z mohiyatidan kelib chiqqanligi uchun, Forobiy xulq normalarini haminsonning kundalik hayot faoliyatidan keltirib chiqaradi. Salibiy axloqiy hislatlarni: johillik, ayyorlik, yolg'onchilik, adolatsizlik, zolimlik, xasislik, ochko'zlik, boylikka intilish, turli hirslarga berilishni qoralaydi. Bundan tashqari u, xalqni aldab, diniy yo'lda qurbonlik qilish, din talablariga bo'ysunish zarurligini da'vo qilib, ulardan o'z maqsadida foydalanishga urunuvchi ruhoniylarni keskin tanqid qiladi va qoralaydi. Ammo Forobiy adolatsizlik, zo'ravonlikni qoralasa-da, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni tushunib yetmaydi, u oliy axloqiy ideallar uchun kurash olib boradi, lekin buning uchun ijtimoiy hayotni o'zgartirish, iqtisodiy asos yaratish zarurligini tushunmadi Erix Fromm bixeviorizm, muhit nazariyasi, instiktivizm va psixoanaliz oqimlarini tahlil qiladi. Bixeviorizmga ko'ra, xulq - atvor his, idrok, ta'surot, mayl, ehtiros, hatto fikrlash kabi sub'ektiv omillardan tashqaridagi hol sifatida o'rganilishi kerak. Demak, insondagi zo'ravonlik va tajovuzning kelib chiqishi sub'ektiv omillar bilan bog'liq emas, shuning uchun ular sof xatti-harakat sifatida qaralishi lozim. Neobixeviorizm namoyondasi B.F.Skinner

esa "stimul-reakstiya" nazariyasini ilgari suradi. Unga ko'ra, agar kishi ijobiy stimul bilan ta'minlanib tursa, unda kerakli xulq-atvorni shakllantirish mumkin. E.Fromm savol qo'yadi: Nima uchun ijobiy stimullar ba'zan kishini badxulqlikdan xolos qilmaydi, hatto uni aql, idrok, mehr-muhabbat, vijdonga zid xatti-harakatlar sodir qilishga olib keladi? Nega hayot talablariga muvofiq yashaydigan kishilar ba'zan o'zini baxtsiz sezadi va turli o'ng'aysizliklardan azob tortadi? Demak, kishi xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijobiy stimuldan tashqari yana nimalardir bor. Forobiy va Erix Frommning inson xulqi va axloqi haqidagi qarashlari bir biriga o'xshash jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan, ikkita allomaning nafaqat insonning ijobiy xulqlari balki salbiy xulqlarini yoritib berishga harakat qilishgan. Masalan bu yerda, Fromm insonning ijobiy xulq-atvori bilan birga zo'ravonlik, johillik kabi salbiy tamonlarini, ya'ni salbiy axloqiy hislatlarini ham tahlil qilganligini ko'rsak, Forobiyning qarashlarida ham bu jihatni ko'rishimiz mumkin. Erix Fromm neyrofiziologiya, etnologiya, paleontologiya, antropologiya xulosalariga va boshqa tarixiy-madaniy manbalarga tayanib, agressivlik inson tabiatiga xos hodisadir degan fikrning noto'g'riligini asoslaydi. U, ibtidoiy odamlar zamonaviy odamlardan kam badsifat kuchlarga ega; madaniyati past ibtidoiy jamiyat stivilizastiyasi rivojlangan hozirgi jamiyatdan kam agressivdir, degan hayratli xulosaga keladi. Odamdagi tajovuz, yovuzlik neyropsixologik omillar natijasi ham emas. Ruhiy zaif yoki kasal odam hayotni ongli tarzda yo'q qilishga intilmaydi, begunoh kishilarni o'ldirib, undan huzur olishni bilmaydi. "Odam urug'doshlarini o'ldirishdan va ularga azob berishdan huzur oluvchi jonzodlarning yagona vakilidir. Agerssivlik odamda tug'ma ham, uning tabiatida ham emas" Uning, stivilizastiyaning, ya'ni "mehnat taqsimotining paydo bo'lishi, ishlab chiqarishning o'sishi va ortiqcha mahsulotlarning to'planishi, ierarxik tizimga ega davlatlar va elitar qatlamlarning yuzaga kelishi natijasidir". Faylasuf, inson ziddiyatlarga to'la sharoitlar ta'sirida yashab keladi. Shu bois u, ya'ni inson yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat kabi qarama-qarshi kategoriyalar yoki har doim ham unda yetarli darajada bo'lavermaydigan instinkt va har doim keragidan ortiq darajada bo'ladigan o'z "men"ni yuqori qo'yish kabi ziddiyatli hollar bilan idrok etilishi mumkin. Bepoyon olam oldida o'zini yolg'iz va tarixiy zaruriyat oldida o'zini ojiz sezishi, bejilov munosabatlarga ta'sir o'tkazaolmasligiga iqror bo'lishi kishida ekzistenstional ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish kishi uchun tabiiy ehtiyojlarini qondirish kabi zarurdir. Agar ularni qondirish imkoni bo'lmasa, kishi kuch ishlatishni lozim topadi, deb yozadi. Erix Fromm agressiyani xushsifat va badsifat ko'rinishlarga klassifikastiya qiladi. Xushsifat agressiya

negizida, faylasuf ta'kidiga ko'ra, yo o'zini himoya qilish yoki o'zini namoyon qilish maqsadlari yotadi. Himoyaviy agressiya ovchi, qassob, jarroh va milistionerlarning xatti-harakatlarida, kishining tashqi hujumlardan o'zini, mulkini yoki yaqinlarini himoya qilishida namoyon bo'ladi. Himoyaviy agressiya hayvonlarda ham kuchli rivojlangan, biroq odamgina agressiyani oldindan ko'ra bilishi, uni o'zi tomon yo'naltirishi yoki soxta tajovuzlarni o'ylab topishi mumkin. Masalan, kishilar o'z huquqlarini ko'proq anglab yetgan, jamiyat va davlat ishlariga ko'proq aralashgan sayin ularni boshqarish murakkablashadi. Avtokratik davlatlar bu vazifani hal etish uchun yo zo'ravonlik ishlatadi yoki soxta bosqinchilikni, "xalq dushmanlari"ni o'ylab topadi. Ushbu badniyat ishlarga, da'vatlarga laqqa ishonuvchi ommi kishilar, avom, ular hamma jamiyatda va har doim istagancha topilgan, avval "vatanni himoya qilish", keyin esa "dushman ustiga yurish"ning tarafdori bo'lib chiqadi. Badniyat shaxslarning avom kishilar qalbidagi ushbu tuyg'udan o'z maqsadlari yo'lida foydalanib kelayotgani sir emas, aslo. Shuning uchun ochiq tanqidiy fikr, o'z erki va huquqini yaxshi bilish, ularni himoya qilish uchun birlashishgina "o'zini himoya qilish"ning tajovuzga, agressiyaga aylanishidan saqlaydi. Forobiy asarlarida esa ko'proq inson, inson tarbiyasi, jamiyat va davlat muammolarini aks etirililgan. Erkin fikr yuritish, ya'ni xurfikrlilik g'oyalaridan ilhomlangan o'rta asr faylasufi: Abu Nasr Forobiy inson borlig'i, xususan, uning tanasi bilan joni jismi bilan uning insoniyligi, insoniyligi bilan u yashayotgan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, insonning insoniyligini namoyon qiluvchi fazilatlar, xislatlar va ularning shakllanish jarayoni muammolarini nazariy jihatdan ochib berishga harakat qildi. Jon va tananing o'zaro aloqadorligi muammolari haqida fikr yuritgan Abu Nasr Forobiy qadimgi yunon faylasufi Platonning insonning ko'chib yurishi haqidagi ta'limotiga qarshi chiqdi. O'zining "Masalalarning mohiyati" ("O'yinul masail") risolasida jon tanadan oldin mavjud bo'lmasligi, bir tanadan boshqa tanaga ko'chib o'ta olmasligi haqidagi g'oyani olg'a surdi. Abu Nasr Forobiyning fikriga asosan, odamlarning tanasi paydo bo'lishi bilan uning "oziqlantiruvchi quvvat" vujudga keladi. O'sha quvvat yordamida inson tanasi hamisha oziqlanadi va shu jarayonda insonda sezgi organlari paydo bo'ladi. Inson sezgi organlari tufayli his-tasavvur, xotira birlashib, xayol hosil bo'ladi. "Xayol quvvati" yordamida inson bilim, hunar egalaydi, faoliyat ko'rsatadi, foyda-zararning farqiga boradi [Al-Farabi, Forobiy ta'kidlaganidek, inson o'zining aql-zakovati bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Undagi aql-zakovat ("Aqliy quvvat") borliqning turli-tuman ko'rinishlarining aksidir. Inson o'zidagi o'sha aql-zakovat yordamida avval yerda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning sabablarini, so'ng esa osmon jismlarining sir-u asrorini biladi.

Insonning olam to'g'risidagi to'plagan bilimlari, ya'ni hayotligida yaratgan ma'naviy boyliklari hech qachon yo'q bo'lib ketmaydi, balki "Dunyoviy aql"ni tashkil etadi. Inson aqli olam sirlarini bilishda eng yuksak cho'qqiga ko'tarilganda, "dunyoviy aql", "dunyoviy ruh" bilan qo'shiladi. O'z navbatida, har bir kishining joni va aqli, ya'ni "individual aql" va "individual jon"ning paydo bo'lishida, "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql" hal qiluvchi rol o'ynaydi Forobiyning tushuntirishicha, "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql", "individual jon", "individual aql" paydo bo'lishi va rivojlanishining sababchisidir. "Individual jon", "individual aql" inson tanasining o'limi, yo'q bo'lishi bilan yo'qolib ketmaydi, balki "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql" ga qo'shiladi. Insonning joni va aqli abadiylikka ketadi, biroq hech qachon qaytib kelmaydi, qayta namoyon ham bo'lmaydi. Ular tanani tark etgandan so'ng yana bir butun bo'lib, birlashadi, har bir jon va har bir aql inson tanasida yashagan vatqda orttirgan barcha ma'naviy narsalar to'planib, hamisha barhayot, "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql"ni tashkil etadi. Forobiy inson bilish jarayonining bosqichlarini insondagi «tashqi quvvat» va «ichki quvvat»lar bilan izohlaydi. «Tashqi quvvatlar» bevosita tashqi ta'sirlar orqali sezgi a'zolarida vujudga keladigan sezgilardir. Forobiy ta'rificha, odam o'z bilimlarini tashqaridan, atrofdagi hodisalardan bilish jarayonida oladi. U bilishda hissiy va mantiqiy bilish bosqichlarini farqlaydi. Odamni tashqi dunyo bilan bog'laydigan sezgining roliga to'xtalib, Forobiy ularni sezgi a'zolariga muvofiq ravishda besh turga bo'ladi. Ular: teri-badan sezgisi, ta'm bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, eshitish sezgisi, ko'rish sezgisi. Bularnng hammasini Forobiy hissiy bilish («quvvat hissiya»), deb qaraydi. Sezgini dastlabki bilimning manbai deb hisoblagan Forobiy buyumning aks etishi yoki in'ikosi o'sha buyumning o'ziga muvofiq kelsa, sezgi haqiqiy bo'ladi, deydi. Forobiyning bilishda sezgining roli va ummuman hissiy aks ettirish to'g'risidagi qarashlari Arestotelning "Sezmagan odam hech narsani bilmaydi ham, tushunmaydi ham" degan qarashlariga juda o'xshab ketadi. «Ichki quvvatga»ga esa, u esda olib qolish (xotira), xayol (tasavvur), his-tuyg'u, nutq (fikrlash) «quwatlari»ni kiritadi. «Ichki quvvat» deganda u insonning aqliy bilish bosqichini tushunadi. Uningcha, ilmni egallash shu «quvvatlar» orqali amalga oshadi. Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql muammosini chuqur tahlil qilib, bu haqida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiyaning natijasi, deydi. Uning fikrgacha, aql faqat insongagina xos bo'lgan ruhiy kuch bilan bog'liq qobiliyat, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir. Forobiy talqinida "sezgining o'ziga muvofiq tartibi bo'lganidek, aqlning ham o'ziga muvofiq tartibi bor" Birinchi usul tartibli fanlar uchun, ikkinchi usul esa, matematikaga xosdir, bu ikkala usuldan ham jismlarning u yoki bu tomonlarini

chuqurroq bilish maqsadida faqat fanlar foydalanadi. Forobiy Arestotelga o'xshab yakka buyumlar-birlamchi, mavjud tushuncha va g'oyalar esa ikkilamchi va aniq buyumlarni aqlda mavxumlashtirish natijasida vujudga kelgan deb hisoblaydi.

**Adabiyotlar sharhi** Farobiy. "Fozil odamlar shahri", "Ilmlar tasnifi"Farobiy tabiatni falsafiy va ilmiy jihatdan tahlil qilgan. U olamning tuzilishi, tabiat va inson oʻrtasidagi bogʻliqlik haqida fikr bildirgan. Ibn Sino. "Tib qonunlari", "Kitob ash-Shifo".Ibn Sino tabiat va inson organizmi orasidagi oʻzaro aloqani chuqur tahlil qilgan, tabiatni tibbiyot va falsafa bilan bogʻlagan. Abu Rayhon Beruniy. "Hindiston", "Mineralogiya", "Geodeziya".Beruniy tabiat fanlariga oid nazariyalar ishlab chiqqan va eksperimental tadqiqotlar olib borgan. U tabiatni ilmiy asosda oʻrganishga uringan.Al-Xorazmiy. "Hisob al-hind", "Astronomiya jadvallari".Al-Xorazmiy tabiatni matematik va astronomik jihatdan tadqiq qilgan. Uning ishlari tabiat hodisalarining aniq modellarini yaratishga xizmat qilgan.Mirzo Ulugʻbek. "Ziji Koʻragoniy".Ulugʻbek tabiatning astronomik qonuniyatlarini oʻrganib, osmon jismlarining harakatini ilmiy asosda bayon qilgan. Tadqiqotlar va ilmiy manbalar Sodiqov S. "Oʻrta asr Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi".Kitobda Beruniy, Ibn Sino va Farobiyning tabiat haqidagi qarashlari tahlil qilingan.Yoʻldoshev N. "Sharq falsafasida tabiat va inson muammosi".Sharq falsafasida inson va tabiat munosabatlari yoritilgan, ekologik va falsafiy jihatlar tahlil qilingan.Nasr S. H. "Science and Civilization in Islam".Kitob islom ilm-fani va falsafasining tabiat haqidagi tasavvurlarini tahlil qiladi.Gutas D. "Avicenna and the Aristotelian Tradition".Ibn Sinoning tabiat haqidagi qarashlari Aristotel falsafasi bilan bogʻlanib tahlil qilingan.Tadqiqot metodologiyasi boʻyicha adabiyotlar Fazliddinov A. "Falsafa va metodologiya".Xayrullayev M. "Oʻzbek falsafiy tafakkuri tarixi". Xulosa qilib aytganda, Forobiy dunyoqarashida uning jamiyat va axloq to'g'risidagi yaratgan yaxlit ta'limoti, insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan siyosiy falsafasi ilk o'rta asrlar va keyingi davrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Allomaning xizmati shundaki, u musulmon Sharqida birinchi bo'lib insonparvarlik va umumbashariy qadiriyatlar asoslangan tuzum, insonlarni kamolotga va baxt-saodatga yetaklaydigan axloqiy fikrlarga asoslangan jamoa haqida o'z ta'limotini yaratdi. Forobiyning bu ta'limoti hayoliy bo'lishiga qaramasdan, uning g'oyalari keyingi davrlarda Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. O'rta asr mutafakkirlari Ibn Xallikon, Ibn al-Kiftiy, Ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiy, Ibn Sino, Ibn Boja, Umar Xayyom, Beruniy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun va boshqalar Forobiyning ta'limotini chuqur o'rganib, uni yangi g'oyalar bilan boyitganlar. Buyuk mutafakkir va shoirlardan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, XV asrning

zabardast faylasufi Jaloliddin Davoniylar Forobiyning ijtimoiy-falsafiy merosini katta qiziqish bilan o'rgandilar .

**XULOSA** Mutafakkirning falsafiy g'oyalari faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Ovrupoda ham keng tarqaldi va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mutafakkirning gumanistik va axloqiy g'oyalari hozir ham insoniyatning baxt-saodatga erishuviga, jahonda tinchlik o'rnatish ishiga, kelajak avlodning yetuk va barkamol inson bo'lib yetishuviga, ilm va ma'rifat yuksalishiga xizmat qilmoqda. Frommning ham ruhiy tahlil bilan din o'rtasidagi o'zaro munosabatning asosiy xususiyatlarini aniqlaydi: hech qachon ular bir-birini istisno qilmaydi. Bundan tashqari ruhiy tahlil amaliyoti diniy hissiyotning mavjudligini doimo tan olishi zarur va ruhiy terapiyada dinning ijobiy mazmunidan foydalanishi lozim. Fromm Sharq va G'arb dinlariga insonparvarlik g'oyalari xosligini, ular inson qalbi haqida qayg'urishini va unda muhabbat tuyg'usi borligini isbotlashga harakat qildi. Shundan kelib chiqqan holda, xulosa qilish mumkinki, ruhiy tahlil doimo dinga muhtoj bo'ladi, shu o'rinda diniy e'tiqod ham ruhiy tahlilning uslublaridan foydalanishi zarur: "Ruhiy tahlil, - deb yozadi Fromm, - bu maqsadga to'siqlik qilmaydi, aksincha, uni amalga oshirish uchun katta yordam beradi".

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. З.Х. Абдуназарова (2024). Tabiiy Fanlarni O‘Qitishda O‘Quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O‘ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 ), 123-129.

2. Abdunazarova, Z. (2024). The Content Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ecological Thinking Of Primary Class Students In The Teaching Of Natural Sciences. News Of The Nuuz, 1(1.6.1), 43-45. Https://Doi.Org/10.69617/Nuuz.V1i1.6.1.3664

3. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, . (2024). Pedagogical Significance Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In Forming Ecological Thinking In Primary Class Natural Science Lessons. International Journal Of Pedagogics, 4(04), 95–97. Https://Doi.Org/10.37547/Ijp/Volume04issue04-18

4. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, & Kasimov Shavkat Urolovich.(2022). Main Tasks Of Moral Education And The Role Of Youth inlife. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 547–551.

5.Abdunazarova, Z. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students'ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin

Of Social Sciences, 32, 80-83.

6.Al-Buxoriy, Imom Ismoil. Hadis. Al jome' as-sahih. 4-kitob. - T.: - Qomuslar bosh tahririyati, 1997.- 528 b.

7.At-Termiziy, Abu Iso. Ash shamoil an-nabaviya.- T.: Cho'lpon, 1993. -112b.

8.Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya.-Toshkent: O'qituvchi, 1992. 62 b.

9. Zebiniso Abdunazarova. (2023). Formation Of The Components Of Ecological Thinking In Primary Class Students. Emergent: Journal Of Educational Discoveries And Lifelong Learning (Ejedl), 4(07), 4–9.

10. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students' Ecological Thinking In The Teaching ofnatural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.

11.Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities offorming Students' Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.

12.Абдуназарова Зебинисо Формирование экологическогомышления У Учащихся Начальных Классов "Экономика Исоциум" 11(114) 2023

13.Абдуназарова, З. Х. (2024). Tabiiy Fanlarni O 'Qitishda O 'Quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 (1)), 123-129

14. Z.X. Abdunazarova (2024). Boshlang'Ich Sinf O'quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Falsafiy Xususiyatlarini Takomillashtirish Ahamiyati. Inter Education & Global Study, (8), 342-348.

15. Абдуназарова З.Х. (2023). Формирование Экологического Мышления У Учащихся Начальных Классов. Экономика И Социум, (11 (114)-1), 486-489.

16. Z.X. Abdunazarova (2024). Boshlang'Ich Sinf O'Quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Falsafiy Xususiyatlarini Takomillashtirish Ahamiyati. Inter Education & Global Study, (8), 342-348.

17. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students' Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83. Retrieved From

18. З.Х. Абдуназарова (2024). Tabiiy Fanlarni O'qitishda O'quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O'ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 ), 123-129.

19. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, . (2024). Formation Of Ecological Thinking In Teaching Natural Sciences. International Journal Of Pedagogics, 4(04), 91–94.

20. Abdunazarova, Z. (2024). The Content Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ecological Thinking Of Primary Class Students In The Teaching Of Natural Sciences. News Of The Nuuz, 1(1.6.1), 43-45. Https://Doi.Org/10.69617/Nuuz.V1i1.6.1.3664

21.Абу Али Ибн Сина Избранное В 2-х томах . Восточная философия (ал-Хикма ал - машрикийа) Руководство по философии ( Китаб ал - хидая) Трактат об определениях (ар-Рисала фи-л-худуд ) Трактат об этике ( ар-Рисала фи-лахлак ) . Душанбе – Ашгабат.: Культурный центр Посольства ИРИ в Туркменистане - 2003.,

22.Форобий Абу Наср Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993.

PSSIR TUR PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
PROBLEMS AND SOLUTIONS OF
SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH
Volume 02, Issue 02, 2025

# TIMSS XALQARO BAHOLSH DASTURI O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI

**Abduxamitova Nasiba Umarali qizi**
**Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti**
**2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturlarining o'quvchilarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlari boshlang'ich sinf o'quvchilarning nafaqat an'anaviy bilim darajasini, balki ularning mantiqiy fikirlash, muammolarni hal qilish va real hayotga tadbiq eta olish qobiliyatlarini baholaydi. Bundan tashqari xalqaro baholash dasturlarining o'quvchilarning mustaqil fikirlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot ta'lim sifatini xalqaro miqyosda solishtirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash, shuningdek, ta'lim siyosatini takomillashtirish uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

**Tayanch so'zlar**: TIMSS, matematika, tabiiy fan, YUNISEF, o'zlashtirish, ta'lim, xalqaro tadqiqot.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim sifatini baholash hamda raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqd. Bugungi zamonaviy texnologik dunyoda muhim hisoblangan matematikaga oid bilimlarni va qobiliyatlarni rivojlantirish barcha bolalar uchun manfaatlidir. Bugungi zamonaviy o‘zgaruvchan dunyoda yangi ko‘nikmalarni o‘rganish va muammolarni hal qilish qobiliyati juda muhimdir. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillari o‘rganiladi.

Bugungi kun oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizning hayotimiz taraqqiyoti zamon talablariga mos ravishda yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muommosi bilan bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Shu maqsadda, O'zbekiston Respeblika Vazirlar Mahkamasining " Xalq ta'limi tizimida

ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8- dekabrdagi 997- sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda, respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tamonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida qator xalqaro baholash dasturlari, jumladan, TIMSS xalqaro tadqiqot bo'yicha ta'lim yutuqlarini baholashda ishtirok etish dolzarb vazifa sifatida belgilanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash ayni vaqtda muhim hodisa hisoblanadi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash samarali tashkil etilsa, tayyorlash usul va vositalari faollashtirilsa, o'qituvchi ta'lim jarayonida ijodiy ishlab, matematika va tabiatshunoslik darslarida hayotiy misollar, mantiqiy tushunchalardan o'rinli foydalanilsa, o'quvchilarning o'quv-bilim faoliyat samarali bo'ladi. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha olib borilayotgan ishlar kundalik hayotda juda muhim sanaladi. Matematika jumladan, muhandislik, arxitektura, buxgalteriya hisobi, bank, biznes, tibbiyot, ekologiya va aerokosmik kabi ko'plab sohalarda juda muhimdir. Matematika iqtisodiyot va moliya, shuningdek, hisoblash texnologiyalari va dasturiy ta'minotni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Tabiiy fanlar-bu tabiat hodisalari, tirik organizimlar va jonsiz moddalar, jumladan, bizning ob-havo, yer va suv, oziq-ovqat va yoqilg'i, manbalarimiz. Matematika va tabiiy fan ta'limda bir-birini to'ldiruvchi asosiy fanlardir. Matematika tabiy fanlarning tili bo'lib, ularni tushunish va tahlil qilish uchun zarur vosita hisoblanadi. Tabiiy fanlar esa matematikani real hayotda qo'llash imkonini beradi. Ularni birgalikdagi o'rni ilm-fan texnologiya va muhandislikda innovatsiyalar yaratish uchun juda muhimdir

TIMSS tadqiqotida o'zlashtirish to'g'risida olingan ma'lumotlar bilan kontekstli so'rovnomalar shkalalari birgalikda quyidagi maqsadlarda qo'llanilishi mumkin: tizim darajasidagi o'zlashtirish dinamikalarini global kontekstda monitoring qilish; TIMSS tadqiqotlari natijalaridan ta'lim siyosatini yurituvchilarni xabardor qilish va yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan siyosatning samaradorligini monitoring qilishda foydalanish; Past natija ko'rsatayotgan har qanday hududlarni aniqlash va o'quv dasturlarini isloh qilishni rag'batlantirish; o'tgan davriylikdagi to'rtinchi sinf kogortasi keyingi davriylikda sakkizinchi sinfda qanday ishlashini

kuzatish; uy va maktabda ta'lim olish va ta'lim berish sharoitlariga bog'liq holda o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirishlari haqidagi muhim ma'lumotlarni olish.

Joriy yilning may oyida Xalq ta’limi vazirligi va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida “O‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash” mavzusida tadqiqot o‘tkazildi. Unda respublika bo‘yicha tanlab olingan 255 ta maktabda tahsil olayotgan 4-sinf o‘quvchilarining matematika, o‘qish va tabiatshunoslik fanidan bilimi tajriba tariqasida sinovdan o‘tkazildi. Monitoring uchun TIMSS tadqiqoti materiallari mazmuni, talabidan kelib chiqib, test savollari tayyorlandi. Test sinovi materiallari YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlikda umumlashtirilib, tahlil qilinmoqda. O‘zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llash, o‘z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Tadqiqotda, O‘zbekistonning 4- va 8- sinf o‘quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qay darajada yuqori? Matematika va tabiiy fanlar 4- va 8- sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli fanmi? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni qanday tashkil etilgan? Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchilar metodlari boshqa mamlakatlar o‘qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qiladi? kabi asosiy masalalar o‘rganiladi va tadqiq etiladi. TIMSS savollari shundan iboratki matematik misollar va masalalarni shunchaki ishlabgina qolmay ularga izoh berib o’tsalar yuqori ballarga ega bo’lishlari mumkin.

O’quvchilarni matematika fanidan baholash bo’yicha matematik misollarni ko’rib chiqamiz. Masalan: 600 ta kitobni har bir qutiga 15 tadan joylashtirish kerak. Nechta quti kerak bo’lishini aniqlash uchun quyidagi keltirilgan qaysi amaldan foydalanish mumkin?

A) 15 ga 600 ni qo’shish.
B) 600 ni 15 ga ko’paytiramiz.
C) 600 dan 15 ni ayirish.
D) 600 ni 15 ga bo’lamiz.

Bu masala bo’lish amali yordamida hal qilinadi, chunki 600 ta kitobni haar qutiga 15 tadan joylashtirishimiz kerak. Har bir qutiga sigaydiga kitob sonini bilganimizda keyin, necha quti kerak bo’lishini topish uchun 600 ni 15 ga b’lish kerak.

Keyingi **masala:** TIMSS dasturidan foydalanib 4 sinf kitobidan matematik masalani ko'rib chiqamiz. Madina dugonalari bilan birga hiyobon bo'ylab sayir qilishga 2 soat 39 minut sarflashdi. Bu vaqtning uchdan bir qismida ular piyoga yurishdi, 35 minut velosiped uchishdi, qolgan vaqtda esa samakatda sayir qilishdi. Ular qaysi transport turida ko'proq uchishgan?

**Yechimi :** Barcha vaqtni daqiqaga aylantiramiz :

2 soat 39 minut =159 daqiqa

Uchdan bir qismida piyoda yurishgan:

159 : 3 =53 daqiqa

Velosipedga uchgan payt

35 daqiqa

Samakatda uchishgan vaqt:

159 – (53+35) = 71 daqiqa

Javob: Eng ko'p vaqt samakatda uchishgan.

**Xulosa** qilib shuni aytish kerakki TIMSS ta'lim sifati va o'quvchilarning bilim darajasini baholashga yordam beradi. Natijalar ta'lim tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va uni takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha tajriba almashtirish imkoniyatini ham yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tag'ayeva M. TIMSS xalqaro tadqiqotining mamlakatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021
2. Maxmudova M. Qobulova N.TIMSS xalqaro baholash dasturi va uning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ahamiyati. International scientific-online conference.
3. I.V.Repyova. Nuqtadan 0 gacha bo'lgan masofa. 4 sinf uchun Matematika kitobi. 2 qism. 2023 yil. 12-bet.

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANISH MARKAZLARINING ROLI VA AHAMIYATI .

**Jizzax viloyat Pedagogik mahurat markazi, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi**
**Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rivojlantiruvchi markazlar haqida bo'lib, tarbiyachilar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Qaysi markaz boladagi qaysi hususiyatlarini rivojlantirishi haqida ma'lumotlar berilgan. Rivojlantiruvchi markazlarda tarbiyachining bolalarga to'g'ri yo'l yo'riq ko'rsatishi, va maqsadni belgilab berishi va natijalarni tahlil qilib borishi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Markazlarning bola rivojlanishidagi ro'li va ahamiyati haqida yoritilgan.

**Abstract:** This article is about developmental centers in preschool educational organizations and serves as a guide for educators. Information is provided about which center develops which characteristics of a child. Information is also provided about how educators in developmental centers guide children correctly, set goals, and analyze results. The role and importance of centers in child development are highlighted.

**Аннотация:** Статья посвящена центрам развития в дошкольных образовательных организациях и служит руководством для педагогов. Предоставляется информация о том, какой центр развивает те или иные характеристики у ребенка. Также предоставляется информация о том, как педагоги в центрах развития дают детям правильные рекомендации, ставят цели и анализируют результаты. Подчеркивается роль и значение центров в развитии ребенка.

**Kalit so'zlar:** rivojlantiruvchi markaz, bola, qurish – yasash, san'at, til va nutq, syujetli rolli, fan va tabiat, tarbiyachi, yosh hususiyat, nutq rivojlanishi, aqliy rivojlanish, jismoniy rivojlanish.

**Keywords:** developmental center, child, construction, art, language and speech, role-playing, science and nature, educator, young personality, speech development, mental development, physical development.

**Ключевые слова:** развивающий центр, ребенок, конструирование, искусство, язык и речь, ролевые игры, наука и природа, воспитатель, юная личность, речевое развитие, умственное развитие, физическое развитие.

**Kirish** Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari bola rivojlanishi uchun ahamiyatli soha va jihatlarda o'z o'rni, hissiy amaliy tajriba egallaydigan joydir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berish, ularni barkamol, sog'lom, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash biz pedagoglarning vazifamiz ekanligini yaxshi bilamiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida tarbiyachi mashg'ulot uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanishi zarur. Tarbiyachi rivojlanish markazlarida bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etishi lozim. Shuningdek tarbiyachi bir xil yoshdagi bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabat bildirishini mutaxassislar alohida ta'kidlashadib. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyatida "Ilk qadam" o'quv dasturiga muvofiq faoliyat yuritilishi nazarda tutilgan. Qurish va konstruksiyalash markazi, syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi, til va nutq markazi, ilm fan va tabiat markazi, san'at markazi. Guruhdagi rivojlanish markazlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim bo'lib, jihozlangan rivojlanish markazlaridagi faoliyat bolalarning qiziqishlarini namoyon etish, atrof-olamni ixtiyoriy ravishda o'rganish, borliqdunyoni ijodiy tasavvur etishga harakat qiladilar. Guruhdagi rivojlanish markazlari tarbiyachi uchun juda muhimdir, birinchidan, ular bolaning individualligini va maktabgacha bolaning mukammal rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda tarbiyachi uchun samarali yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi; ikkinchidan, ular bolalarni faol maqsadli va xilma-xil faoliyat turlarida ishtirok etishda keng imkoniyatlarni yaratishni ta'minlaydi; uchinchidan, rivojlanish markazlari tarbiyachiga bolalar faoliyatini tashkil qilish uchun maxsus joy sifatida xizmat qiladi va ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Rivojlantiruvchi muhit bolalarning yosh imkoniyatlari, jinsiy moyilliklari va qiziqishlarini hisobga olgan holda yaratilishi va kun davomida bola o'ziga yoqadigan narsani topa oladigan tarzda tuzilishi kerak. Materiallarni, didaktik o'yinlarni, qo'llanmalarni, bolalar adabiyotini tanlashda bolalarning turli darajadagi rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish va har bir bolaning ijobiy rivojlanishi uchun kerakli tuzatishni amalga oshirishga yordam berish kerak. Bolalar bog'chasida rivojlanish muhiti nafaqat bolalarni keyingi ta'limga tayyorlaydigan alohida mavzuli (tematik) burchaklar va zonalar to'plami, balki bolaning "yashash joyi" bo'lib, u vaqtning muhim qismini u erda o'tkazishi mumkin. g'oyalarini, qiziqishlarini amalga oshirish. Atrof-muhit va qulaylik xavfsizligiga eng yaxshi guruhning ichki qismining uy muhiti bilan o'xshashligi orqali erishiladi. Bu davlat tashkilotlari ta'siri ostida yuzaga keladigan stressdan xalos bo'lishga yordam beradi, xavfsizlik, ishonch

hissi yaratadi, bolaning muvaffaqiyatli shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun asos bo‘lgan ijobiy hissiy kayfiyatning paydo bo‘lishi va mustahkamlanishi uchun sharoit yaratadi. Guruh maydoni maktabgacha yoshdagi bolalarga bir vaqtning o‘zida bir-biri bilan aloqa qilmasdan turli xil faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini berishi kerak. Bu yotoqxona va guruh xonasini rayonlashtirishga yordam beradi. Alohida markazlar bir-biridan bo‘limlar, bo‘shliqlar bilan ajratilishi mumkin. Alohida markazlar bolaga o‘zi uchun qiziqarli mashg‘ulotni tanlashga yordam beradi va boshqa mashg‘ulotlarga chalg‘imasdan, kerakli resusrlar, o‘yinchoqlar tufayli unga barqaror qiziqishni saqlab qoladi. A’lohida markazlarning joylashuvi bir faoliyatdan ikkinchisiga silliq o‘tishga hissa qo‘shishi yaxshiroqdir. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishni rag‘batlantiradigan ob’ektlar turli funktsional bo‘shliqlarda joylashganligi uchun rayonlashtirish yaxshi o‘ylangan va yaratilishi kerak. Har bir rivojlanish markazining o‘z maqsadi va yo‘nalishiga ega, shuning uchun markazlardagi faoliyat qiziqarli bo‘lishi, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etishi, ta’limiy materiallar va o‘yin anjomlari guruh bolalarining yoshiga mos, xavfsiz va ularda qiziqish paydo qilishi lozim. Markazdagi vazifa va topshiriqlar bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak. Har bir markaz haftaning boshida tayyorlanadi va jihozlanadi. Markaz ishi davomida tarbiyachi bolar ishini kuzatadi, tavsiya etilgan materiallarning bolalar uchun qanchalik qiziqarli, tushunarli va osonligi hamda xavfsizligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi ta’limiy materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi markazdagi ishlarni diqqat bilan tahlil qiladi va guruhning barcha bolalari besh kun davomida har bir markazda bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari kimga bajarish oson, kimga qiyin bo‘lganini kuzatadi. Kuzatuv natijalari asosida tarbiyachi bola va uning ota-onalari bilan yakka tartibda ishlashni rejalashtiradi. Har hafta oxirida tarbiyachi bolalar faoliyatini tahlil qiladi, bolalar nimalarni bilib olganini, nimani bilishni hoxlashlarini o‘rganadi, xulosalaydi. Shu bilan birga materiallar qay darajada qiziqarli va savodli tayyorlanganligi, qo‘yilgan maqsadga erishildimi yoki yo‘qmiligi chuqur tahlil etiladi. Shundan so‘ng keyingi haftaga tayyorgalik ko‘riladi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ish har bir bolaga o‘zi yoqtirgan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishga, o‘z kuchi va qobiliyatini sinab ko‘rishga, kattalar va tengdoshlari bilan birgalikda faoliyat yuritishga, ularning his-tuyg‘ulari va va xatti-harakatlarini tushunish va baholashga imkon beradi, aynan shular rivojlantiruvchi ta’lim negizini tashkil etadi.

"Qurish yasash, konstruksiyalash va matematika"markazi

Markazda bola qurish,-yasashni, matematik bilimlarni, muloqotga kirishishni o‘rganadi. Shu bilan birga mayda motorika rivojlanadi, bola doimiy harakatda bo‘ladi, bir biridan o‘rganadi, o‘rgatadi. Ushbu markazni yaxshi ishlashi, bolalarni o‘ziga jalb qilishi uchun tarbiyachi tomonidan quyidagi ishlar qilinishi lozim:

1. Markazda doimiy shovqin bo‘lganligi sababli, uni boshqa markazlardan to‘siqlar bilan ajratish;
2. Markazdagi shkaflar bola yoshiga mos bo‘lishi;
3. Shkaflardagi o‘yinchoqlar, ko‘rgazmali qurollar bola olishi va tanloviga xalaqit qilmasligini ta’minlash;
4. Markazdagi jihozlar dasturdagi mavzularga mos bo‘lishi;
5. O‘tilgan mavzularni tez olib tashlamaslik,balki ularga ham qarash,ulardan xam foydalanishlari uchun sharoit yaratish;
6. Har xaftada hafta mavzusi asosida yangi o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar, o‘yinchoqlar bilan boyitish;
7. Bolalar nazaridan qochgan jihozlarni markazdan bir muddat olib turish;
8. Markazda bolalar faoliyatini kuzatishda matematik tasavvurlarini kengaytirishga qaratilgan son sanoq, kattalik, fazoviy tushunchalar, geometrik shakllar va vaqtni bilishga qaratilgan bilimlarni bola qanchalik olayotganini tahlil qilishi lozim. Bolalar e’tiboridan chetda qolayotgan mavzularni frontal mashg‘ulotlarga olish kerakligini belgilash va frontal mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish kerak. Xuddi shunday qurish yasash jarayonlarida bola qanday konstruksiyalarni qura olayotganligi kuzatiladi. Eng sodda qurilish konstruksiyalarini qurayotgan bolada qiziqish bor, lekin malaka yo‘q, bunday bolalar bilan ertalabki, kechki soatlarda ishlash lozim bo‘ladi.

“Syujetli- rolli o‘yinlar va sahnalashtirish”markazi

Bu markaz o‘z ichiga guruhimizda yillar davomida ishlab kelgan "Mehmon - mehmon", "Oila", "Shifoxona", "Maktab", "Atele", "Sartaroshxona", "Oshxona", "Do‘kon" o‘yinlarini olgan bo‘lib, markaz deyarli har kuni ishlaydi. Bolalarga o‘yin mavzusini tushuntiring, jihozlarni ta’minlab qo‘ying va o‘zingiz chetdan kuzating. Ular sizga shunday o‘ynab berishadi, ko‘rib hayratlanasiz. Chunki bola ota-onasi bilan shifoxonaga, do‘konga, mehmonga, sartarashxonaga borayapti. U yerdagi kattalar muloqotini eshitayapti. Muomala madaniyatidan andoza olayapti. Ko‘rganlari asosida sizga rol o‘ynab berayapti. Demak ushbu markaz biz va otaonalar uchun ko‘zgu vazifasini bajaradi. Bolalardagi noto‘g‘ri tushunchalarni ertalabki va kechki soatlarda, pedagogik jarayonlarda to‘g‘irlab ketish lozim. Markazda joylashtirilgan o‘yinlar iloji boricha bir-birini to‘ldirishga harakat qilishi

lozim. Ya'ni "Mehmon-mehmon" o'yini oldida albatta "Oshxona" bo'lishi, ovqat tayyorlash uchun kerakli mahsulotlarni olib kelish uchun "Do'kon" o'yini, mehmonga borish uchun kiyim kerak "Atele" o'yini, soch turmaklash uchun "Sartaroshxona" o'yini o'z -o'zidan bolalar tomonidan qo'shib ketiladi. Shuning uchun ham bu markazga bolalar ko'proq intilishadi.

"Til va nutq"markazi

Ushbu markazda bola hayotidagi eng kerakli bo'lgan og'zaki nutq rivojlanadi, hamda o'qish malakalari, qo'l barmoqlari mayda motorikasi ham rivojlantiriladi. Markazda bolalar o'z ona tilida erkin so'zlashadilar, badiiy asarlarni ifodali hikoyalaydilar, gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, ma'noli jumlalar tuzishni, so'zlaganda otlarni birlik va ko'plikda qo'llashni o'rganadilar. O'qish, qo'l barmoqlari mayda motorikasi rivojlanadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar harf tanimaydilar. Lekin kitobni olib varaqlash orqali o'zlarini o'qiyotgandek his qiladilar va bir narsalarni gapiradilar. Masalan tanish ertaklarni, yodlagan she'rlarini, do'stlari bilan bo'lgan muloqotlarni. Markazni shovqindan bir oz uzoqroqqa joylashtirsangiz foydadan holi bo'lmaydi. Chunki qachon biz kitob bilan muloqot qilsak, do'stlarimiz bilan suhbatlashsak bizga sokinlik jimlik kerak bo'ladi. Agar markazimiz shovqin joyda joylashsa, bolalar tez chalg'iydilar, tanlagan markazlaridan boshqa markazga o'tishga harakat qiladilar. Markaz boshqa markazlarga nisbatan juda boy bo'lishi kerak, chunki markazda qancha jihoz ko'p bo'lsa, bola ularni ko'rish, ular haqida gapirish, do'stlari bilan muloqotga kirishish orqali so'z boyligi oshadi, nutqi rivojlanadi.

"Fan va tabiat" markazi

"Fan va tabiat" markazi agar sezayotgan bo'lsangiz bolalarning eng sevimli markaziga aylanib bormoqda. Chunki bolalar markaz orqali juda ko'p tajribalarni o'zlari, ularga ruxsat etilmagan ayrim tajribalarni tarbiyachi, kattalar yordamida o'tkazmoqdalar va qiziqtirgan narsalarni bilib olmoqdalar. Markazning asosiy maqsadi bolalarni tabiat va tevarak atrofdagi xodisalar bilan tanishtirish, jonli va jonsiz tabiatni farqlash, undagi turli xil mavjudotlarning yashash tarzlari haqidagi ma'lumotlarni olishga o'rgatish. Inson organizmi to'g'risidagi dastlabki bilimni ham mana shu markazda oladilar, Mikroskop, elektr asboblari, oshxona jihozlaridan foydalanishdagi havfsizlik qoidalari, tosh, suv, tuproqning xususiyatlari bilan tanishish ham aynan shu markaz mavzulariga kiradi. Demak markazning asosiy vazifasi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilganligiga yana bir bor iqror bo'ldik. Markaz faoliyati ko'proq kattalar bilan birga tashkil etiladi. Chunki bolalar xavfsizligini ta'minlash lozim. Markazga qo'yiladigan jihozlar barchasi bola

hayotiga xavf solishdan yiroq bo‘lishini ta’minlash lozim. Ularni ishlatilgandan so‘ng markazdan olib qo‘yiladi. Aynan shu tajribalarni o‘tkazilgan foto suratlar bilan bolalar olgan bilimlari mustahkamlanadi.

"San’at" markazi

Ushbu markaz o‘z ichiga asosan rasm, applikatsiya, loy ishini oladi. Markazning asosiy maqsadi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Ularni go‘zallik bilan oshno qilish, mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish orqali nutqni rivojlantirish. Bola ranglarni tanlashga, ularni o‘z o‘rnida ishlatishga o‘rganadi. Tevarak atrofdagi narsalarni ranglar orqali anglaydi. Ular orqali tushunadi. Bu markazda origami usulidagi qurish-yasash ishlari ham olib borilishi mumkin. Markazdagi barcha faoliyatni baravar qo‘yish maqsadga muvofiq. Masalan "Uycha" mavzusini bola xohlasin applikatsiya usulida xohlasin rasm chizish orqali, yoki loydan uy qursin. Markazda bola uchun shunday imkoniyat yaratish kerakki, u bekor qolmasin. Biri bo‘lmasa ikkinchisidan foydalansin. Markazga taklif etilayotganda har gal "Bugun san’at markazimizda mana bu mavzuda ishlaymiz”- deb eslatish lozim. “Siz uni xohlasangiz rasm, xohlasangiz loy, xohlasangiz applikatsiya usulida bajarishingiz mumkin. Chunki sizlar hammasidan foydalanishni bilasiz"-deb ularda o‘zlariga ishonchni tarbiyalash kerak. Markazlarga taklif etilganda bolalarga ishonch bildiring. Qo‘rqmang qaychilarni to‘mtog‘ini tanlang, qalamlarni uchini doim ochib qo‘ying, mo‘yqalamni mayinini tanlang. Rangli qog‘ozlarni yorqin rangligini tanlang toki bola o‘z ishidan zavqlansin. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida olib boriladigan integratsiyalashgan ta’limiy faoliyat bolalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Rivojlanish markazlarida bola shaxsining rivojlanishida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalariga integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta’minlaydi. Rivojlanish markazlari pedagoglar bolalarga ular nima bilan va qaerda shug‘ullanishni xohlayotgan bo‘lsalar, shunday imkoniyatni taqdim etish uchun imkon yaratadi. Har bir markazda mavjud bo‘lgan materiallar bolalarga predmetlarni o‘rganish, turli o‘yinli vaziyatlarda o‘z g‘oyalarini yaratish va tekshirish, o‘rganish yordamida o‘z savollariga javoblarni topishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Sh.Mirziyoyev – "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent, "O'zbekiston" – 2017. 157-158-betlar

2. Mamedova.M. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. ILMIY NASHRLAR MARKAZI (buxdu.Uz), 8(8).

3. Mamedova.M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8

4. Montessori M. Ilmiy pedagogika usuli. M .: AST. 2010. 26 b. Atashkina N.V

5. Ilk qadam davlat o'quv dasturi T-2022 y.

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'YIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKS KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Abdusalimova Munisa Qahramon qizi Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti**

**Annatatsiya:** Ushbu maqola boshlangʻich sinf oʻquvchilarida refleksiv koʻnikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun oʻyin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan. Tadqiqotda refleksiya tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda oʻquvchilarning oʻz-oʻzini anglash va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi oʻrni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar**: refleksiya, madaniyat, refleksiv madaniyat, qadriyat, psixologiya, pedagogika, kasbiy faoliyat. refleksiya, madaniyat, refleksiv madaniyat, kasbiy faoliyat, falsafa, psixologiya, pedagogika.

Zamonaviy ta'lim tizimida oʻquvchilarning faqat bilim egallashi emas, balki mustaqil fikrlash, oʻz harakatlarini tahlil qilish va rivojlanish strategiyasini belgilash qobiliyatlarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlangʻich sinf bosqichida ta'lim jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki oʻquvchilarning refleksiv tafakkurini rivojlantirish orqali ularning shaxsiy oʻsishiga koʻmaklashish bilan ham bogʻliqdir. Shu nuqtai nazardan, oʻyin texnologiyalaridan foydalanish oʻquvchilarning ta'limga boʻlgan qiziqishini oshirish va ularda refleksiv koʻnikmalarni shakllantirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Refleksiv koʻnikmalar bolaning oʻz-oʻzini anglash, xatti-harakatlarini tahlil qilish va shaxsiy oʻsish yoʻlida oʻz ustida ishlash qobiliyatlarini oʻz ichiga oladi. Ushbu koʻnikmalar bolaning ta'lim jarayonida oʻz kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, oʻz-oʻzini baholashi hamda muammolarni hal qilishga ijodiy yondashishiga yordam beradi. Oʻyin texnologiyalari esa oʻquvchilarni faol ishtirok etishga undab, ularga oʻz bilimlarini real vaziyatlarda sinab koʻrish imkoniyatini taqdim etadi. Shu sababli, oʻyin orqali oʻrgatish nafaqat qiziqarli va samarali, balki refleksiv koʻnikmalarni shakllantirish uchun ham muhim metodik vosita hisoblanadi. Respublikamizda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini belgilash, pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish, o'qituvchilik kasbining nufuzi va obro'sini oshirish, yangicha fikrlovchi, mustaqil faoliyat yurita oladigan pedagoglar sifatini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. "Ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimi faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish"

kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini, refleksiv madanyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiya - (lotincha "reflixio" - ortga qaytish) bu inson ongi aktlari turlaridan biri, ya'ni ong harakati bo'lib, subyektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.Pedagogika ensiklopedik lug'atida refleksiya boshqacha tarzda talqin etiladi. Refleksiya - (lotin tilidan reflexio - ortga nazar) - mulohaza yuritish, o'zini o'zi kuzatish.Madaniyat tushunchasi pedagogikaning izohli lug'atida esa quyidagicha ifodalanadi: ma'daniyat- jamiyat, ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi.Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o'zi fikr yuritishi jarayoni, o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan.Falsafada - inson nazariy faoliyatining shaxsiy xatti - harakatlari va ularning qonunlari yuzasidan mulohaza yuritishga yo'nalgan shakli. O'z xatti - harakatlari va hissiyotlari hamda ularning qonuniyatlarini tushunishga, olam sirlaridan voqmf bo'lishga intilish erta aniqlanmoqda; madaniyatning barcha bosqichlarida inson o'z xatti - harakatlari motivlari to'g'risida fikr yurita boshladi. Shunday bo'lsa-da, bu xatti - harakatlarning aksariyati ongli motivlarga ega emas. Aynan shuning uchun ham oddiy xatti - harakatlar uchun ularning tarixiy kelib chiqishiga tegishli bo'lmagan, ammo mazkur xalqning umumiy bilimlariga asoslangan xulosalarni aks ettiruvchi ikkilamchi izohlar izlanmoqda. Bunday ikkilamchi izohlarning mavjud bo'lishi asosiy antropologik hodisalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'pchilik insonlar dastlab xatti - harakatlarni sodir etadilar, so'ngra esa ularni oqlashga urinadilar. Psixologik lug'atda refleksiya tushunchasi shunday izohlanadi: refleksiya (lot. reflexio -ortga nazar) - subekt tomonidan ichki psixik aktlar va holatlarni anglash jarayoni.Ilmiy adabiyotlarda refleksiya muammosiga ko'plab yondoshuvlar mavjud.J.Lokk fikricha, refleksiya - bu aql o'z faoliyatini jalb etadigan kuzatuv"dir.Qisqacha psixologik lug'atda refleksiya tushunchasi quyidagicha izohlanadi: refleksiya (lot. reflexio - ortga nazar, murojaat) - subekt tomonidan ichki psixik aktlar va holatlarning o'zini o'zi anglash jarayoni. Refleksiya tushunchasi falsafa fanida yuzaga keldi va u individning ongida sodir bo'layotganlar to'g'risida fikrlash jarayoni matnosini bildirgan.R. Dekart refleksiyani individning barcha tashqi, jismoniy narsalardan yiroqlashib, o'z fikrlari mazmuniga diqqatini qaratish qobiliyati bilan muvofiqlashtirgan. Dj. Lokk sezgi va refleksiyani ajratib, refleksiyani bilimningalohida manbai (sezgi azolariga

asoslangan tashqi tomondan farqlanuvchi ichki tajriba) sifatida talqin etgan.Mazkur qarashlarda insonning o'zi tomonidan his qilinayotgan ong hodisalari to'g'risidagi o'z-o'ziga hisobot berish, shaxsiy psixik holatlarini tahlil qilish qobiliyati noadekvat tarzda o'zgardi. Refleksiya - ortga nazar, yani, insonning o'z fikrlari, xatti - harakatlarining dastlabki holatiga bir necha marotaba murojaat etish, tashqi kuzatuvchi o'rniga tura olish, nima qilayotgani, qanday anglayotgani, shu jumladan o'zini qay tarzda anglayotganini bilish qobiliyatidir. Ammo bu shunchaki subektning o'zini o'zi tushunishi va bilishigina emas, balki atrofdagilarning uni, shaxsiy xususiyatlarini, emotsional reaksiyalari hamda kognitiv (bilish bilan bog'liq bo'lgan) tasavvurlarini qanday bilishlari va tushunishlarini aniqlash hamdir. Hamkorlik faoliyatining predmeti mazkur tasavvurlarning mohiyati sifatida namoyon bo'lganda refleksiyaning alohida shakli - predmetli - refleksiv munosabatlar rivojlanadi. Refleksiya mexanizm sifatida identifikatsiyaga qaraganda birmuncha kechroq shakllanadi. Bolada identifikatsiyaga nisbatan qobiliyat ancha erta namoyon bo'lsa, refleksiyaning ilk nishonalari maktabgacha yosh davridagi bolada, shaxsning yangi bilimlarni egallash manbai sifatida esa u kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda rivojlanadi. Refleksiya chetlanishga, turli holatlarni egallashga yordam beradi, bu o'z navbatida, o'zini o'zi chuqur va to'liq tahlil qilishning imkonini beradi. Kichik maktab yoshi davrida refleksiyaga bo'lgan qobiliyat birmuncha oqsaydi, uning dastlabki asoslarigina rivojlanadi. Kichik maktab yoshi davrining so'nggiga kelib, o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini kengaytiruvchi hamda talabalik davrida o'zining yangi "Men"ini, ichki olamini yaratishga asos bo'lib xizmat qiluvchi refleksiv qobiliyatlar ortib boradi. Refleksiya - bu faqatgina o'zini o'zi tushunish, o'zini o'zi anglash jarayoni emas. U o'z tarkibiga o'zgalarni tushunish va baholash jarayonlarini ham oladi. Refleksiya yordamida o'z ongi, qadriyatlari, qadriyatlar bilan bog'liq fikrlarining atrofdagi kishilar, guruhlar, jamiyat va nihoyat, umuminsoniy fikrlar, munosabatlar bilan muvofiqlashuvi amalga oshadi. Biror narsani tahlil qilish - bu boshdan kechirish, o'z ichki olamidan o'tkazish, baholash hisoblanadi. Har bir insonning refleksiya olami individual, turlicha va boy mazmunga ega. Aynan refleksiyaga bo'lgan qobiliyat insonga xatti - harakatlar, hayot mazmunini va tasavvurlarini shakllantirishga, samarasi past darajada bo'lganlarini bartaraf etishga imkon beradi. Refleksiyaning muhim jihati bo'lib, shaxsiy faollikni shaxsiy qadriyatlar va fikrlar bilan mutanosiblikda boshqarish, faoliyatning o'zgargan vazifalari, maqsadlari va sharoitlari bilan bog'liqlikda yangi mexanizmlarni shakllantirish va ularga o'tishga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi. Refleksiya o'tmish to'g'risida mulohaza yuritish va kelajakni ko'ra bilishga xizmat qiladi. Barcha

tariflardagi umumiylik shundan iboratki, refleksiya - bu insonning o'ziga tashqaridan razm solish, xatti - harakatlarini tahlil qilish, zarur bo'lsa ularni o'zgartirishga bo'lgan qobiliyatidirMualliflar madaniyatning ko'p funksionalligini alohida ta'kidlaydilar, uning ijtimoiy tabiatini, insonparvarlikka yo'naltirilganligini ajratib ko'rsatadilar. Madaniyatning quyidagi turlari tahlil qilinadi: Madaniyatni keng ko'lamda anglash imkonini beruvchi ta'rif - bu uning ensiklopedik ta'rifidir Madaniyat (lotin. cultura - ishlov berish, tarbiyalash, ta'lim berish, rivojlantirish, e'zozlash) - jamiyat rivojlanishi, inson ijodiy kuchlari va imkoniyatlari rivojlanishining odamlar hayoti va faoliyatini tashkillashtirish turlari va shakllarida, ularning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalangan muayyan darajasidir. "Madaniyat" tushunchasi ma'lum tarixiy davrlar, muayyan jamiyatlar, xalqlar va elatlarni, shuningdek, faoliyat va hayotning (mehnat madaniyati, siyosiy madaniyat) o'ziga xos sohalarini ta'riflash uchun qo'llaniladi; nisbatan tor ma'noda esa -odamlarning ma'naviy hayoti sohasidir. U odamlar faoliyatining predmetga oid natijalarini (mashinalar, inshootlar, anglash natijalari, san'at asarlari, ahloq va huquq meyorlari va hokazo), shuningdek, faoliyat davomida (bilimlar, ko'nikmalar, mahoratlar, intellekt darajasi, ma'naviy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar muloqotining shakl va usullari) qo'llaniluvchi inson kuchi va imkoniyatlarini qamrab oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, madaniyat - bu insonning ham faoliyatga ham shaxsiyatga oid xususiyatidir. U insonning tafakkuri va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati darajasini aks ettiradi Ko'p mualliflar "madaniyat" tushunchasini uning inson faoliyati bilan genetik aloqasidan tashqariga olib chiqadilar. Ular madaniyatda avvalambor dasturlovchi vazifani ajratib ko'rsatadilar (M.S.Kagan, E.S.Markaryan, V.M.Mejuev). "Madaniyat - bu odamlar ishlab chiqarayotgan va qanday qilib ishlab chiqarayotgan narsadir" SHu bilan birga ishlab chiqarish ostida odamlarning ijtimoiy-madaniy faoliyati bo'lgan jamiki inson faoliyati majmui tushuniladi. Boshqa ma'noda madaniyat xayolning tushunishga oid apparatini tashkillashtirish meyorlarisifatidagi anglash natijalarini bayon qilishning mantiqiy qonunlarini egallashdan iborat. Qator mualliflar odamlarning ma'lum jamoasi madaniyatining umumiy jihatlarini o'rganadilar.M.Kubr madaniyatni muayyan odamlar guruhiga xos bo'lgan qadriyatlar, fikrlar, an'analar va xulq-atvor meyorlarini jamoada mavjud tizimi sifatida tushunadi. Dj.Xoffsted tashkilotdagi madaniyat tushunchasiga funksional ta'rif beradi: "Madaniyat - bu odamlarning bir guruhi a'zolarini boshqasidan ajratib turuvchi inson ongining jamoaviy dasturlanishidir. Bu nuqtai nazardan madaniyat jamoaviy qadriyatlar tizimidir" Freydizmda madaniyat ijtimoiy xulq mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniyatga berilgan ta'riflarda kognitiv tarkibiy qismlar (intellekt) ajratib ko'rsatilgan: sababiy-qadriyatga oid tarkibiy qismlar (dunyoqarash, ma'naviy rivojlanish, estetik anglash darajasi). Kommunikativ omilkorlik darajasi ham aniqlangan ("odamlar muloqoti usullari va shakllari"). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv madanyati faoliyati maktab bilan chegaralanmaydigan, balki barcha davlat organlari va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni nazarda tutadi. Bunda talabalar har doim o'z-o'zini tahlil qilib, mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarga hamohang, etiket qoidalariga asoslanib refleksiv madanyatini yanada rivojlantiradilar. Prezedentimiz ham so'zlagan ko'p nutqlarida yosh avlodni tarbiyalashda ro'li katta ekanligini takidlaydi. Buni natijalarini bo'lajak o'qituvchilarga yaratilayotgan sharoitlardan yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari yosh avlodmizni tarbiyalashda hayotda o'z o'rnini topish jarayoniga eng asosiy ro'lni asosiy ro'l o'ynaydigan jamiyatimiz a'zosi hisoblaanadilar. Shuning uchun avvalo talabalarning o'zlari madanyat qoidalariga, jamyatimizda eng avvalgi birinchi o'rinda turishlari kerak deb hisoblayman. Xalqimiz orasida ham shunday ibora bor "bolaning qanday shaxs bo'lib yetishishi, bolani o'qitgan boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiga ham ham bog'liqdir" deyishadi. O'quvchilaridan o'rganish haqidagi fikrlari va his-tuyg'ulari haqida so'rash orqali ular o'quv siklida faol rol o'ynaydi. Bu ularga o'z bilimlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, shuningdek, siz bilan ishlash va fikr-mulohazalarni bildirish imkonini beradi, bu esa o'z-o'zini anglaydigan va mas'uliyatli talabalarni yaratadi. Talaba o'quv siklida faol rol o'ynay boshlagandan so'ng, ular turli xil o'rganish uslublari va qiyinchiliklaridan xabardor bo'ladi. Ular hayot davomida o'rganuvchilar bo'lish uchun asosiy ko'nikmalar va strategiyalarni qanday o'rganishlari va rivojlantirishlari haqida ko'proq xabardor bo'lishadi. Reflektiv amaliyot innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Reflektiv amaliyot darslarni muayyan faoliyatingizga moslashtirishga imkon beradi. Maksimal muvaffaqiyatga erishish uchun o'rganishga yangi g'oyalar va yondashuvlarni yaratishz va tajriba o'tkazish mumkin. Turli xil o'qitish va yangi yondashuvlar bilan tajriba o'tkazish orqali talabalar yanada boyroq o'rganish tajribasiga ega bo'lishadi. Ular yanada

**Xulosa** Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida refleksiv ko‘nikmalari rivojlantirish jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ilmiy va amaliy jihatdan asoslashga qaratildi. O‘yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni va ularning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘z harakatlarini baholashi hamda shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’siri tahlil qilindi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘yin texnologiyalaridan foydalangan holda refleksiv

ko‘nikmalarni shakllantirish Shunday qilib, boshlang‘ich sinf ta’limida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun o‘yin texnologiyalaridan foydalanish muhim pedagogik yondashuv bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiradi, balki ularning shaxsiy o‘sishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muhim uslubiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va zamonaviy ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Карпов А. В. Рефлексия в структуре метакогнитивной организации субъекта // Рефлексивные процессы и управление. 2004. № 1.
2. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 154-160.
3. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH.
4. Begmurzayevich, D. B. (2022). O 'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. Ijodkor o'qituvchi, 2(20), 52-59.
5. Djalalov, B. B., & Mirzaahmedova, S. N. Q. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 68-80.
6. Karimova, B. (2019). POSSIBILITIES OF FORMATION OF NATIONAL PRIDE WITH USING KHADITHS IN THE FIRST-YEAR PUPILS OF ORPHANAGES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11).
7. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 652-665.
8. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 8547-8555.
9. Muhammadjonovna, U. N., Makhmutovna, T. H., & Kurbonovich, M. U. (2020). IPROVING THE MECHANISM OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF

YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC AND LEGAL SOCIETY. JCR, 7(12), 3133-3139.

10. Mukhammedovna, U. N., & Oyturaxonovna, I. S. (2019). IMPROVING SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN UZBEKISTAN AS THE DEMOCRACY AND DEVELOPMENT OF LEGAL SOCIETY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
3(6), June, 2023

11. SAIDKULOVICH, S. B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, <5(1), 75-77.

12. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. Journal of Higher Education Theory and Practice, 22(12),

13. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In Конференции.

14. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.

15. Tuychiyeva, I., & Jo'Rayeva, S. (2022). OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KREDIT-MODUL TIZIMINING AHAMIYATI. Science and innovation, 1(B7), 1349-1354.

16. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(12), 60-64.

17. Umidjon o'g'li, T. J. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING ESTETIK KOMPETENTLIGINI

**OUTLINE**
**VOLUME-02, ISSUE-02**


| | | |
|---|---|---|
| 1. | IS THERE A MECHANISM FOR TAXING FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY<br>ISLAMOV ERKIN GAYRATOVICH | 5-9 |
| 2. | ISMOIL GASPIRALINING JADIDCHILIK HARAKATIDA TUTGAN O‘RNI<br>Haydarova Zarnigor Bahrom qizi | 10-17 |
| 3. | BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI<br>Abduxamitova Nasiba Umarali qizi | 18-22 |
| 4. | BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARIDA O’YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA REFLIKSIF KO’NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI<br>R.D.Shabbozova<br>Abdusalimova Munisa Qahramonovna | 23-27 |
| 5. | IDENTIFYING AND DEVELOPING THE TALENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS<br>Qurboniyozova Mardona Fayzulla qizi | 28-33 |
| 6. | The impact of foreign trade activities on the economy of Uzbekistan: factors of macroeconomic growth and innovative development<br>Almuradov Nemat Abdullaevich | 34-36 |
| 7. | BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT BILAN ISHLASH TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI<br>Shononova Gulsanam Shavkat qizi | 37-41 |
| 8. | TEXNOLOGIYA O‘QITISH METODIKASI FANI ORQALI BOSHLANG’ICH SINFNI MEHNATGA YO’NALTIRISH<br>O‘ralova Barno Dilmurod qizi | 42-46 |
| 9. | AHMAD YASSAVIYNING DEVONI HIKMAT ASARIDA AXLOQIY QARASHLAR<br>Haydarova Zarnigor Bahrom qizi | 47-50 |
| 10. | BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH VA KITOBGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH<br>Jumayeva Sarvinoz Ilkhombekovna | 51-55 |

| | | |
|---|---|---|
| 11. | **РОЛЬ АФГАНСКИХ БЕЖЕНЦЕВ В ОТНОШЕНИЯХ ПАКИСТАНА И АФГАНИСТАНА И ИХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ**<br>**Жасур Умирзок угли Умирзоков** | **56-61** |
| 12. | **SABZI CHIQINDILARINING O'YUCH QIZDIRISH JARAYONINI O'RGANISH VA UNING RATSIONAL REJIMINI ASOSLASH**<br>**Uzoqova Shirin Ibrohimovna**<br>**Sanayev Ermat Shermatovich** | **62-65** |
| 13. | **KOMPOZIT ARALASHMADAGI KLEYKOVINA MIQDORI VA SIFATI**<br>**Azamatov Umid Zokirovich**<br>**Sanayev Ermat Shermatovich**<br>**Rahmatov Furqat Eshpo'lat o'g'li** | **66-69** |
| 14. | **Basalt Products' Origin History and Fiber Extraction Processes**<br>**K.V. Kabulovna, Y.M. Yusupova, X.Q. Madaminovich, Z. Erkinov Erkinboy o'g'li, A.X.Abduvoxidovich** | **70-72** |
| 15. | **ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛҒОР ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ**<br>**Кадиров Камил Маликович** | **73-79** |
| 16. | **AMIR TEMUR: PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM AND MILITARY STRATEGY**<br>**Qosimov Ahadjon** | **80-82** |
| 17. | **SUVSIZLANISHNING BASKETBOLCHILARNING JISMONIY VA AQLIY FAOLIGIGA TASIRI**<br>**Mirzalimov Muslimbek Soatjon o'g'li** | **83-85** |
| 18. | **АГРАР СОҲАДА ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ**<br>**Улугова мастура Пардаевна** | **86-91** |
| 19. | **STRUCTURING OF MOTION AND STATE-EXPRESSING VERBS IN UZBEK LANGUAGE SYNSETS**<br>**Najmiddinov Muhammadjon** | **92-95** |
| 20. | **A Study of Bacterial Pathogens Associated with Diarrhea in HIV-Positive Patients**<br>**Saidova B.S.** | **96-97** |

| | | |
|---|---|---|
| 21. | CHIDAMLI KRAXMALNING SOG'LIQ UCHUN FOYDALARI<br>Djahangirova Gulnoza Zinatullayevna<br>Bekmirzayev Shohruh Ikrom o'g'li | 98-103 |
| 22. | MINTAQAVIY ANTROPOMETRIK BAHOLASH – SOG'LOM MILLAT GAROVI (adabiyotlar sharhi)<br>F.A.Ibragimov, M.I.Kosimhojiev, D.I.Sadikova | 104-105 |
| 23. | BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI<br>Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna<br>Mamanazarova Feruza | 106-110 |
| 24. | XIVA XONLIGIDA BOSMAXONANING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI<br>Tillaev Dilmurod Ollaberganovich | 111-114 |
| 25. | ТИЖОРАТ БАНКЛАРДА РИСКЛАРНИ БОШҚАРИШНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ<br>Б.Алимов | 115-124 |
| 26. | Biofeedback therapy using the Anika computer glove in the rehabilitation of patients with impaired motor function after a stroke<br>Sharipov F.R. | 125-127 |
| 27. | Qo'g'a turkumi (Typha L) o'simliklarining tur tarkibi,bioekologiyasi va ahamiyati (Xorazm viloyati sharoitida)<br>G'afurova O'g`iloy Ildus Qizi | 128-132 |
| 28. | TEACHING ALGEBRA AS A FACTOR FOR DEVELOPING STUDENTS' THINKING AND PRACTICAL SKILLS<br>J.N. Makkamov<br>F.I. Rakhimova | 133-136 |
| 29. | STRATEGIES FOR MANUFACTURING MEDICAL DEVICES IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS<br>Jiyanbayev O.E., Abdullayev I.N. | 137-138 |
| 30. | ALPOMISH DOSTONIDA XAT MATIVI<br>Boltayeva Iroda | 139-141 |
| 31. | TUYAMO'YIN SUV OMBORI VA UNING QUYI AMUDARYO REGIONIGA TA'SIRI<br>Matjonov To'rabek Otabek o'g'li | 142-146 |

| | | |
|---|---|---|
| 32. | MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA " ILK QADAM " DAVLAT O'QUV DASTURINING QO'LLANILISHI<br>Yusupova Nilufar | 147-152 |
| 33. | MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MEHNAT TARBIYASI<br>Ravshanova Dildora | 153-157 |
| 34. | SHARQ ALLOMALARINING TABIAT HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLARI<br>Abdunazarova ZebinisoXudoyshukurovna | 158-169 |
| 35. | TIMSS XALQARO BAHOLSH DASTURI O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI<br>Abduxamitova Nasiba  Umarali qizi | 170-173 |
| 36. | MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANISH MARKAZLARINING ROLI VA AHAMIYATI .<br>Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna. | 174-180 |
| 37. | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'YIN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKS KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI<br>Abdusalimova Munisa Qahramon qizi | 181-187 |
| 38. | MUNDARIJA | 188-191 |